N. ABDURAHMONOVA, L. O‘RINBOYEVA

MATEMATIKA

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 2-sinfi uchun darslik

Tuzatilgan va to‘ldirilgan to‘rtinchi nashri

O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi tasdiqlagan



TOSHKENT
«Yangiyo‘l Poligraf Servis»
2018

UO‘K 51(075.2)
KBK 22.1
A15 (O‘zbek)

Abdurahmonova, Nabiya
Matematika: 2-sinf uchun darslik/N. Abdurahmonova, L. O‘rinboyeva; mas’ul muharrir M. Jumayev. — Toshkent: Yangiyo‘l Poligraf Servis, 2018. — 208 b.

UO‘K 51(075.2)
ISBN 978-9943-5243-6-1 KBK 22.1ya71

Mas’ul muharrir:
Mamanazar Jumayev — Nizomiy nomidagi TDPU professori, pedagogika fanlari nomzodi.

Taqrizchilar:
Sh. Ismailov — XTV tasarrufidagi Mirzo Ulug‘bek nomidagi MAFIFIDUM direktori fizika-matematika fanlari nomzodi, dotsent;
Z. Jumanova — RTM Boshlang‘ich ta’lim bo‘limi boshlig‘i;
Z. Xusenova — Toshkent shahar Yashnobod tumani 244-sonli o‘rta umumta’lim maktabning boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi.

Shartli belgilar:

— multimediyali ilova

— og‘zaki bajarish uchun mashqlar

1, 2, 3 ... — yozma bajarish uchun mashqlar

— katta, kichik, teng belgilarini qo‘yish

— bo‘sh kataklarga kerakli raqam yoki ishoralarni qo‘yish

— o‘ylab top!

— uy vazifasi uchun topshiriqlar

— darsning tugashi

Respublika maqsadli kitob jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan chop etildi.

ISBN 978-9943-5243-6-1
© «Yangiyo‘l Poligraf Servis» MChJ, 2012–2018
© N. Abdurahmonova, L. O‘rinboyeva, 2012–2018

1-SINFDA O‘TILGAN MATERIALLARNI TAKRORLASH VA UMUMLASHTIRISH

YIG‘INDI VA AYIRMANI TOPISHGA DOIR SODDA MISOLLAR

1. 1) 10, 12, 14, 16, 18, 20 sonlaridan bitta oldin keladigan qo‘shni sonlarni ayting;
2) 11, 13, 15, 17, 19 sonlaridan bitta keyin keladigan qo‘shni sonlarni ayting.

2. Rasm asosida masala tuzing va uni yeching:

6 ta



?, 4 ta ortiq

3. Ikkinchi sinfda 32 nafar o‘quvchi bor. Ularning 12 nafari qiz bola, qolganlari esa o‘g‘il bola. Sinfda necha nafar o‘g‘il bola bor?

4.

20 + 20	80 – 40	50 + 10	60 + 40
40 – 10	30 + 20	70 – 20	90 – 50

5. Hamma shakllar bir so‘z bilan qanday nomlanadi?

1)  2) 3)  4) 

6. Ertalab do‘konga 29 *l* sut keltirildi. Tushgacha 20 *l* sut sotildi. Do‘konda necha litr sut qoldi?

7.

37 − 7	40 + 9	58 − 50	94 − 90
20 + 8	16 − 6	30 + 10	62 − 40

1.



2. Hayvonot bog‘iga birinchi sinfdan 27 nafar, ikkinchi sinfdan esa undan 3 nafar ortiq o‘quvchi bordi. Hayvonot bog‘iga ikkinchi sinfdan necha nafar o‘quvchi borgan?

3. Namuna bo‘yicha bajaring: 65 = 60 + 5.

57 = 50 + □ 32 = 30 + □ 78 = 70 + □

45 = 40 + □ 96 = 90 + □ 29 = 20 + □

4. Har bir shaklda nechtadan uchburchak bor?



5. Rasm bo‘yicha masala tuzing va uni yeching:



6. Sonlarning yig‘indisini toping:

26 va 4; 38 va 2; 57 va 3; 69 va 1.

7. 47 + 3 68 − 60 36 + 4 87 + 3

54 + 4 26 − 20 77 − 7 58 + 2

QIYMATI BIR XIL BO‘LGAN MISOLLAR

1. Jadvaldan javobi bir xil bo‘lgan misollarni toping:

60 + 40	90 − 50	50 + 46	57 − 22
70 − 30	63 + 23	90 − 20	42 + 28
20 + 15	30 + 24	76 + 24	90 − 36

2. Duradgor 38 ta taxtani randalashi kerak edi. U bir kunda 30 ta taxtani randalagani aniqlandi. Duradgor yana nechta taxtani randalashi kerak?

3. Misollarni namuna bo‘yicha bajaring:

40	+	6	=	46		59	−	◯	=	50
◯	−	7	=	20		60	+	◯	=	63
48	+	2	=	◯		◯	−	7	=	30

4. Rasmda tasvirlangan har bir shaklning nomini ayting. Har bir shaklning nechta tomoni bor?



5. Rasm asosida masala tuzing va uni yeching:

Bor edi	Sotildi	Qoldi
18 kg anjir	10 kg anjir	? kg

6. Uchta sonning yig‘indisi 96. Birinchi son 42, ikkinchi son 24. Uchinchi sonni toping.

7. 70 − 30 19 + 10 58 + 2 47 + 3
50 + 40 29 − 20 36 + 4 24 + 6

1.



2. Jadvaldan qiymati bir xil bo‘lgan misollarni toping:

47−22	20+20	44+15	60+40
83+17	38−30	68−43	58−50
90−50	67+ 3	37+22	38+32

3. Qo‘shiqlar tanlovida 37 nafar qiz bola va 22 nafar o‘g‘il bola qatnashdi. Qo‘shiqlar tanlovida hammasi bo‘lib necha nafar bolalar qatnashgan?

4. Bir to‘pda 18 m atlas bor edi. Undan 8 m atlas qirqib olindi. To‘pda necha metr atlas qoldi?

5. 70 bilan 30 ning, 60 bilan 20 ning yig‘indisini va shu sonlarning ayirmasini toping.

6.

37 + 12	67 + 22	57 − 32	25 + 14
37 − 12	67 − 22	57 + 32	25 − 14
28 + 11	46 + 13	76 − 22	36 + 13

1. Qaysi usul qulay?

96 − 44 = □□	96 − 44 = □□
6 − 4 = 2	96 − 40 = 56
90 − 40 = 50	56 − 4 = 52
50 + 2 = 52	96 − 44 = 52
96 − 44 = 52	

2. Anor solingan yashik 12 kg, uzum solingani esa undan 2 kg yengil. Uzum solingan yashik necha kilogramm?

12 kg

?, 2 kg yengil

3.

87 + 12	90 − 50	25 + 12	58 − 32
38 − 24	70 + 30	29 − 13	46 + 21
26 + 13	50 − 20	40 + 28	46 − 24

4. Sonlar ketma-ketligini to‘g‘ri joylashtiring.



5. Sonlarning ayirmasini toping:
38 va 30; 80 va 50; 47 va 22; 59 va 36.

6. Har qaysi berilgan sonlardan oldin va keyin kelgan sonlarni yozing:

	29			**60**			**99**	

7. 78 − 70 89 + 1 (54 − 34) + 20

39 − 30 28 + 2 (60 + 23) − 80

QO‘SHISHNI TEKSHIRISH

1.

6 + 4 = 10
10 − 6 = 4
10 − 4 = 6

Qo‘shishni tekshirish uchun yig‘indidan qo‘shiluvchilarning birini ayirish kerak. Agar ayirmada ikkinchi qo‘shiluvchi hosil bo‘lsa, javob to‘g‘ri bo‘ladi.

48 + 2 = 50 *Tekshirish:* **50 − 2 = 48**

2. Misollarni yeching, natijani tekshiring.

34 + 12	41 + 27	62 + 3	56 + 22
26 + 13	27 + 11	57 + 3	44 + 32

3. Masalalarni yeching:

1) Issiqxonada 60 ta oq va 40 ta qizil atirgul ochilgan edi. Issiqxonada hammasi bo‘lib nechta atirgul ochilgan?

2) Issiqxonada 100 ta atirgul ochilgan edi. Xaridor kelib 60 ta atirgulni olib ketdi. Nechta atirgul qoldi?

4.

Qo‘shiluvchi	60	32	24	50	26	14	57
Qo‘shiluvchi	40	8	13	5	32	6	32
Yig‘indi							

5. Rasm asosida masala tuzing va uni yeching:

6. 60 bilan 40, 50 bilan 30, 40 bilan 20 ning yig‘indisini va shu sonlarning ayirmasini toping.

7.

47 + 3	60 + 30	36 + 4	54 + 6
58 − 8	39 − 30	27 − 7	63 − 3

AYIRISHNI TEKSHIRISH

1.

16 − 4 = 12 12 + 4 = 16

Ayirishni tekshirish uchun ayirmaga ayriluvchini qo‘shish kerak. Agar yig‘indida kamayuvchi hosil bo‘lsa, javob to‘g‘ri bo‘ladi.

67 − 6 = 61 *Tekshirish:* **61 + 6 = 67**

2. Misollarni yeching va natijaning to‘g‘riligini tekshiring:

58 − 25 | 35 − 4 | 88 − 7 | 75 − 3

3. Masalalarni yeching:

1) Bir to‘pda 90 m gazlama bor edi. Ko‘ylak tikish uchun 50 m gazlama qirqib olindi. To‘pda necha metr gazlama qoldi?

2) Bir to‘p gazlamadan 50 m qirqib olingandan so‘ng 40 m gazlama qoldi. Dastlab to‘pda necha metr gazlama bo‘lgan?

4.

Kamayuvchi	90	80	38	57	96	70	49
Ayriluvchi	50	30	30	32	44	10	24
Ayirma							

5. Bir ustunga qo‘shish amali bilan, ikkinchi ustunga ayirish amali bilan berilgan ifodalarni yozing va ularning qiymatlarini toping:
50 + 30, 90 − 40, 57 + 3, 28 − 20, 57 + 12, 76 − 34.

6.

66 − 44	96 − 36	58 + 22	74 + 23
55 + 20	87 − 47	57 − 32	74 − 23

TO‘G‘RI BURCHAK. TO‘G‘RIMAS BURCHAK

1. To‘g‘ri burchaklar.

To‘g‘ri burchakdan katta va kichik burchaklar.





Bitta burchagi to‘g‘ri burchak, qolgan ikkita burchagi to‘g‘ri burchak bo‘lmagan uchburchak shaklidagi chizg‘ich **go‘niya deb ataladi**.

Go‘niya yordamida ko‘pburchaklardagi to‘g‘ri burchaklarni aniqlang:



2. Rasm asosida masala tuzing va uni yeching:



va



16 kg
Tuzlandi — 20 kg

14 kg
Qoldi — ? kg

3. Misollarni tushuntirib yeching.

70 + ◯ = 76 59 − ◯ = 59

◯ − 5 = 40 ◯ + 4 = 24

◯ + 8 = 38 62 − ◯ = 60

4. Go‘niya yordamida burchaklarning turlarini aniqlang:



1) to‘g‘ri burchakdan kichik burchaklarning tartib raqamini yozing;
2) to‘g‘ri burchakdan katta burchaklarning tartib raqamini yozing.

5. Daftaringizga shunday to‘g‘ri burchaklar chizing:



6. Oshxonaga 18 ta choynak, 20 ta piyola keltirildi.Oshxonaga hammasi bo‘lib nechta idish keltirilgan?

7.

40 + 25	52 − 30	57 + 32	80 − 50
68 − 60	30 + 12	96 − 44	50 + 30

KO‘PBURCHAK PERIMETRI

1. Bu to‘rtburchaklarning hamma burchaklari to‘g‘ri burchak:



Ko‘pburchakning barcha tomonlari uzunliklari yig‘indisi uning perimetridir.

To‘rtburchakning perimetrini toping:



8 + 3 + 6 + 2 = 19 (sm)

2. 46 + 20 74 − 30 67 + 10 59 − 50
50 + 35 60 + 20 57 − 32 36 − 24

3. Qisqa yozuv bo‘yicha masala tuzing va uni yeching:

1- savatda — 8 kg
2- savatda — 10 kg) ? kg

4. Har bir shaklning perimetrini toping:





5. 90 − 50 □ 40 60 + 40 □ 50 57 + 3 □ 70
38 + 20 □ 70 48 + 20 □ 30 53 + 7 □ 60

6. Bir to‘pda 48 m, ikkinchi to‘pda undan 8 m kam shoyi bor. Ikkala to‘pda necha metr shoyi bor?

7. 43 + 30 64 − 20 57 + 3 28 − 8
43 − 30 64 + 20 57 − 7 20 + 8

1.

+ = 100									
	60		57		50		75		83
		30		26		48		68	

2. Shunday son qo‘yingki, tenglik to‘g‘ri bo‘lsin:

70 + □ = 76 44 − □ = 40 30 + □ = 39
28 − □ = 20 90 + □ = 90 67 − □ = 60

3. 4, 5, 9 raqamlari yordamida 9 ta ikki xonali sonni yozish mumkin: 44, 45, 49, 54, 55, 59, 94, 95, 99.

3, 7, 8 raqamlari yordamida hosil qilish mumkin bo‘lgan barcha ikki xonali sonlarni yozing.

4. 1) Daftarga quyidagi siniq chiziqni chizing:



2) siniq chiziqda nechta bo‘g‘in borligini aniqlang;
3) barcha bo‘g‘in uzunliklarining yig‘indisini toping.

5. Rasm asosida masala tuzing va uni yeching:



6. Traktorning bakida ish boshlanganda 48 litr yonilg‘i bor edi, ish oxiriga kelib 8 litr yonilg‘i qoldi. Necha litr yonilg‘i ishlatilgan?

7.

(40 + 10) + 6	(16 + 14) + 7	83 + 10
(30 − 20) + 9	(70 − 30) + 5	25 + 25
(20 + 20) + 5	(50 − 30) + 4	67 + 20

45 + 23 = 68

64 + 26 = 90

57 − 26 = 31

52 − 24 = 28



SONLAR VA HISOBLASHLAR. 100 ICHIDA O‘NLIKDAN O‘TIB QO‘SHISH VA AYIRISH

SONLAR O‘QI VA UNING MODELLARI

1. Har bir sonning nomini va o‘z o‘rnini ayting. Har bir bo‘lak oralig‘i nimaga teng?



2. Bir ustunga sonlar yig‘indisini, ikkinchi ustunga sonlar ayirmasini yozing. Bu sonli ifodalarning qiymatini toping:

58 − 40 | 57 + 3 | 78 − 6 | 40 + 14 | 70 + 23 | 20 − 3

3. Sxema bo‘yicha masala tuzing. Masalani amallar bo‘yicha bajaring.



4. Bo‘sh kataklar ichiga 1 dan 5 gacha bo‘lgan sonlarni shunday joylashtiring-ki, har bir qator va ustun bo‘yicha bu sonlar bir martadan ishtirok etsin.

5. 75 dm − 25 dm 55 sm + 35 sm
45 sm + 35 sm 52 dm − 24 dm

6. Maktab sport musobaqasi uchun 49 ta sport kiyimi sotib olindi. Shulardan 20 tasi bosh-lang‘ich sinf o‘quvchilari uchun ajratildi. Yuqori sinf o‘quvchilari uchun nechta sport kiyimi qoldi?

7. 37+ 2 78− 4 26+ 4 60− 3
37+20 78−40 26+40 60−30

1. Javobi 100 chiqishi uchun qaysi tomondan yu-rish kerak?
Hisoblashni to‘g‘ri bajaring.





2. Do‘konda kun davomida 24 ta bolalar velosipedi va undan 10 ta kam kattalar velosipedi sotildi.

Kattalar velosipedi bolalar velosipediga qaraganda nechta kam sotildi? Bolalar velosipedi kattalar velosipediga qaraganda nechta ko‘p sotilgan?

3.

16 + 4	17 + 12	48 − 15	47 + 3
28 + 2	29 − 13	25 + 14	26 − 6

4. So‘roq belgisi qo‘yilgan nuqtalarga mos sonlarni qo‘ying:



5. Ranglarga qarab, misollarning javobini toping:

25+6	96−6	42+9	18−9
67+8	84+7	68−8	59+6
59−9	38+5	39+4	16−8

6. Har qaysi shaklda nechtadan uchburchak bor?



7. Uy qurilishida 37 ta g‘isht teruvchi, ulardan 7 ta kam bo‘yoqchi ishladi. Uy qurilishida hammasi bo‘lib qancha ishchi ishlagan?

8.

47+23□ 80−30	57−26□ 42−15
32−12□ 50+20	64+25□ 75+24
45+14□ 50−20	34+25□ 57+13

100 ICHIDA SONLARNI XONADAN O‘TIB QO‘SHISH USULLARI

1. $\boxed{38+5=\square\square}$

5 sonini qanday qo‘shganingizni rasmdan foydalanib tushuntiring:



$38+5=\square\square$

2 3

$38 + 5 = \underline{38 + 2} + 3 = (38 + 2) + 3 = 40 + 3 = 43$

2. Misollarni tushuntirib yeching:

$57 + 8 = \underline{57 + 3} + 5 = (57 + 3) + 5 = 60 + 5 = 65$

3 5

$29 + 4$ $\quad 64 + 7$ $\quad 48 + 9$ $\quad 35 + 6$

1 3 $\quad$ 6 1 $\quad$ 2 7 $\quad$ 5 1

3. Maktab hovlisida 38 tup olma ko‘chati bor edi. Yana 4 tup anor va 5 tup olcha ko‘chati ekildi. Maktab hovlisiga jami necha tup ko‘chat ekilgan?

4. Namuna bo‘yicha bajaring: $\underline{26=20+6}$.

$54=50+\square$	$65=\square\square+\square$	$89=\square\square+\square$
$78=70+\square$	$29=\square\square+\square$	$37=\square\square+\square$

5. Qisqa yozuv bo‘yicha masala tuzing va uni yeching:

Bor edi — 39 ta stol
Olib kelindi — 4 ta stol
) ? ta stol

6.

45+7	34+7	57+5	16+7
29+9	59+6	86+5	65+8

1. Misollarni tushuntirib yeching:

29+6=29+1+5=(29+1)+5=30+5=35

1 5

46+4=□□ 58+2=□□ 67+3=□□

46+7=□□ 58+7=□□ 67+5=□□

4 3 2 5 3 2

2. Do‘konga 59 ta ikki va uch g‘ildirakli velosiped olib kelindi. Uch g‘ildirakli velosiped 29 ta bo‘lsa, nechta ikki g‘ildirakli velosiped olib kelingan?

3. Amal ishoralarini tengliklar to‘g‘ri bo‘ladigan qilib qo‘ying:

30□7=37	53□3=50	70□9=79
20□6=26	47□7=40	96□6=90
80□8=88	60□1=61	85□5=80

4. Ikkita kesma chizing: birining uzunligi 8 sm, ikkinchisi undan 3 sm uzun bo‘lsin. Ikkinchi kesmaning uzunligi qancha?

5. 40 sm+20 sm 50 dm−10 dm

20 dm+20 dm 70 sm−30 sm

6. Issiqxonada 39 ta atirgul ochilgan edi. Kechga borib yana 6 ta atirgul ochildi. Issiqxonada hammasi bo‘lib nechta atirgul ochilgan?

7.

35+7	28+7	45+0	75−5
38+5	69+3	54−0	29+6

1. Misollarning yechilishini tushuntiring:

37+48=□□

37 + 48 =□□

30 7 40 8

30+40=70

7+ 8=15

70+15=85

37+53=□□

37 + 53 =□□

30 7 50 3

30+50=80

7+ 3= 10

80+10=90

yoki

37+48=(30+7)+(40+8)=(30+40)+(7+8)=
=70+15=85

Ikki xonali sonni ikki xonali songa qo‘shishda o‘nliklar o‘nliklarga, birliklar birliklarga qo‘shiladi.

2. Yuqori sinf o‘quvchilari 27 ta hikoya va 38 ta she’riy kitoblarni ta’mirlashdi. O‘quvchilar hammasi bo‘lib nechta kitob ta’mirlashgan?

3. Sonlarni xona birliklarining yig‘indisi ko‘rinishida ifodalang.

37=30+7	87=80+□	15=10+□
48=40+□	13=10+□	38=30+□

4. Berilgan shakllar orasidan to‘g‘ri to‘rtburchaklarni toping va ularning raqamlarini ayting.

1) 2) 3) 4) 5)



5. Qisqa yozuv bo‘yicha masala tuzing va uni yeching:

1-bidonda — 17 *l* yog‘
2-bidonda — 28 *l* yog‘) ? litr yog‘

6. O‘yinchoq yasash ustaxonasi ishchilari bir haftada 37 ta qo‘g‘irchoq, 53 ta ayiqcha yasashdi. Ustaxona ishchilari bir haftada hammasi bo‘lib nechta o‘yinchoq yasashgan?

7.

27+18	42−5	32+16	27+33
45−23	38+5	43+20	47+28

SODDA VA TARKIBLI MASALALARNI YECHISH

1. Oshxonaga 57 ta katta, 43 ta kichkina choynak keltirildi. Oshxonaga hammasi bo‘lib nechta choynak keltirilgan?

2. Misolning yechilishini tushuntiring:

87+13=□□□
80+10= 90
7+ 3 = 10
90+10=100 yoki
87 + 13 =(80+10)+(7+3)=90+10=100
80 7 10 3

3.

76 + 24	57 − 26	67 + 33	63 − 24
52 + 48	45 + 23	78 + 22	53 + 37

4. Qisqa yozuv bo‘yicha masala tuzing va uni yeching:

Bug‘doy — 47 qop
Arpa — 43 qop) ? qop don

5. Misollarni namuna asosida yeching:





Namuna: 76 + 24 = 100.

6. Qanday shakllarni ko‘ryapsiz? Daftaringizga chizing va ularni bo‘yang.







7. Taqqoslang:

37+63□99	17+43□ 60	67+13□87
47+28□90	83+17□100	26+14□37

8. Ustaxona uchun 24 ta randa, 26 ta qo‘l arra sotib olindi. Ustaxona uchun hammasi bo‘lib nechta ish asboblari sotib olingan?

1. Kutubxonada 18 ta «Bilimdon» jurnali bor edi. Kutubxonachi bir nechta jurnalni o‘quvchilarga o‘qish uchun tarqatgandan keyin 8 ta jurnal qoldi. Kutubxonachi nechta jurnal tarqatgan?

2. Jadval asosida berilgan misollarni yeching.

38 + 5	87 + 13	57 + 8	17 + 6
37 + 48	67 + 33	48 + 9	28 + 5
76 + 24	53 + 22	29 + 4	37 + 8

3. Shunday son qo‘yingki, tenglik to‘g‘ri bo‘lsin:

57 + □ = 65	64 + □ = 71	46 + □ = 53
35 + □ = 41	29 + □ = 33	28 + □ = 35

4. Birinchi shaklda 3 ta cho‘pni shunday olingki, 4 ta kvadrat hosil bo‘lsin. Ikkinchi shakldan 3 ta cho‘pni shunday olingki, 4 ta kvadrat qolsin.

5. Nafisa 28 yoshda, akasi esa undan 5 yosh katta. Akasi necha yoshda?

6. 64, 27, 68, 74 sonlarini namunada ko‘rsatilgandek yig‘indi bilan almashtiring: 57 = 50 + 7.

7.

67 + 3	47 + 5	45 − 5	17 + 6
46 + 7	35 + 8	54 − 4	24 + 7

1. Jadval asosida misollar tuzing va ularni yeching:

Qo‘shiluvchi	67	57	38	37	87	37	43
Qo‘shiluvchi	3	32	5	48	13	53	27
Yig‘indi							

2. «Neksiya» avtomobilining bakiga 42 litr, «Spark» avtomobilining bakiga esa undan 5 litr kam benzin quyildi. «Spark» avtomobilining bakiga necha litr benzin quyilgan?

3.

75 sm + 25 sm	64 dm + 26 dm
90 dm − 53 dm	90 sm − 37 sm

4. Bu chiziqlarning qaysi birlarini siniq chiziq deb aytish mumkin?



5.

29 + 6	74 − 9	28 + 7	63 − 7
42 − 6	54 + 7	67 − 8	14 + 8

6. Bir bo‘lak holva 17 kg, ikkinchi bo‘lak holva undan 8 kg kam. Ikkinchi bo‘lak holva necha kilogramm?

7.

58 − 4	47 + 2	60 − 3	36 + 4
58 − 40	47 + 20	60 − 30	36 + 40

IKKI XONALI SONLARNING O‘NLI TARKIBI. SONLARNI QO‘SHISHNING USTUN USULI

1. Misolning yechilishini tushuntiring: $45+23=\square\square$

	O‘nl.	Birl.
	4	5
+	2	3
	6	8

$45+23=(40+20)+(5+3)=60+8=68$

Misol ustun shaklida yozib yechiladi.

1. O‘nliklar o‘nliklarning tagiga, birliklar birliklarning tagiga yoziladi.
2. Dastlab birliklar birliklarga qo‘shiladi.
   5 birl. + 3 birl. = 8 birl.
   8 birliklar tagiga yoziladi.
3. So‘ng o‘nliklar o‘nliklarga qo‘shiladi.
   4 o‘nl. + 2 o‘nl. = 6 o‘nl.
   6 o‘nliklar tagiga yoziladi.
4. Javob: 45 bilan 23 ning yig‘indisi 68 ga teng.



2. Misollarni tushuntirib yeching:

$\begin{array}{r}55\\+14\\\hline\end{array}$ $\begin{array}{r}45\\+23\\\hline\end{array}$ $\begin{array}{r}62\\+27\\\hline\end{array}$ $\begin{array}{r}73\\+25\\\hline\end{array}$ $\begin{array}{r}53\\+42\\\hline\end{array}$

3. Yosh tabiatshunoslar issiqxonada bir tupdan 35 dona, ikkinchi tupdan 13 dona limon uzishdi. Yosh tabiatshunoslar ikkala tupdan necha dona limon uzishgan?

4. Har qaysi shaklda nechtadan uchburchak bor?



5. Qisqa yozuv asosida masala tuzing va uni yeching:

1-o‘ramda — 25 m
2-o‘ramda — 15 m
3-o‘ramda — ? m

} 48 metr arqon

6. Tushirib qoldirilgan toq sonlarni yozing:
19, 21, ..., ..., 27, ..., 31.

7.

$$\begin{array}{r} 43 \\ +\ 16 \\ \hline \end{array} \qquad \begin{array}{r} 32 \\ +\ 27 \\ \hline \end{array} \qquad \begin{array}{r} 54 \\ +\ 33 \\ \hline \end{array} \qquad \begin{array}{r} 67 \\ +\ 12 \\ \hline \end{array} \qquad \begin{array}{r} 82 \\ +\ 13 \\ \hline \end{array}$$

1. Misolning yechilishini tushuntiring: $29+32=\square\square$

O‘nl.	Birl.
2	9
+ 3	2
6	1

29+32=(20+30)+(9+2)=50+11=61

Misol ustun shaklida yozib yechiladi.

1. O‘nliklar o‘nliklarning tagiga, birliklar birliklarning tagiga yoziladi.
2. Birliklar birliklarga qo‘shiladi.
   9 birl. + 2 birl. = 11 birl.
   11 birl. — bu 1 o‘nl. va 1 birl.
   Birliklar ostiga 1 ni yozib, 1 o‘nlikni o‘nliklarga qo‘shib yozish uchun esda saqlab qolinadi.
3. O‘nlik o‘nlikka qo‘shiladi.
   2 o‘nl. + 3 o‘nl. = 5 o‘nl.
   5 o‘nl. + 1 o‘nl. = 6 o‘nl.
   O‘nliklar ostiga 6 yoziladi.
4. Javob: 29 bilan 32 ning yig‘indisi 61 ga teng.

2. Misollarni tushuntirib yeching:

$$\begin{array}{r} 74 \\ +\ 19 \\ \hline \end{array} \qquad \begin{array}{r} 69 \\ +\ 23 \\ \hline \end{array} \qquad \begin{array}{r} 87 \\ +\ 13 \\ \hline \end{array} \qquad \begin{array}{r} 59 \\ +\ 17 \\ \hline \end{array} \qquad \begin{array}{r} 42 \\ +\ 23 \\ \hline \end{array}$$

3. Maktabdagi musiqa to‘garagiga 53 nafar, tasviriy san’at to‘garagiga 37 nafar o‘quvchi qatnashmoqda. Ikkala to‘garakka hammasi bo‘lib necha nafar o‘quvchi qatnashmoqda?

4. Birinchi kesma ikkinchi kesmadan necha santimetr qisqa? Uchinchi kesma ikkinchi kesmadan necha santimetr uzun?



5. Jadval asosida masala tuzing va uni yeching:

Sotib olindi	Ishlatildi	Qoldi
? kg piyoz	ertalab — 26 kg kechqurun — 22 kg	20 kg

Yechish: 1) 26 + 22 = 48 2) 48 + 20 = 68

6. Bir xonadonda 29 kg karam, undan 9 kg kam bodring, bodringdan 12 kg ortiq pomidor tuzlandi. Necha kilogramm pomidor tuzlangan?

7. Misollarni yeching.

$$\begin{array}{r} 59 \\ +\ 12 \\ \hline \end{array} \quad \begin{array}{r} 28 \\ +\ 23 \\ \hline \end{array} \quad \begin{array}{r} 55 \\ +\ 38 \\ \hline \end{array} \quad \begin{array}{r} 47 \\ +\ 34 \\ \hline \end{array} \quad \begin{array}{r} 49 \\ +\ 32 \\ \hline \end{array}$$

1. Misolning yechilishini tushuntiring: $64+26=\square\square$

	O‘nl.	Birl.
	6	4
+	2	6
	9	0

64+26=(60+20)+(4+6)=80+10=90

Misol ustun shaklida yozib yechiladi.

1. O‘nliklar o‘nliklarning tagiga, birliklar birliklarning tagiga yoziladi.
2. Birliklar birliklarga qo‘shiladi.
   4 birl. + 6 birl. = 10 birl.
   Birliklar ostiga 0 ni yozib, 1 o‘nlikni o‘nliklarga qo‘shib yozish uchun esda saqlab qolinadi.
3. O‘nlik o‘nlikka qo‘shiladi.
   6 o‘nl. + 2 o‘nl. = 8 o‘nl.
   8 o‘nl. + 1 o‘nl. = 9 o‘nl.
   O‘nliklar ostiga 9 yoziladi.
4. Javob: 64 bilan 26 ning yig‘indisi 90 ga teng.



2. Misollarni tushuntirib yeching:

$+\begin{matrix}77\\13\end{matrix}$ $+\begin{matrix}54\\36\end{matrix}$ $+\begin{matrix}47\\16\end{matrix}$ $+\begin{matrix}74\\16\end{matrix}$ $+\begin{matrix}68\\27\end{matrix}$

3. Bir oyda tovuqlar uchun 34 kg, g‘ozlar uchun 26 kg don sarflandi. Bir oyda hammasi bo‘lib qancha don sarflangan?

4. Misollarni yeching:



5. Shakllarning nomlarini yozing.

1)  2)  3)  4) 

6. Yil davomida bir qishloqda 29 ta, ikkinchi qishloqda 22 ta yangi uylar qurildi. Ikkala qishloqda bir yilda hammasi bo‘lib nechta yangi uy qurilgan?

7. Misollarni ustun shaklida yozing va amallarni bajaring:

72 + 21	90 − 58	53 + 37	46 + 24
69 − 27	56 + 34	48 − 16	87 − 66

1. Misolning yechilishini tushuntiring: 75 + 15 = □□

O‘nl.	Birl.
7	5
+ 1	5
9	0

75+15=(70+10)+(5+5)=80+10=90

Misol ustun shaklida yozib yechiladi.

1. O‘nliklar o‘nliklarning tagiga, birliklar birliklarning tagiga yoziladi.
2. Birliklar birliklarga qo‘shiladi.
   5 birl. + 5 birl. = 10 birl.
   10 birl. — bu 1 o‘nl. va 0 birl.
   Birliklar ostiga 0 ni yozib, 1 o‘nlikni o‘nliklarga qo‘shib yozilishi esda saqlab qolinadi.
3. O‘nlik o‘nlikka qo‘shiladi.
   7 o‘nl. + 1 o‘nl. = 8 o‘nl.
   8 o‘nl. + 1 o‘nl. = 9 o‘nl.
   O‘nliklar ostiga 9 yoziladi.



4. Javob: 75 bilan 15 ning yig‘indisi 90 ga teng.

2. $\begin{array}{r} 65 \\ +\ 25 \\ \hline \end{array}$ $\begin{array}{r} 50 \\ +\ 40 \\ \hline \end{array}$ $\begin{array}{r} 45 \\ +\ 45 \\ \hline \end{array}$ $\begin{array}{r} 84 \\ +\ 12 \\ \hline \end{array}$ $\begin{array}{r} 55 \\ +\ 35 \\ \hline \end{array}$

3. Uchta bo‘g‘indan iborat siniq chiziq chizing: Birinchi bo‘g‘inning uzunligi 3 sm, ikkinchisiniki 2 sm, uchinchisiniki esa 4 sm bo‘lsin. Birinchi bo‘g‘in ikkinchi bo‘g‘indan necha santimetr uzun, ikkinchi bo‘g‘in esa uchinchi bo‘g‘indan necha santimetr qisqa?

4. Amal ishoralarini tengliklar to‘g‘ri bo‘ladigan qilib qo‘ying:

32 □ 29 = 61	45 □ 23 = 68	87 □ 13 = 100
57 □ 26 = 31	42 □ 15 = 27	37 □ 53 = 90

5. Jadval asosida masala tuzing va uni yeching:

Bor edi	Keltirildi	Bo‘ldi
20 litr benzin	Yana 20 litr benzin	? litr

6. Misollarni namuna bo‘yicha bajaring: 35=30+5

42 = □□ + □	68 = □□ + □	47 = □□ + □
56 = □□ + □	24 = □□ + □	59 = □□ + □

7. Mebel do‘koniga 25 ta stol, 15 ta shkaf keltirildi. Do‘konga hammasi bo‘lib nechta mebel keltirilgan?

8. $\begin{array}{r} 58 \\ +\ 32 \\ \hline \end{array}$ $\begin{array}{r} 69 \\ +\ 29 \\ \hline \end{array}$ $\begin{array}{r} 67 \\ +\ 23 \\ \hline \end{array}$ $\begin{array}{r} 60 \\ +\ 40 \\ \hline \end{array}$ $\begin{array}{r} 47 \\ +\ 43 \\ \hline \end{array}$

NAMUNA BO‘YICHA KETMA-KETLIKNI DAVOM ETTIRISH

1. Misollarni namunaga qarab yeching:

$$100-\underbrace{37}_{30\ \ 7}=(100-30)-7=70-7=63$$

100 − 57	100 − 62	100 − 46	100 − 87
100 − 28	100 − 26	100 − 64	100 − 78

2. Novvoyxonada 100 dona shirmoy non va patir non yopildi. Ularning 78 tasi shirmoy non. Novvoyxonada nechta patir non yopilgan?

3. Misollarni tushuntirib yeching:



4. Har bir shaklning nechtadan tomoni va burchaklari bor?



5. Do‘konga sotish uchun 37 juft poyabzal keltirildi. Bir kunda 15 juft poyabzal sotildi. Do‘konda yana necha juft poyabzal qoldi?

6.

42 + 8 + 9	90 − 50	100 − 27	100 − 24
76 + 4 + 3	57 + 32	100 − 39	100 − 56

1. Misollarni namuna bo‘yicha bajaring: 22=11+11

44 = 22 + □□	64 = 32 + □□	88 = 44 + □□
48 = 24 + □□	66 = 33 + □□	90 = 45 + □□

2. Tegirmonga bir kunda 23 qop bug‘doy va shuncha qop makkajo‘xori keltirildi. Tegirmonga hammasi bo‘lib necha qop don keltirilgan?

3. Boshqotirmani yechsangiz, sevimli diyoringizning nomini bilib olasiz.

48−32 O‘	90−40 Z	42+27 I	54+33 S	87+13 N
75−23 B	28+31 E	53+42 T	88−27 K	56+42 O

16	50	52	59	61	69	87	95	98	100

4. Ikkita qo‘shni qo‘shiluvchini ularning yig‘indisi bilan almashtirib, qulay usul bilan hisoblang:

5 + 14 + 6	8 + 9 + 1	10 + 80 + 9
3 + 12 + 8	7 + 8 + 2	50 + 30 + 5

5. Shakllarni taqqoslang:





6. Maktab oshxonasiga 50 kg un keltirildi. 4 kg undan somsa, 6 kg undan shirin kulcha pishirildi. Oshxonada necha kilogramm un qoldi?

7. 50 sm + 20 sm | 70 dm − 30 dm
40 dm − 10 dm | 60 sm + 40 sm

KUNDALIK HAYOTDA UCHRAYDIGAN KOORDINATALAR SISTEMASINING MODELLARI

1. Manzilga yetib borish uchun qaysi yo‘l to‘g‘ri?



2. Do‘konga sotish uchun 42 ta chang‘i va chana olib kelindi. Ulardan 24 tasi chang‘i edi. Do‘konga nechta chana olib kelingan?

3. O‘yla, izla, top!

Yosh tomoshabinlar teatrida

4-qator	31	32	33	34		36	37	38	39	40
3-qator	21		23	24	25	26	27	28	29	30
2-qator	11	12	13	14	15	16		18	19	20
1-qator	1	2	3		5	6	7	8		10

4. 55 sm + 25 sm | 48 dm − 26 dm
64 dm − 32 dm | 49 sm + 21 sm

5. Qisqa yozuv bo‘yicha masala tuzing va uni yeching:

1-fermada – 30 ta sigir
2-fermada – ?, 14 ta kam sigir) ? ta

6. Misollarni tushuntirib yeching:

29 + ◯ = 35 ◯ − 26 = 31
42 − ◯ = 37 31 + ◯ = 61
◯ + 23 = 68 ◯ − 24 = 26

7. Ikkita kesma chizing. Birining uzunligi 12 sm, ikkinchisi undan 4 sm qisqa bo‘lsin. Ikkinchi kesmaning uzunligi qancha?

8. $\begin{array}{r} 65 \\ +\,25 \\ \hline \end{array}$ $\begin{array}{r} 55 \\ +\,35 \\ \hline \end{array}$ $\begin{array}{r} 76 \\ +\,24 \\ \hline \end{array}$ $\begin{array}{r} 37 \\ +\,53 \\ \hline \end{array}$ $\begin{array}{r} 78 \\ +\,17 \\ \hline \end{array}$

1. Yosh tomoshabinlar teatriga birinchi avtobusda 35 nafar, ikkinchi avtobusda esa undan 5 nafar kam o‘quvchi bordi. Yosh tomoshabinlar teatriga hammasi bo‘lib necha nafar o‘quvchi borgan?

2. Misollarning javobini o‘sib borish tartibida yozing:



3. Qisqa yozuv bo‘yicha masala tuzing va uni yeching:
Shaxmat to‘garagida – 27 nafar o‘quvchi
Shashka to‘garagida – ?, uch nafar ko‘p o‘quvchi

4. Har bir shaklda nechtadan uchburchak bor?





5. Misollarni qulay usul bilan hisoblang:

1) 50 bilan 7 ning yig‘indisidan 26 ni ayiring;

2) 40 bilan 5 ning yig‘indisiga 5 ni qo‘shing.

6. Kitob 18 betli edi. Saidbek shu kitobning 9 betini o‘qib bo‘ldi. U yana necha bet o‘qishi kerak?

7.

62 + 8	56 − 36	57 + 3	46 + 4
97 + 3	87 − 46	38 + 2	24 + 6

1. Misollarning javobini toping:

65 + 25

32 − 5

48 + 5

57 − 26

2. Toshkentga uchib kelgan bir samolyotda 50 nafar, ikkinchi samolyotda esa undan 4 nafar kam sayyoh keldi. Ikkinchi samolyotda necha nafar sayyoh kelgan?

3.

$$\begin{array}{r} 37 \\ +\,48 \\ \hline \end{array} \qquad \begin{array}{r} 65 \\ +\,27 \\ \hline \end{array} \qquad \begin{array}{r} 39 \\ +\,37 \\ \hline \end{array} \qquad \begin{array}{r} 76 \\ +\,14 \\ \hline \end{array} \qquad \begin{array}{r} 53 \\ +\,42 \\ \hline \end{array}$$

4. Hayvonot bog‘idagi ikkita akvariumda baliqlar bor. Ularning birida 20 ta, ikkinchisida birinchi akvariumdagidan 5 ta kam baliq bor. Ikkinchi akvariumda nechta baliq bor?



5. Misollarni tushuntirib yeching.

61 + 9 = □□

29 + 32 = □□

70 − 40 = □□

43 − 14 = □□

30 + 48 = □□

38 + 5 = □□

78 − 40 = □□

6. Har qaysi ko‘pburchakning nechtadan tomoni, nechtadan burchagi, nechtadan uchi bor?

1) 

2) 

3) 

4) 

7. Tushirib qoldirilgan juft sonlarni yozing:
18, 20, ..., ..., 26, ..., 30.

8. Misollarni ustun shaklida yozing, amallarni bajaring:

32 + 48	56 + 31	32 + 29	21 + 52
36 + 64	61 + 28	57 + 26	36 + 21

100 ICHIDA SONLARNI XONADAN O‘TIB AYIRISHNING YOZMA USULI

1. Misolning yechilishini tushuntiring: $42 - 5 = \square\square$



$42 - 5 = \square\square$

2 3

$42 - 5 = \underline{42 - 2} - 3 = (42 - 2) - 3 = 40 - 3 = 37$

2. Misollarni tushuntirib yeching:

$57 - 9 = \underline{57 - 7} - 2 = (57 - 7) - 2 = 50 - 2 = 48$

7 2

$65 - 7$ 5 2

$87 - 9$ 7 2

$42 - 6$ 2 4

$97 - 8$ 7 1

3. Kitob javonining birinchi qatoriga 37 ta, ikkinchi qatoriga esa undan 3 ta ortiq kitob joylandi. Javonning ikkala qatoriga hammasi bo‘lib nechta kitob joylangan?

4. Shakllarning nechtadan tomoni bor, ularning nomini ayting. Har bir shaklning perimetrini toping:





5. 89 sm □ 8 dm 9 sm 57 sm □ 5 dm 7 sm
62 sm □ 6 dm 2 sm 43 dm □ 4 dm 3 sm

6. Misollarni tushuntirib yeching:



7. 63, 72, 86, 47 sonlarini namunada ko‘rsatilganidek yig‘indi bilan almashtiring: 59 = 50 + 9

8. Shunday son qo‘yingki, tenglik to‘g‘ri bo‘lsin:

48 + □ = 53	85 – □ = 80	59 – □ = 50
39 + □ = 46	63 – □ = 60	23 – □ = 20
53 + □ = 62	79 – □ = 70	98 – □ = 90

1. Misolning yechilishini tushuntiring: 42 – 15 = □□

42 – 15 = (42 – 10) – 5 = 32 – 5 = 27

10 5

2. Misollarni qulay usul bilan yeching:

52 – 14 32 – 17 63 – 26

10 4 10 7 20 6

3. Sayohatga ikkinchi sinfdan 39 nafar o‘quvchi, uchinchi sinfdan esa 9 nafar kam o‘quvchi bordi. Sayohatga uchinchi sinfdan necha nafar o‘quvchi borgan?

4. Rasm asosida masala tuzing va uni yeching:

17 kg olma

?, 11 kg kam

5. Kerakli joylarda qavslarni shunday qo‘yingki, natijada to‘g‘ri tenglik hosil bo‘lsin:

80−50+10=20 100−40+50=10
40−10+20=10 90−40+20=30

6. Daftaringizga chizing va to‘g‘ri burchakni aniqlang:

1) 
2)
3) 
4) 

7. Tikuvchilar bir kunda 32 ta g‘altak oq ip, undan 15 ta kam g‘altak qora ip ishlatishdi. Bir kunda jami nechta g‘altak ip ishlatilgan?

8.

38 + 5	37 + 33	52 − 25	32 − 15
42 − 5	37 + 43	87 + 13	90 − 50

SONLARNI AYIRISHNING USTUN USULI

1. Misolning yechilishini tushuntiring: $57-26=\square\square$

O‘nl.	Birl.
5	7
− 2	6
3	1

$57-26=(57-20)-6=37-6=31$

Misol ustun shaklida yozib yechiladi.

1. O‘nliklar o‘nliklarning tagiga, birliklar birliklarning tagiga yoziladi.
2. Birliklardan birliklar ayiriladi.
   7 birl. − 6 birl. = 1 birl.
   1 birliklar tagiga yoziladi.
3. O‘nliklardan o‘nliklar ayiriladi.
   5 o‘nl. − 2 o‘nl. = 3 o‘nl.
   3 o‘nliklar tagiga yoziladi.
4. Javob: 57 bilan 26 ning ayirmasi 31 ga teng.

$$\begin{array}{r} 57 \\ -\ 26 \\ \hline 31 \end{array}$$

2.

$$\begin{array}{r} -47 \\ 16 \\ \hline \end{array} \quad \begin{array}{r} -75 \\ 32 \\ \hline \end{array} \quad \begin{array}{r} +42 \\ 14 \\ \hline \end{array} \quad \begin{array}{r} -87 \\ 13 \\ \hline \end{array} \quad \begin{array}{r} +62 \\ 16 \\ \hline \end{array}$$

3. Yugurish musobaqasida 37 nafar, uzunlikka sakrash musobaqasida esa undan 16 nafar kam o‘quvchi qatnashdi. Uzunlikka sakrash musobaqasida necha nafar o‘quvchi qatnashgan?

4. Shakllarni daftaringizga chizing va nomini yozing.

1) 2)  3) 4)

5. Bozorga sotish uchun 47 yashik olma va undan 13 yashik kam shaftoli olib kelindi. Bozorga necha yashik shaftoli olib kelingan?

6.

$$\begin{array}{r} -67 \\ 46 \\ \hline \end{array} \quad \begin{array}{r} -57 \\ 35 \\ \hline \end{array} \quad \begin{array}{r} -96 \\ 82 \\ \hline \end{array} \quad \begin{array}{r} -48 \\ 32 \\ \hline \end{array} \quad \begin{array}{r} -77 \\ 65 \\ \hline \end{array}$$

1. Misolning yechilishini tushuntiring: $50 - 24 = \square\square$

$50 - 24 = (50 - 20) - 4 = 30 - 4 = 26$

1. Birliklardan birliklar ayiriladi.
   0 dan 4 ni ayirib bo‘lmaydi. 5 o‘nlikdan 1 o‘nlikni olamiz (unutib qo‘ymaslik uchun 5 raqamining ustiga nuqta qo‘yiladi).
   1 o‘nlik = 10 birlik
   10 birl. − 4 birl. = 6 birl.
   Birliklar tagiga 6 yoziladi.



2. O‘nliklardan o‘nliklar ayiriladi.
   5 ta o‘nlik bor edi, undan birliklarni ayirish uchun 1 o‘nlikni oldik. 4 o‘nlik qoldi.
   4 o‘nl. − 2 o‘nl. = 2 o‘nl.
   O‘nliklar ostiga 2 yoziladi.
3. Javob: 50 bilan 24 ning ayirmasi 26 ga teng.

2.

70	45	80	75	30
− 34	+ 23	− 54	+ 15	− 14

3. Akbar bilan Anvar orasidagi masofa 57 m. Ularning har biri qarama-qarshi tomonga qarab 20 m dan yugurganidan so‘ng, ular orasidagi masofa qancha bo‘ladi?



4.

Kamayuvchi	30	40	60	70	50	80	90
Ayriluvchi	16	15	27	36	34	56	48
Ayirma							

5. Misollarni namunada ko‘rsatilgandek yeching:

14 − 6 □ 12 − 8
8 > 4
14 − 6 > 12 − 8

38 + 5 □ 67 + 3 42 − 5 □ 42 − 15 25 + 13 □ 58 − 15

6. Do‘konda 80 ta rasm daftari bor edi. Kun davomida 36 ta rasm daftar sotildi. Do‘konda nechta rasm daftar qolgan?

7. Qavslarni shunday qo‘yingki, tengliklar to‘g‘ri bo‘lsin.

40 − 9 + 11 = 20 40 − 6 + 2 = 32
40 − 9 + 11 = 42 60 − 20 + 7 = 33

1. Misolning yechilishini tushuntiring: 52 − 24 = □□

O‘nl.	Birl.
5	2
− 2	4
2	8

52 − 24 = (52 − 20) − 4 = 32 − 4 = 28

Misol ustun shaklida yozib yechiladi.

1. Birliklardan birliklar ayiriladi.
   2 ta birlikdan 4 ta birlikni ayirib bo‘lmaydi.
   5 o‘nlikdan 1 o‘nlik olinadi (unutib qo‘ymaslik uchun 5 raqami ustiga nuqta qo‘yiladi).
   1 o‘nlik va 2 birlik — bu 12 birlik
   12 birl. − 4 birl. = 8 birl.
   Birliklar tagiga 8 yoziladi.



2. O‘nliklardan o‘nliklar ayiriladi.
   5 ta o‘nlik edi, undan birliklarni ayirishda 1 ta o‘nlikni oldik. 4 ta o‘nlik qoldi.
   4 o‘nl. − 2 o‘nl. = 2 o‘nl. O‘nliklar tagiga 2 yoziladi.
3. Javob: 52 bilan 24 ning ayirmasi 28 ga teng.

2.

$$\begin{array}{r} -63 \\ 45 \\ \hline \end{array} \qquad \begin{array}{r} +47 \\ 35 \\ \hline \end{array} \qquad \begin{array}{r} -72 \\ 27 \\ \hline \end{array} \qquad \begin{array}{r} +32 \\ 24 \\ \hline \end{array} \qquad \begin{array}{r} -80 \\ 59 \\ \hline \end{array}$$

3. Jadval asosida masala tuzing va uni yeching:

Bor edi	Sotildi	Qoldi
50 qop guruch	tushgacha — 25 qop tushdan keyin — 20 qop	? qop

4. $80+15 \square 80+11$ $\qquad$ $30-7 \square 20+3$

$52-24 \square 50-24$ $\qquad$ $27-3 \square 27+3$

5. Har bir shaklning tomonlari uzunligini o‘lchang:

1) 

2)

6. Misollarni tushuntirib yeching.

$14+14=\square\square$

$68-54=\square\square$ $\qquad$ $28-15=\square\square$

$42+26=\square\square$ $\qquad$ $13-0=\square\square$

$79-37=\square\square$ $\qquad$ $13+29=\square\square$

7. Bir xo‘jalikda bug‘doy o‘rish uchun 22 ta, ikkinchi xo‘jalikda undan 14 ta kam kombayn ishladi. Ikkinchi xo‘jalikda nechta kombayn ishlagan?

8. Misollarni ustun shaklida yozib, amallarni bajaring:

$32-14$ $\qquad$ $64-12$ $\qquad$ $52-34$ $\qquad$ $40-4$

$60-34$ $\qquad$ $55+35$ $\qquad$ $48+22$ $\qquad$ $20-6$

AYIRMANI TOPISHGA DOIR TARKIBLI MASALALAR

1. Do‘konda 54 juft ayollar poyabzali, undan 7 juft kam erkaklar poyabzali sotildi. Necha juft erkaklar poyabzali sotilgan?

2. Jadval asosida berilgan misollarni yeching:

Kamayuvchi	58	77	64	52	50	70	63
Ayriluvchi	32	13	26	24	24	34	45
Ayirma							

3.

43 + 8	18 − 9	32 − 7	54 − 8
64 − 7	16 − 9	13 − 7	73 − 9

4. Kerakli joylarda qavslarni shunday qo‘yingki, natijada to‘g‘ri tenglik hosil bo‘lsin:

80 − 50 + 10 = 20	100 − 40 + 50 = 10
40 − 10 + 20 = 10	90 − 40 + 20 = 30
50 − 7 + 3 = 40	50 − 22 + 8 = 20

5. Shakllardagi uchburchaklarning sonini aniqlang.





6. Omborda 42 qop makkajo‘xori bor edi. Tushgacha 5 qop, tushdan so‘ng 4 qop makkajo‘xori do‘konga jo‘natildi. Omborda necha qop makkajo‘xori qoldi?

7.

42 − 2	57 − 7	27 + 2	38 + 2
42 − 7	57 − 9	27 + 20	38 + 20

1. Misollarni ustun shaklida yozib, hisoblang:

40 − 6	50 − 4	80 − 8	27 + 3

2. Misollarni tushuntirib yeching:



3. Metroning bir vagonida 98 nafar yo‘lovchi bor. Ularning 48 nafari erkak, qolganlari ayollar. Shu vagonda necha nafar ayol bor?

4. Misollarni ustun shaklida yozib hisoblang:

20 − 3	24 + 6	75 + 15	90 − 8
36 + 4	40 − 6	55 + 25	80 − 9

5. 1-shaklda nechta to‘rtburchak, 2-shaklda nechta uchburchak va to‘rtburchak bor?





6. Qovoqning og‘irligi 8 kg, tarvuzning og‘irligi esa undan 3 kg kam. Tarvuzning og‘irligi qancha?

7.

(34 + 14) − 5	(40 − 30) + 8	(30 − 20) + 20
(28 − 18) + 9	(60 + 20) + 2	(70 − 10) + 30

VAQT BIRLIKLARI: SOAT, MINUT. VAQT, MASOFA VA TEZLIKNI TOPISHGA OID SODDA MASALALAR

1.

Soatning katta mili minutni ko‘rsatadi. U bir chiziqchadan ikkinchi chiziqchaga 1 minutda o‘tadi.

Soatning kichik mili soat necha bo‘lganini ko‘rsatadi. U bir raqamdan ikkinchi raqamgacha 1 soatda o‘tadi.

1 soat = 60 minut.

1) Soat qaysi vaqtni ko‘rsatyapti?
2) Soatning katta mili qaysi raqamni ko‘rsatyapti?
3) Soatning kichik mili qaysi raqamni ko‘rsatyapti?

2. Misollarni namuna bo‘yicha bajaring:

$$100-6=90+(10-6)=90+4=94$$

90 10

100 − 7 | 100 − 4 | 100 − 9 | 100 − 8

3. Sayohatchi uch kunda qancha vaqt yo‘l bosib o‘tgan?



4. Do‘konda 100 dona changyutgich bor edi. Kun davomida 9 ta changyutgich sotildi. Do‘konda yana nechta changyutgich qoldi?

5. Velosipedchilar poygasida Aziz belgilangan manzilga 35 minutda, Abdulaziz esa 40 minutda yetib keldi. Aziz Abdulazizdan necha minut oldin yetib kelgan? Abdulaziz Azizdan necha minut keyin yetib kelgan?

6.

100 − 5	83 + 17	80 + 20	40 + 60
100 − 3	90 + 10	50 + 50	70 + 30

1. 1) Soat qaysi vaqtni ko‘rsatayotganini ayting.

2) Har bir soat 10 minutdan keyin qanday vaqtni ko‘rsatishini ayting.

2.

$$\begin{array}{r} 60 \\ -\ 24 \\ \hline \end{array} \qquad \begin{array}{r} 32 \\ +\ 27 \\ \hline \end{array} \qquad \begin{array}{r} 73 \\ -\ 45 \\ \hline \end{array} \qquad \begin{array}{r} 58 \\ +\ 32 \\ \hline \end{array} \qquad \begin{array}{r} 80 \\ -\ 54 \\ \hline \end{array}$$

3. Pazandalik musobaqasida Nasiba topshirilgan vazifani 20 minutda, Gulsara esa 25 minutda bajardi. Nasiba bu vazifani Gulsaradan necha minut oldin bajargan? Gulsara bu vazifani Nasibadan necha minut keyin bajargan?

4. Misollarni qulay usul bilan hisoblang:

40 + 30 + 9	50 + 20 + 7	30 + 20 + 8
20 + 20 + 4	80 − 40 + 5	90 − 70 + 2

5. 1 dan 9 gacha qolgan 6 ta sonni bo‘sh doirachalarga shunday joylashtiringki, har bir qator doirachalari ichidagi 4 ta son yig‘indisi 20 ga teng bo‘lsin.



6.

45 + 32	87 − 42	53 + 15	52 − 26
96 − 74	62 + 31	79 − 38	25 + 25

7. Avtobusda 30 yo‘lovchi ketayotgan edi. Bekatda yana 4 ta ayol va 7 erkak kishi chiqdi. Avtobusdagi yo‘lovchilar nechta bo‘ldi?

1. Soat modelida soat 1 ni, soat 4 ni, soat 7 ni, ko‘rsating. So‘ng shu vaqtdan 5 min, 15 min, 20 min, 3 min o‘tganini ko‘rsating.

2. Nazira uydan non do‘konigacha 15 minut, non do‘konidan maktabgacha esa 8 minut yo‘l yurdi. Nazira uydan maktabgacha qancha vaqtda yetib kelgan?

3.

27 + 18	42 − 5	42 + 17	57 − 26
54 − 13	28 + 5	34 + 20	64 − 23

4. Qisqa yozuv bo‘yicha masala tuzing va uni yeching.

Osma soat – 18 ta
Qo‘l soat – ? ta kam) ? ta soat

5. Soat ikki yarimni, o‘n besh minut kam oltini, sakkizdan o‘ttiz minut o‘tganini boshqacha nima deyish mumkin?

6. Sayohatchilar poyezdda 3 soat, mashinada poyezdga qaraganda 4 soat ortiq yo‘l yurishdi. Sayohatchilar hammasi bo‘lib necha soat yo‘l yurishgan?

7.

6 dm 5 sm ☐ 65 sm	75 sm ☐ 7 dm 5 sm
7 dm 2 sm ☐ 72 sm	34 sm ☐ 3 dm 4 sm

ODDIY SHAKLLARNI MURAKKAB SHAKLLARGA AYLANTIRISH VA AKSINCHA

1. Har bir shaklning nechtadan tomoni va burchaklari bor? Shakllarning nomini yozing.

1)  2) 3)  4)  5) 

2. Shunday son qo‘yingki, tenglik to‘g‘ri bo‘lsin.

38 + ☐ = 43	42 − ☐ = 27	75 + ☐ = 90
42 − ☐ = 37	45 + ☐ = 68	50 − ☐ = 26

3. Yangi qurilgan binoning birinchi qavatida 26 ta, ikkinchi qavatida 28 ta xona bor. Ikkinchi qavatida birinchisiga qaraganda nechta ko‘p xona bor?

4. Har qaysi shaklda nechtadan uchburchak bor?

a) 

b) 

5. Sonlarni xona birliklarining yig‘indisi ko‘rinishida ifodalang: 29 = 20 + 9.

53 = 50 + □ 42 = 40 + □ 32 = 30 + □

87 = 80 + □ 15 = 10 + □ 57 = 50 + □

6. Qirqib olingan 4 ta uchburchakdan 2 ta kvadrat yasang.



7. O‘quvchilar maktabdan istirohat bog‘iga borish va qaytishga 40 minut sarflashdi, bog‘ning o‘zida esa bolalar 20 minut sayr qilishdi. Bu sayrga hammasi bo‘lib qancha vaqt ketgan?

TO‘G‘RI TO‘RTBURCHAK QARAMA-QARSHI TOMONLARINING XOSSALARI

1.



Hamma burchaklari to‘g‘ri bo‘lgan to‘rtburchak **to‘g‘ri to‘rtburchak deb ataladi.**

To‘g‘ri to‘rtburchakning qarama-qarshi tomonlari bir-biriga teng bo‘ladi.

To‘g‘ri to‘rtburchakning to‘rtta uchi, to‘rtta burchagi, to‘rtta tomoni bor.

2.

9 + 7	7 + 5	36 + 4 − 10	29 + 1 + 7
8 + 6	6 + 6	57 + 3 − 20	48 + 2 + 9

3. Ko‘pburchaklardagi to‘g‘ri, undan katta va kichik burchaklarni aniqlang:

1) 
2) 
3) 
4) 

4. Hovuzda 9 ta o‘rdak suzib yurgan edi. Yana bir nechta o‘rdak kelib qo‘shilgandan keyin, hovuzdagi o‘rdaklar 14 ta bo‘ldi. Nechta o‘rdak kelib qo‘shilgan?

5. Amal ishoralarini tengliklar to‘g‘ri bo‘ladigan qilib qo‘ying:

40□5=45	59□9=50	80□3=83
27□7=20	60□4=64	39□9=30

6. 1) 19, 29, 39, 49, 59, 69, 79, 89, 99 sonlaridan bitta keyin keladigan qo‘shni sonlarni yozing;
2) 90, 80, 70, 60, 50, 40, 30, 20, 10 sonlaridan bitta oldin keladigan qo‘shni sonlarni yozing.

7.

8+8	9−7	37+3−5	22+8+4
9+5	7+6	46+4−2	57+3+5

1. Chizmada nechta kvadrat, nechta to‘g‘ri to‘rtburchak bor? Daftaringizga chizing va uni bo‘yang.



2. Shunday son qo‘yingki, tenglik to‘g‘ri bo‘lsin.

40+□=42	38−□=30	50+□=53
29−□=20	60+□=63	37−□=30

3. Bir oynachi 19 ta derazaga, ikkinchisi 13 ta derazaga oyna qo‘ydi. Birinchi oynachi ikkinchisiga qaraganda nechta ortiq derazaga oyna qo‘ygan?

4. Misollarni ustun shaklida yozib hisoblang.

52 − 24	48 + 32	56 − 31	29 + 32
67 + 23	69 − 29	48 + 22	84 − 63

5. Har bir shaklda nechtadan sanoq cho‘p ishlatilgan?

6. Tushib qolgan sonlarni qo‘ying 64 = 32 + 32:

48 = 24 + □□	26 = □□ + 13	68 = □□ + 34
96 = 48 + □□	22 = □□ + 11	50 = □□ + 25

KVADRAT

1. Har qaysi shaklning nomini ayting:





Bu shakl — kvadrat.
Barcha tomonlari bir-biriga teng bo‘lgan to‘g‘ri to‘rtburchak **kvadrat** deb ataladi. Kvadratning to‘rtta uchi, to‘rtta burchagi, to‘rtta tomoni bor.

2. Shunday kvadrat chizing va uning perimetrini toping:



3.

39 + 1	86 − 34	9 + 4
56 − 6	42 + 8	8 + 3
23 + 7	74 + 6	7 + 5

4. Sirk tomoshasida 9 ta ot va 8 ta kuchukcha qatnashdi. Tomoshada hammasi bo‘lib nechta uy hayvoni qatnashgan?

5. Misollarni qulay usul bilan hisoblang:

1) 1 + 2 + 3 + 4 + 5 + 6 + 7 + 8 + 9;

Namuna: 1 + 9 = 10

2) 2 + 4 + 6 + 8 + 10 + 12 + 14 + 16 + 18;

Namuna: 2 + 18 = 20

6. Fermer xo‘jaligida ertalab bir sigirdan 16 *l*, ikkinchi sigirdan unga qaraganda 4 *l* ortiq sut sog‘ib olindi. Ikkala sigirdan necha litr sut sog‘ib olingan?

7.

40 + 27	76 + 13	38 − 30	(8 + 7) − 5
57 + 22	22 + 13	29 − 20	(9 + 8) + 3
23 + 17	64 − 21	16 + 14	(7 + 7) − 4

1. Tomoni 4 sm bo‘lgan kvadrat chizing. Unda shunday bir kesma o‘tkazingki, ikkita to‘g‘ri to‘rtburchak hosil bo‘lsin.

2. Misollarni tushuntirib yeching:

$$\begin{array}{r} +\,54 \\ 16 \\ \hline \end{array} \qquad \begin{array}{r} -\,83 \\ 42 \\ \hline \end{array} \qquad \begin{array}{r} +\,32 \\ 29 \\ \hline \end{array} \qquad \begin{array}{r} -\,78 \\ 23 \\ \hline \end{array} \qquad \begin{array}{r} +\,64 \\ 25 \\ \hline \end{array}$$

3. Uchta idishda 100 litr benzin bor. Birinchi idishda 40 litr, ikkinchi idishda 35 litr benzin bo‘lsa, uchinchi idishda necha litr benzin bor?

4. Qisqa yozuv bo‘yicha masala tuzing va uni yeching:

Bor edi – 20 kg behi
Sotildi – 10 kg behi
Qoldi – ? kg behi.

5. O‘ylab top!



6. Qavslarni shunday qo‘yingki, natija berilgan songa teng bo‘lsin:

50+30+9=89 | 8+2+40=50 | 70−30+6=46

7. Oziq-ovqat do‘koniga 29 quti konfet va pecheniy keltirildi. Konfetlar 20 quti bo‘lsa, nechta quti pecheniy keltirilgan?

QO‘SHISH VA AYIRISH AMALLARINING TARKIBIY QISMLARI VA NATIJALARI ORASIDAGI O‘ZARO BOG‘LANISH

1. Misollarni tushuntirib yeching:

80 − (20 + 30)	(60 + 40) − 50	(43 + 27) + 9
70 − (30 + 30)	(60 − 40) + 40	(96 − 34) + 8

Namuna: (50 + 30) − 20 = 60

$$\begin{array}{r} +\,50 \\ 30 \\ \hline 80 \end{array} \qquad \begin{array}{r} -\,80 \\ 20 \\ \hline 60 \end{array}$$

2. Shunday sonni qo‘yingki, tenglik to‘g‘ri bo‘lsin:

28 − □ = 20	34 + □ = 40	75 − □ = 70
67 + □ = 70	89 − □ = 80	83 + □ = 90
43 + □ = 50	98 − □ = 90	38 + □ = 40

3. Qisqa yozuv bo‘yicha masala tuzing va uni yeching:

1) Bor edi — 58 kg kartoshka
   Ishlatildi — 18 kg kartoshka
   Qoldi — ? kg kartoshka
2) Bor edi — 58 kg kartoshka
   Ishlatildi — ? kg kartoshka
   Qoldi — 40 kg kartoshka

4. Rasm asosida masala tuzing va uni yeching:



Terak daraxti qayin daraxtidan necha metr baland? Sada qayin daraxtidan necha metr past? Qayin daraxti sadadan necha metr baland?

5. Shakllarni daftaringizga chizing va bo‘yang:



6. Bolalar archaga 28 ta qizil va 24 ta ko‘k sharchalar osishdi. Osilgan qizil sharchalar ko‘k sharchalardan qancha ko‘p?

7. Misollarni tekshirish bilan yeching:

$$\begin{array}{r} +\,57 \\ 23 \\ \hline \end{array} \qquad \begin{array}{r} -\,84 \\ 32 \\ \hline \end{array} \qquad \begin{array}{r} +\,36 \\ 24 \\ \hline \end{array} \qquad \begin{array}{r} -\,95 \\ 64 \\ \hline \end{array} \qquad \begin{array}{r} +\,64 \\ 36 \\ \hline \end{array}$$

1. Bir to‘p matodan kastumga 30 m, shimga 24 m, nimcha tikishga kastum bilan shim uchun qancha mato ketgan bo‘lsa, shundan 34 m kam mato ishlatildi. Nimcha tikish uchun qancha mato ishlatilgan?

Masalani reja bo‘yicha yeching:

1) Kastum bilan shimga qancha mato ketgan?
$30+24=\square\square$ (metr mato)

2) Nimcha tikish uchun qancha mato ketgan?
$54-34=\square\square$ (metr mato)

2. Jadvaldan javobi bir xil bo‘lgan misollarni toping:

57+8	50−24	14+12	98−33
89−54	29+9	67−29	40+38
28+24	87−9	28+6	78−26

3. Misollarni namunada ko‘rsatilganidek bajaring:

$57+24-35=46$

$$\begin{array}{r} +\,57 \\ 24 \\ \hline 81 \end{array} \qquad \begin{array}{r} -\,81 \\ 35 \\ \hline 46 \end{array}$$

47+12−25	90−55+14	68+13−35
68−12+10	80−37+17	57+13−23

4. 42 − 15 □ 57 − 26 53 + 37 □ 80 − 30
29 + 32 □ 90 − 50 64 + 25 □ 47 − 26

5. Bir ustunga sonlar yig‘indisini, ikkinchi ustunga sonlar ayirmasini yozing. Bu sonli ifodalarning qiymatini toping.
75 + 15, 64 + 26, 88 − 27, 57 − 26, 32 + 29, 50 − 24.

6. O‘ramda 42 m sim bor edi. Bir ish kuni davomida simdan bir necha metr qirqib olindi va o‘ramda 14 m sim qoldi. O‘ramdan necha metr sim qirqib olingan?

7. Misollarni yeching:

$$\begin{array}{r} +\,48 \\ 32 \\ \hline \end{array} \qquad \begin{array}{r} -\,79 \\ 37 \\ \hline \end{array} \qquad \begin{array}{r} +\,53 \\ 27 \\ \hline \end{array} \qquad \begin{array}{r} -\,46 \\ 35 \\ \hline \end{array} \qquad \begin{array}{r} +\,59 \\ 21 \\ \hline \end{array}$$

SONLI IFODALAR. TENGLAMALAR. GEOMETRIK SHAKLLAR VA KATTALIKLAR

1.

35 + 4 48 − 5

Bular **sonli ifodalar** yoki **ifodalar** deb ataladi. Ifodada ko‘rsatilgan amallarning natijasi **ifodaning qiymati** deyiladi.

35 + 4 = 39 35 bilan 4 sonlari yig‘indisi 39 ga teng.
35 + 4 **ifoda**, 39 **ifodaning qiymati.**

2. Ifodalarni hisoblang:
36 va 4, 48 va 30, 37 va 48 sonlarining yig‘indisi;
42 va 2, 57 va 50, 95 va 5 sonlarining ayirmasi.

3. Bog‘ga 70 tup ko‘chat o‘tqazildi. Ulardan 40 tupi gilos, 20 tupi xurmo, qolganlari esa olcha ko‘chati. Bog‘ga necha tup olcha ko‘chati o‘tqazilgan?

4. Jadval asosida masala tuzing va uni yeching:

Bor edi	Ishlatildi	Qoldi
8 kg va 6 kg	5 kg	? kg

8 + 6, 8 − 6, (8 + 6) − 5 ifodalarning qiymatini hisoblab nimani topish mumkin?

5. Shakllarni daftaringizga chizing. Har qaysi shaklda nechtadan uchburchak va nechtadan kvadrat bor?





6. Misollarni yeching:

58 − 4	47 + 2	60 − 3	36 + 4
58 − 40	47 + 20	60 − 30	36 + 40

7. Birinchi fermer xo‘jaligi 15 ta yangi traktor, ikkinchisi esa undan 4 ta ko‘p traktor sotib oldi. Ikkinchi fermer xo‘jaligi nechta yangi traktor sotib olgan?

1. Jadval asosida masala tuzing va uni yeching:

Bor edi	Ishlatildi	Qoldi
30 kg kartoshka	ertalab — 4 kg tushlikda — 5 kg	? kg

2. Hisoblang:

1) 10 sonidan 7 va 2 sonlarining yig‘indisini ayiring:

$$10 \overset{2}{-} (7 \overset{1}{+} 2)$$

> Qavsli ifodalarda oldin qavs ichidagi amallar bajariladi.

2) 10 − 7 − 2 ko‘rinishidagi misollarni yechishda amallar ketma-ket bajariladi: 10 − 7 − 2 = 1.

3. Tushuntirib yeching:

$10 \overset{2}{-} (5 \overset{1}{+} 3)$	10 − (6 + 3)	9 − (4 + 2)
10 − 5 − 3	10 − 6 − 3	9 − 4 − 2

4. Anvarda 10 ta yong‘oq bor edi. U 7 tasini ukasiga berdi, 2 tasini chaqib yedi. Anvarda nechta yong‘oq qoldi?

I usul.

1) 7 + 2 = □ ta yong‘oq yeyildi

2) 10 − 9 = □ ta yong‘oq qoldi.

II usul.

10 − 7 − 2 = 3 − 2 = 1 ta yong‘oq qoldi.

Javob: Anvarda 1 ta yong‘oq qoldi.

5. Misollarni tushuntirib yeching:

20 − (6 + 3) | 40 − (7 + 2) | 50 − (5 + 4)

6. Bolalar bog‘chasi oshxonasida 20 kg guruch bor edi. Ertalab 4 kg, tushlikda ham shuncha guruch ishlatildi. Necha kilogramm guruch qolgan?

7.

19 + 1	26 + 4	45 + 3	(9 + 6) + 5
56 + 3	87 + 3	38 + 2	(8 + 9) + 3

BIR NECHTA TENG (BIR XIL) QO‘SHILUVCHILAR YIG‘INDISI. SONNI BIR NECHTA TENG QO‘SHILUVCHILAR YIG‘INDISI SHAKLIDA IFODALASH

1. Har bir sonni bir xil qo‘shiluvchi yig‘indisiga almashtiring:

Namuna: 8 = 4 + 4

10 = 5 + 5	14 = 7 + 7	18 = 9 + 9
12 = 6 + 6	16 = 8 + 8	20 = 10 + 10

2. Uchta qo‘rada 70 ta qo‘y bor. Birinchi qo‘rada 30 ta, ikkinchi qo‘rada 20 ta qo‘y bor. Uchinchi qo‘rada nechta qo‘y bor?

Yechish: 1) 30 + 20 = □□ ta 1- va 2-qo‘radagi qo‘y;

2) 70 − 50 = □□ ta 3-qo‘radagi qo‘y.

3. Tushib qolgan sonlarni qo‘ying: 28 = 14 + 14.

64=32+□□	88=44+□□	26=13+□□
48=24+□□	66=33+□□	44=22+□□

4. Jadval asosida masala tuzing va uni yeching:

Bor edi	Ishlatildi	Qoldi
25 kg va 22 kg	27 kg mix	? kg

5. Ikkita qo‘shni qo‘shiluvchini ularning yig‘indisi bilan almashtirib, qulay usul bilan hisoblang:

7+8+2	2+14+6	40+20+6
6+9+1	13+7+4	30+50+8

6. «Afrosiyob» poyezdining bir vagonida 72 nafar yo‘lovchi bor. Ularning 34 nafari erkak, qolganlari ayol. Shu vagonda necha nafar ayol bor?

7.

(90−30)+10	80−(20+30)	(80−40)−40
(40+40)−20	70−(30+30)	(60−20)+10

SODDA VA TARKIBLI MASALALARNI YECHISH

1. Karim 5 ta, akasi 7 ta, otasi 13 ta baliq tutdi. Otasi Karimdan nechta ortiq baliq tutgan?
Quyidagi ifodalar nimani bildiradi?
7+5 | 7−5 | 13−7 | 13−5 | 5+7+13

2. Jadvaldan javobi bir xil bo‘lgan misollarni toping:

45+23	90−64	64+26	42−15
50−24	75+15	87+13	76+24
27+3	38− 8	39+29	62−35

3. Qisqa yozuv bo‘yicha masala tuzing va uni yeching:
1-mashinada — 56 qop piyoz
2-mashinada — ?, 16 qop kam piyoz) ? qop

4.

75 sm + 25 sm	67 dm − 26 dm
89 dm − 39 dm	45 sm + 35 sm

5. Necha juft choynak bor? Hamma choynaklar nechta?

6. Do‘konda 8 yashik apelsin va 7 yashik limon bor edi. Bir necha yashik xurmo keltirilgandan so‘ng 25 yashik meva bo‘ldi. Necha yashik xurmo keltirilgan?

7. Misollarni yeching:

$(34+14)-5$	$(40-30)+8$	$20+(30-20)$
$(28-18)+9$	$(60+20)+2$	$60-(20+10)$

HARFLI IFODALAR

1.



Bobur ko‘rsatayotgan ifodadagi bo‘sh katakcha o‘rniga Nafisa, Gulbahor, Anvar va Ulug‘beklar qo‘lidagi raqamlarni qo‘yib ifoda tuzing va ularning qiymatlarini toping. Masalan: $3+5=8$.

«Darcha»ga boshqa sonlarni qo‘ying va hosil bo‘lgan ifodalarning qiymatini hisoblang:

□+8 □+9 15−□ □+16

Matematikada «darchalar» o‘rniga kichik lotin harflari qo‘yiladi. Ularning o‘qilishi va yozilishi quyidagicha:

Masalan: ***a*** harfi **«a»** deb, ***b*** harfi **«be»** deb, ***k*** harfi **«ka»** deb o‘qiladi.

Demak, $a=9$, $a=8$ bo‘lsa, $a+7$ yoki $7+a$ ifodaning qiymatini bunday topish mumkin:

$9+7=16$ yoki $7+9=16$; $8+7=15$ yoki $7+8=15$.

Agar $a=6$, $a=8$, $a=10$, $a=12$ bo‘lsa, $a+8$ ifodaning qiymatini toping:

Namuna: $6+8=14$; $12+8=20$.

2.

Keltirildi	Ta’mirlandi
43 ta mashina	1-kuni — 20 ta mashina 2-kuni — 12 ta mashina

Yana nechta mashina ta’mirlanishi kerak?

Yechish:

1) 20 + 12 = □□ ta’mirlangan mashina.

2) 43 − 32 = □□ ta’mirlanishi kerak bo‘lgan mashina.

3.

18+5	17+28	32−15	87+13
32−5	17+43	52−25	76+24

4. Ifodalar tuzing va ularning qiymatlarini toping:

76 va 4, 37 va 53, 28 va 5 sonlarining yig‘indisi;
42 va 5, 32 va 15, 38 va 30 sonlarining ayirmasi.

5. Nechta shakl borligini toping:





6. Maktabdagi kashtachilik to‘garagiga 58 nafar, musiqa to‘garagiga esa 32 nafar o‘quvchi qatnashmoqda. Ikkala to‘garakka hammasi bo‘lib necha nafar o‘quvchi qatnashmoqda?

7. 77 − 65 23 + 45 84 − 72
32 + 14 86 − 34 61 + 15

1. Misollarni tushuntirib yeching:

$\boxed{a+49}$ $\boxed{91-b}$ ko‘rinishidagi ifodalar tuzing.

1)

	8			
	2	+	49	
	4			
	6			

8 + 49 = □□
2 + 49 = □□
4 + 49 = □□
6 + 49 = □□

2)

	91		6	
	91	−	4	
	91		3	
	91		9	

91 − 6 = □□
91 − 4 = □□
91 − 3 = □□
91 − 9 = □□

2.

a	38	46	27	28	39	37	49
$a + 7$							

Namuna: $38 + 7 = 38 + (2 + 5) = (38 + 2) + 5 = 45$

b	47	35	28	24	43	52	13
$56 - b$							

3. Ko‘chaning o‘ng tomonida 35 ta uy, chap tomonida undan 7 ta kam uy bor. Ko‘chaning chap tomonida nechta uy bor?
Masalaning savolini shunday o‘zgartiringki, u ikki amal bilan yechiladigan bo‘lsin.

4. 1) $a = 14$, $a = 8$, $a = 47$ bo‘lsa, $a + 8$ ifodaning qiymatini toping;
2) $b = 13$, $b = 18$, $b = 44$ bo‘lsa, $b - 6$ ifodaning qiymatini toping.

5. Misollarni tushuntirib yeching:



6. Ifodalar tuzing va ularning qiymatini toping:
1) 32 va 14, 57 va 23, 61 va 15 sonlarining yig‘indisi;
2) 78 va 36, 86 va 34, 89 va 64 sonlarining ayirmasi.

7. Qisqa yozuv bo‘yicha masala tuzing va uni yeching:

1) Katak daftar – 32 ta
   Bir chiziqli daftar – ?, 14 ta kam
2) Katak daftar – 32 ta
   Bir chiziqli daftar – ?, 14 ta kam) ? ta daftar

8. Suzish musobaqasida 48 nafar, sakrash musobaqasida esa 18 nafar o‘quvchi qatnashmoqda. Ikkala musobaqada hammasi bo‘lib necha nafar o‘quvchi qatnashmoqda?

GEOMETRIK SHAKLLARNI BELGILASH

1. Uzunligi 6 sm, 8 sm bo‘lgan ikkita kesma chizing va ularni harflar bilan belgilang.



Ulardan birini *AB*, ikkinchisini *CD* harflari bilan belgilashda uning uchlaridagi nuqtalarni *A* va *B*, *C* va *D* deb belgilash mumkin. Shundan so‘ng *AB* kesma 6 sm ga, *CD* kesma 8 sm ga teng deb o‘qiladi.

Har qanday kesma ikkita bosh harf bilan belgilanadi.

2. Topshiriqni bajaring:

a) 3 ta alohida uchburchak yasash uchun nechta cho‘p kerak?

b) 2 ta alohida kvadrat yasash uchun nechta cho‘p kerak?

3. Misollarni ustun qilib yozib, amallarni bajaring:

52 + 37	79 − 28	33 + 16
95 − 52	76 + 24	57 − 36

4. Berilgan siniq chiziqlarning:

1) nechta kesmadan iborat ekanligini aniqlang va uzunligini toping;

2) har bir kesmaning boshi va oxirini harflar bilan belgilang.

Namuna:



5. Uydan maktabgacha 75 qadam. Gulnoza maktabga qarab 10 qadam yurgandan keyin kitobi uyida qolganini esladi. Kitobni olgach, u qaytib maktabga ketdi. Gulnoza hammasi bo‘lib necha qadam yo‘l yurgan?



6. 72+25 □ 25+75 87+13 □ 87−13
64+26 □ 26+64 68−17 □ 68+17

7. Har bir shaklning perimetrini toping:





8. Hisoblang:

30 sm + 24 sm | 80 dm − 54 dm
60 dm − 20 dm | 50 sm + 20 sm

TENGLAMA. TENGLAMALARNI TANLASH USULI BILAN YECHISH

1. $27+x=27$ ko‘rinishidagi tenglamani yeching.

x (iks) harfi bilan topilishi kerak bo‘lgan no-ma’lum son belgilanadi.

$27+x=27$ — **bu tenglama**.

Tenglama quyidagicha yechiladi: tenglik to‘g‘ri bo‘lishi uchun *x* ning o‘rniga qanday sonni qo‘yish kerakligini bilib olish kerak. Bu son 0, chunki 27 ga 0 ni qo‘shganda 27 hosil bo‘ladi. Shunda tenglik to‘g‘ri bo‘lganini bilish mumkin.

Tenglamaning yechilishi bunday yoziladi:

$27+x=27$	Tekshirish:
$x=27-27$	$27+0=27$
$x=0$	$27=27$

2. a) Yig‘indidan ma’lum bo‘lgan qo‘shiluvchini ayirganda noma’lum qo‘shiluvchi hosil bo‘lganini tushuntiring:

$7+8=15$ $15-7=8$ $15-8=7$

b) Noma’lum qo‘shiluvchini toping:

$\square+3=10$ $9+\square=14$



$x+7=12$

3. Tenglamalarni yeching va natijani tekshiring:

$35+x=70$ $14+x=24$ $25+x=50$

4. Jadvaldan javobi bir xil bo‘lgan misollarni toping:

87+13	78+22	48+32	35+25
75+15	90−10	67+33	20+20
53+37	64+26	90−50	78−18

5. Rasmdan foydalanib: 4+7, 4+10, 7−4, 10−4, 10−7 ifodalar bo‘yicha masala tuzing va uni yeching:

4 kg

7 kg

10 kg

6. Avtomobil zavodi birinchi kuni 47 ta, ikkinchi kuni 3 ta ortiq mashina ishlab chiqardi. Zavod ikki kunda nechta mashina ishlab chiqargan?

7.

$50-23+17$	$37+23-30$	$87-64+23$
$40-18+12$	$55+14-29$	$95-52+13$

1. Tenglamaning yechilishini tushuntiring:

$\boxed{x+56=70}$

$x+56=70$

$x=70-56$

$x=14$

Tekshirish:

$14+56=70$

$70=70$

Qo‘shiluvchilardan bittasi noma’lum bo‘lsa, yig‘indidan ma’lum bo‘lgan qo‘shiluvchini ayirish kerak.

Namuna: $37+x=47$

$x=47-37$

$x=10$

Tekshirish:

$37+10=47$

$47=47$

2. Tenglamalarni yeching va natijani tekshiring:

$x+8=12$ $\quad$ $46+x=90$ $\quad$ $x+9=29$

3. Jadval asosida ifodalar tuzing va ularni yeching:

Qo‘shiluvchi	47		35	24	56		64
Qo‘shiluvchi		26		31		32	
Yig‘indi	74	60	70		80	61	90

4. Shakllarning har birida nechta uchburchak, nechta to‘rtburchak bor?



5. Ifodalar tuzing va ularning qiymatini toping:

a	40	35	27	51	62	19	72
$a + 8$							

6. Bog‘bon bir tup xurmodan 40 kg, ikkinchi tup xurmodan esa yana bir necha kilogramm hosil terganidan keyin hosil 87 kg bo‘ldi. Bog‘bon ikkinchi tupdan necha kilogramm xurmo olgan?

7. Misollarni yeching:

$$\begin{array}{r} 35 \\ +\,13 \\ \hline \end{array} \qquad \begin{array}{r} 50 \\ -\,16 \\ \hline \end{array} \qquad \begin{array}{r} 63 \\ +\,27 \\ \hline \end{array} \qquad \begin{array}{r} 47 \\ -\,16 \\ \hline \end{array} \qquad \begin{array}{r} 32 \\ +\,29 \\ \hline \end{array}$$

1. Tenglamaning yechilishini tushuntiring:

$\boxed{69 - x = 23}$

$69 - x = 23$

$x = 69 - 23$

$x = 46$

Tekshirish:

$69 - 46 = 23$

$23 = 23$

Ayriluvchi noma’lum bo‘lsa, kamayuvchidan ayirmani ayirish kerak.

Namuna: $57 - x = 17$

$x = 57 - 17$

$x = 40$

Tekshirish:

$57 - 40 = 17$

$17 = 17$

2. Avtosaroyda 49 ta avtobus bor edi. Ulardan bir nechtasi belgilangan yo‘nalishlar bo‘yicha yo‘lga chiqib ketgandan so‘ng, 17 ta avtobus qoldi. Avtosaroydan nechta avtobus yo‘nalishlar bo‘yicha yo‘lga chiqib ketgan?

3. Jadval asosida misol tuzing va uni yeching:

Kamayuvchi	45		59		70	69	54
Ayriluvchi		24		12	56	17	
Ayirma	40	41	43	17			27

4. Tenglamalarni yeching va natijani tekshiring:

$68 - x = 37$ $\quad$ $49 - x = 23$ $\quad$ $76 - x = 42$

5. Qisqa yozuv asosida masala tuzing va uni yeching:

Bor edi — 58 ta daftar.
Sotildi — x ta daftar.
Qoldi — 27 ta daftar.

6. Agar $b = 7$, $b = 3$, $b = 9$ bo‘lsa, $90 - b$ ifodaning qiymatini toping.

7. $\begin{array}{r} +48 \\ 32 \\ \hline \end{array}$ $\quad$ $\begin{array}{r} -65 \\ 14 \\ \hline \end{array}$ $\quad$ $\begin{array}{r} +37 \\ 23 \\ \hline \end{array}$ $\quad$ $\begin{array}{r} -79 \\ 55 \\ \hline \end{array}$ $\quad$ $\begin{array}{r} +29 \\ 12 \\ \hline \end{array}$

1. Tenglamaning yechilishini tushuntiring:

$\boxed{x - 24 = 41}$

$x - 24 = 41$
$x = 41 + 24$
$x = 65$

Tekshirish:
$65 - 24 = 41$
$41 = 41$

Kamayuvchi noma’lum bo‘lsa, uni topish uchun ayirmaga ayriluvchini qo‘shish kerak.

2. Tenglamalarni yeching:

$x - 7 = 12$ $\quad$ $x - 8 = 9$ $\quad$ $x - 9 = 50$

3. Do‘konga sotish uchun bir nechta televizor olib kelindi. Kechgacha 14 ta televizor sotilganidan so‘ng, 31 ta televizor qoldi. Do‘konga dastlab nechta televizor olib kelingan?

4. Misollarni namuna bo‘yicha bajaring: 24=12+12.

22 = 11 + □□	48 = 24 + □□	66 = 33 + □□
44 = 22 + □□	64 = 32 + □□	88 = 44 + □□

5. Rasm bo‘yicha masala tuzing va uni yeching:

6. Misollarni tushuntirib yeching:



7. Ikki qopda jami 38 kg lavlagi bor. Agar birinchi qopda 21 kg lavlagi bo‘lsa, ikkinchi qopda necha kilogramm lavlagi bor?

8. Tenglamalarni yeching va natijani tekshiring:

$x - 14 = 31$	$x - 21 = 42$	$56 - x = 43$
$69 - x = 43$	$28 + x = 59$	$x - 15 = 25$

KO‘PAYTIRISH VA BO‘LISH. GEOMETRIK SHAKLLAR VA KATTALIKLAR

KO‘PAYTIRISH. KO‘PAYTIRISHNING MA’NOSI



1. Hamma olmalar nechta?

$$2 + 2 + 2 + 2 + 2 = 10$$
$$2 \cdot 5 = 10$$

2 tadan 5 marta olinsa, 10 hosil bo‘ladi yoki 2 ni 5 ga ko‘paytirilsa, 10 bo‘ladi.

Bir xil qo‘shiluvchilarni qo‘shish **ko‘paytirish** deyiladi. Bir xil qo‘shiluvchilar yig‘indisi 2 + 2 + 2 + 2 + 2 = 10 ko‘paytma ko‘rinishida bunday yoziladi: 2 · 5 = 10.

Nuqta (·) **ko‘paytirish belgisidir**.

Bu misol bunday o‘qiladi:

Ikkitalab besh marta olinsa, o‘n hosil bo‘ladi yoki ikkini beshga ko‘paytirganda o‘n hosil bo‘ladi.

2. 1) 5 tadan 5 marta olinsa, 25 hosil bo‘ladi yoki 5 ni 5 ga ko‘paytirilsa, 25 bo‘ladi:

$5 + 5 + 5 + 5 + 5 = 25$

$5 \cdot 5 = 25$

2)



$3 + 3 + 3 = \square$

$3 \cdot 3 = \square$

$4 + 4 + 4 + 4 = \square\square$

$4 \cdot 4 = \square\square$

3. Qo‘shishga doir misollarni ko‘paytirishga doir misollarga almashtiring:



$5 + 5 + 5 = \square\square$

$\square \cdot \square = \square\square$



$4 + 4 + 4 = 12$

$4 \cdot 3 = \square\square$

$6 + 6 + 6 + 6 = 24$

$6 \cdot 4 = \square\square$

$7 + 7 = \square\square$

$7 \cdot 2 = \square\square$

4. Ko‘paytirishga doir misollarni qo‘shishga doir misollar bilan almashtiring:

$2 \cdot 4 = 8$

$2 + 2 + 2 + 2 = \square$

$6 \cdot 3 = \square\square$

$6 + 6 + 6 = \square\square$

5. Bir guldastada 5 ta chinnigul, ikkinchi guldastada esa undan 3 marta ortiq chinnigul bor. Ikkinchi guldastada nechta chinnigul bor?

6. Qo‘shishga doir misollarni ko‘paytirishga doir misollar bilan almashtiring:

Namuna: $7 + 7 + 7 = 7 \cdot 3$

$7 + 7 + 7$ $\quad$ $8 + 8 + 8$ $\quad$ $9 + 9 + 9$

7.

$18 - 9$	$9 + 9$	$13 + 5$	$(60 + 6) - 4$
$13 - 4$	$8 + 7$	$15 + 4$	$(50 + 8) + 2$

1. Rasm asosida ko‘paytirishga oid misol tuzing va uni qo‘shish bilan almashtiring:

1)



$5 \cdot 4 = \square\square$ $\quad$ $5 + 5 + 5 + 5 = \square\square$

2)

$5 \cdot 5 = 5 + 5 + 5 + 5 + 5$

2. Ko‘paytirishga oid misollarni qo‘shishga oid misollarga almashtiring:

Namuna: $8 \cdot 3 = 8 + 8 + 8$

$8 \cdot 3$ $\quad$ $5 \cdot 7$ $\quad$ $4 \cdot 3$ $\quad$ $5 \cdot 6$

3. Misollarni namuna asosida yeching:

50 − (25 + 15)	(37 + 48) − 30
(48 + 19) − 36	(37 + 53) − 40

(45 + 27) − 31 = 41

$$\begin{array}{r} 45 \\ +\ 27 \\ \hline 72 \end{array} \qquad \begin{array}{r} 72 \\ -\ 31 \\ \hline 41 \end{array}$$

4. Maktab bog‘iga o‘tqazish uchun 43 tup atirgul, 23 tup chinnigul olib kelindi. Maktab bog‘iga hammasi bo‘lib necha tup gul olib kelingan?

5. Har bir akvariumda 4 tadan baliq bor. 4 ta akvariumda nechta baliq bor?

6. Bu shakllar nimasi bilan bir-biridan farq qiladi?



7. Hamma jo‘jalar nechta? Yechimini qo‘shish va ko‘paytirish bilan bajaring:

8.

52 − 2	30 + 5	57 + 23	68 + 20
52 − 20	30 + 50	40 + 27	18 + 12

KO‘PAYTIRISH AMALI KOMPONENTLARINING NOMLANISHI

1. Rasm asosida misol tuzing va uni yeching:

5 · 3 = □□

Ko‘paytirishning hadlarini yodda tuting:

5	·	**3**	=	**15**
Birinchi ko‘paytuvchi		**Ikkinchi ko‘paytuvchi**		**Ko‘paytma**

Ko‘paytirishning hadlari uning komponentlaridir. 5 bilan 3 ning ko‘paytmasi 15 ga teng. Ko‘paytiriladigan sonlar **ko‘paytuvchi**lar deyiladi. Ko‘paytirishdan hosil bo‘ladigan son **ko‘paytma** deb ataladi.

2. Misollarni yeching:

8 · 2 9 · 3 6 · 4 3 · 3 1 · 8

3. Ko‘paytirishga oid misollarni qo‘shishga oid misollar bilan almashtiring.

Namuna: 6 · 5 = 6 + 6 + 6 + 6 + 6

4 · 3 7 · 2 5 · 4 3 · 5

4. Masalalarni yeching:

1) Har bir avtomobilda 5 tadan kishi bo‘lsa, Ikkita avtomobilda nechta kishi bo‘ladi?

2) Har bir vazada 6 tadan anor bo‘lsa, to‘rtta vazada nechta anor bo‘ladi?

5. Misollarni namuna bo‘yicha bajaring: 3 · 7 = 21.

2 · 6 = □□	5 · 5 = □□	6 · 3 = □□
2 · 8 = □□	4 · 3 = □□	7 · 2 = □□
2 · 7 = □□	4 · 5 = □□	6 · 5 = □□

6. Hisoblang:





7. 1) Birinchi ko‘paytuvchi 4, ikkinchi ko‘paytuvchi 3. Ko‘paytmani toping;
2) 8 bilan 2, 9 bilan 3, 5 bilan 4 sonlarining ko‘paytmasini yozing va hisoblang.

8. Misollarni ustun qilib yozing, natijani hisoblang:

72 + 21	56 − 25	43 + 27	49 − 27
68 − 30	58 + 21	96 − 36	35 + 14

HAR BIR AMAL KOMPONENTLARI VA NATIJALARI ORASIDA O‘ZARO BOG‘LANISHLAR

1. Qo‘shishga oid misollarni ko‘paytirishga oid misollar bilan almashtiring:

Namuna: $2+2+2+2+2=2\cdot5=10$

$3+3+3+3+3$ $\quad$ $5+5+5$ $\quad$ $6+6+6+6$

2. Misollarni namunada ko‘rsatilgandek yeching:

$58+23-55=\square\square$

$$\begin{array}{r} +\,58 \\ 23 \\ \hline 81 \end{array} \qquad \begin{array}{r} -\,81 \\ 55 \\ \hline 26 \end{array}$$

60+17−51 $\quad$ 46−16+15

87−64+23 $\quad$ 77+13−29

27+23−30 $\quad$ 74+26−40

3. Misollarning javobini toping:



4. Sinf xonasining 3 ta derazasi bor. Har qaysi derazada 3 tadan gultuvak turibdi. Derazalardagi hamma gultuvaklar nechta?

5. To‘g‘ri burchakni toping:



6. Avtobusda 37 nafar yo‘lovchi bor edi. Bekatda 4 nafar yo‘lovchi tushib, 7 nafar yo‘lovchi chiqdi. Avtobusdagi yo‘lovchilar necha nafar bo‘ldi?

7.

70 − 46 + 27	97 − 64 + 19	72 − 34 + 17
50 − 13 + 18	40 − 13 + 27	35 + 15 − 26

BO‘LISH. BO‘LISH AMALINING MA’NOSI

1. 1) 8 ta to‘tiqushni 4 ta qafasga teng bo‘lib solindi. Har bir qafasga nechtadan to‘tiqush solingan?



Yechish: 8 : 4 = 2 tadan to‘tiqush.
Javob: Har bir qafasga 2 tadan to‘tiqush solingan.
2) 8 ta to‘tiqushni har bir qafasga 2 tadan qilib solindi. Nechta qafas kerak bo‘lgan?
Yechish: 8 : 2 = 4 ta qafas.
Javob: 8 ta to‘tiqush uchun 4 ta qafas kerak.

Narsalarni teng bo‘lib qo‘yish **bo‘lish** deb atala-di. Ikki nuqta (**:**) — **bo‘lish belgisi**.
10 : 5 = 2 ifoda bunday o‘qiladi:
10 bilan 5 ning bo‘linmasi 2 ga teng.

2. Masalalarni yeching va ularni taqqoslang:
1) 10 ta konfet 5 tadan qilib taqsimchalarga solindi. Nechta taqsimcha kerak bo‘lgan?
2) 10 ta konfet 2 ta taqsimchaga teng qi-lib solindi. Har bir taqsimchaga nechtadan konfet solingan?

3. Rasmlardan foydalanib, masalani yeching:
Hayvonot bog‘idagi 4 ta olmaxonning har biriga 2 tadan yong‘oq berildi. Olmaxonlarga jami nechta yong‘oq berildi?

4. Misollarning yechilishini tushuntiring.

6 : 2 = □	8 : 2 = □	10 : 2 = □
6 : 3 = □	8 : 4 = □	10 : 5 = □

5. Jadvaldan javobi bir xil bo‘lgan misollarni toping:

90 − 50	57 + 32	87 + 13	52 − 24
67 + 3	36 + 4	50 + 39	38 + 32
75 − 50	55 − 30	64 − 36	76 + 24

6. Ikki bola anhorda cho‘milmoqda. Qirg‘oqqa chiqish uchun bolalarning biri 20 m suzishi kerak, ikkinchi bola unga qaraganda 7 m kam suzishi kerak. Ikkinchi bola qirg‘oqqa chiqishi uchun necha metr suzishi kerak?

7.

37 − 17 + 40	75 + 15 − 21	45 − 25 + 32
65 − 42 + 18	58 + 22 − 13	89 + 11 − 50

1. Rasm asosida masala tuzing va uni yeching:

10 : 2 = □ ta qulupnay.

Bo‘lishdagi sonlar va ifodalarning nomini yodda tuting:

12	**:**	**3**	**=**	**4**
Bo‘linuvchi		**Bo‘luvchi**		**Bo‘linma**

2. 12 : 2 = □ 8 : 4 = □ 15 : 5 = □
15 : 3 = □ 6 : 3 = □ 18 : 2 = □

3. Sanoq cho‘plardan foydalanib, bo‘linmani toping:
1) bo‘linuvchi 9, bo‘luvchi 3, bo‘linmani toping;
2) bo‘linuvchi 14, bo‘luvchi 2, bo‘linmani toping.

4. Misollarning javobini o‘sib borish tartibida yozing. Qanday so‘z hosil bo‘ldi?



5. Qo‘shishni mumkin bo‘lgan joylarda ko‘paytirish bilan almashtirib bajaring:

12 + 12 + 15 3 + 3 + 3 + 3 4 + 4 + 4
7 + 7 + 7 5 + 5 + 5 + 5 6 + 6 + 6

6. Maktab sport to‘garagiga 12 ta qo‘l to‘pi keltirildi. Ularni uch guruh to‘garak qatnashchilariga teng bo‘lib berildi. Har bir guruhga nechtadan qo‘l to‘pi berilgan?

7. Misollarni yeching:

$$\begin{array}{r} -72 \\ 55 \\ \hline \end{array} \qquad \begin{array}{r} +54 \\ 13 \\ \hline \end{array} \qquad \begin{array}{r} -67 \\ 35 \\ \hline \end{array} \qquad \begin{array}{r} +36 \\ 25 \\ \hline \end{array} \qquad \begin{array}{r} -60 \\ 29 \\ \hline \end{array}$$

TENG QISMLARGA BO‘LISH. TO‘PLAMNING QISMI

1. Rasm asosida teng qismlarga bo‘lishga doir masala tuzing va uni yeching:

2. 10 ta gul 5 tadan qilib guldonlarga taqsimlandi. Bu gullar uchun nechta guldon kerak bo‘lgan?

3. $2 \cdot 2 = \square$ $\quad 3 \cdot 2 = \square$ $\quad 4 \cdot 2 = \square$ $\quad 5 \cdot 2 = \square$

$4 : 2 = \square$ $\quad 6 : 3 = \square$ $\quad 8 : 4 = \square$ $\quad 10 : 5 = \square$

4. Maktab jonli burchagi uchun 10 ta to‘tiqush olib kelindi, ular 5 tadan qilib qafaslarga solindi. Bu to‘tiqushlar uchun nechta qafas kerak bo‘lgan?

5.

Kamayuvchi	60	38	59	67	42	31
Ayriluvchi	34	30	26	16	15	14
Ayirma						

6. Oshxonada 18*l* paxta yog‘i bor edi. Uni ikki bidonga teng qilib quyildi. Har bir bidonga necha litr paxta yog‘i quyilgan?

7.

30 − (17 + 3)	(62 − 41) + 9	90 − (47 + 3)
20 + (9 + 8)	(54 + 29) − 3	(35 + 35) − 8

KO‘PAYTIRISH VA BO‘LISH AMALI BILAN YECHILADIGAN MASALALAR

1. Bir qutida 6 ta qalam bor. To‘rtta shunday qutida nechta qalam bor?

Masalani dastlab qo‘shish amali bilan yeching, so‘ng qo‘shishga doir misolni ko‘paytirishga doir misol bilan almashtiring.

2. Katakchalar o‘rniga shunday amal ishoralarini qo‘yingki, yozuvlar to‘g‘ri bo‘lsin.

38 □ 16 = 22	42 □ 25 = 67	76 □ 24 = 100
39 □ 31 = 70	69 □ 46 = 23	83 □ 17 = 100

3. Gul do‘koniga 90 tup gul ko‘chati keltirildi. Tushgacha 40 tup, tushdan keyin 30 tup gul ko‘chati sotildi. Sotish uchun yana necha tup gul ko‘chati qolgan?

4.

10 : 5 = □	9 : 3 = □	12 : 6 = □
8 : 2 = □	6 : 2 = □	14 : 7 = □

5. Masalalarning yechilishi va javoblarini taqqoslang:
1) 6 ta rediska bor edi. Rediskani 3 ta teng qismga bo‘lishdi va bog‘lab chiqishdi. Har qaysi bog‘lamda nechtadan rediska bor?



Yechilishi: 6 : 3 = 2 ta rediska
Javob: Har qaysi bog‘lamda 2 tadan rediska bor.
2) 6 ta rediska bor edi. Rediskalarni 3 tadan qilib ajratishdi va ularni bog‘lashdi. Nechta bog‘lam rediska bo‘ldi?

Yechilishi: 6 : 3 = 2 ta bog‘lam rediska
Javob: 2 ta bog‘lam rediska bor.

6. Misollarni tushuntirib yeching:



7. Bayramga 20 ta shar sotib olindi. Sharlar 2 ta teng qismga bo‘lib bog‘landi. Har qaysi bog‘lamda nechtadan shar bor?

8. Misollarni yeching:

70 − (79 − 70)	40 + (11 + 9)	(24 + 34) − 8
21 + (34 − 30)	35 − (7 + 6)	(28 − 18) + 9

1. 1) 14 kg limon bor edi. Ularni 2 ta savatchaga baravardan solindi. Har qaysi savatchaga necha kilogrammdan limon solingan?
2) 18 ta shokoladni taqsimchalarga 6 tadan teng bo‘lib solib chiqildi. Necha taqsimchaga shokolad solingan?

2.

10 : 2 = □	14 : 2 = □	8 : 2 = □
10 : 5 = □	14 : 7 = □	8 : 4 = □

3. Hamma atirgullar nechta? Yechimini qo‘shish va ko‘paytirish bilan bajaring:

4. Tenglamalarni yeching:

$27 - x = 15$ $\quad$ $x - 15 = 25$ $\quad$ $17 + x = 39$

5. Jadvaldan javobi bir xil bo‘lgan misollarni toping:

6 · 3	8 : 4	21 : 3	12 : 4
12 : 3	2 · 2	18 : 3	15 : 5
2 · 3	14 : 7	14 : 2	9 · 2

6. Amal ishoralarini tengliklar to‘g‘ri bo‘ladigan qilib qo‘ying:

22 □ 22 = 44	33 □ 33 = 66	44 □ 44 = 88
75 □ 25 = 50	50 □ 25 = 25	88 □ 34 = 54

7. Bir xonadonda 15 ta kurka bor edi. Ularni 3 ta katakka baravardan bo‘lib qo‘yildi. Har bir katakka nechtadan kurka qo‘yilgan?

KO‘PAYTIRISH VA BO‘LISH AMALLARI ORASIDAGI MUNOSABAT

1. Rasm asosida berilgan misollarni yeching:

$2 \cdot 4 = 8$
$8 : 2 = 4$

$3 \cdot 4 = 12$
$12 : 3 = 4$

2. Rasm asosida masala tuzing va uni yeching:

$3 \cdot 2 = 6$
$6 : 3 = \square$

$5 \cdot 2 = 10$
$10 : 5 = \square$



$6 \cdot 2 = \square\square$
$12 : 6 = \square$

3. 1) 3 ta taqsimchada 2 tadan xurmo bor. Hamma xurmolar nechta?

2) 2 ta taqsimchada 3 tadan xurmo bor. Hamma xurmolar nechta?

4. Ko‘paytmani yig‘indiga almashtiring:
Namuna: $6 \cdot 4 = 6 + 6 + 6 + 6 = 24$

$4 \cdot 5 = \square\square$	$6 \cdot 8 = \square\square$	$7 \cdot 2 = \square\square$	$9 \cdot 3 = \square\square$
$3 \cdot 5 = \square\square$	$2 \cdot 6 = \square\square$	$3 \cdot 7 = \square\square$	$5 \cdot 6 = \square\square$

5. Quyidagi shakllarning perimetrini o‘lchab toping:



6. Daladan bir mashinada 37 qop, ikkinchi mashinada birinchidagiga qaraganda 8 qop ortiq, uchinchi mashinada esa ikkinchidagidan 5 qop kam kartoshka olib ketildi. Uchinchi mashinada necha qop kartoshka olib ketilgan?

7. Misollarni ustun shaklida yozing va ularni yeching:

89 − 57	49 + 17	58 − 25
75 + 15	64 − 33	26 + 26

MASALALARNI JADVAL USULIDA YECHISH

1. 1) Tikuvchi 6 ta qizlar ko‘ylagini tikdi. Har qaysi ko‘ylakka 2 m dan gazlama sarflandi. Tikuvchi hammasi bo‘lib qancha gazlama sarflagan?

Bitta ko‘ylakka sarflangan gazlama	Ko‘ylaklar soni	Hamma ko‘ylakka sarflangan gazlama
2 m	6 ta	?
?	6 ta	12 m
2 m	?	12 m

2) Ikkita o‘zaro teskari masala tuzing va uni yeching.

2. Misollarni tushuntirib yeching:

$$\begin{array}{r} +\,52 \\ 29 \\ \hline \end{array} \qquad \begin{array}{r} -\,73 \\ 21 \\ \hline \end{array} \qquad \begin{array}{r} +\,48 \\ 37 \\ \hline \end{array} \qquad \begin{array}{r} -\,87 \\ 56 \\ \hline \end{array} \qquad \begin{array}{r} +\,32 \\ 46 \\ \hline \end{array}$$

3. Masalalarning yechimlarini taqqoslang:

1) 18 ta daftar 3 nafar o‘quvchiga baravardan bo‘lib berildi. Har qaysi o‘quvchi nechtadan daftar olgan?

2) 18 ta daftar o‘quvchilarga 3 tadan bo‘lib berildi. Necha nafar o‘quvchi daftar olgan?

4. Amal ishoralarini tengliklar to‘g‘ri bo‘ladigan qilib qo‘ying:

30□17=47	48□26=22	86□86=0
75□24=51	57□31=88	29□0=29

5. Jadval bo‘yicha ifoda tuzing va ularni yeching:

Qo‘shiluvchi	67	55	19	38	53	84
Qo‘shiluvchi	3	14	21	5	27	16
Yig‘indi						

6. Do‘konda 48 ta qandil bor edi. Tushgacha 20 ta, tushlikdan keyin 16 ta qandil sotildi. Do‘konda nechta qandil qoldi?

7. Misollarni yeching:

$$\begin{array}{r} -\,88 \\ 53 \\ \hline \end{array} \qquad \begin{array}{r} +\,61 \\ 24 \\ \hline \end{array} \qquad \begin{array}{r} -\,56 \\ 23 \\ \hline \end{array} \qquad \begin{array}{r} +\,34 \\ 15 \\ \hline \end{array} \qquad \begin{array}{r} -\,95 \\ 24 \\ \hline \end{array}$$

8. Archa daraxtining balandligi 9 m, terakning balandligi undan 5 m baland. Terakning balandligini toping.

NOMA'LUM KO'PAYTUVCHINI TOPISH

1. 1) $6 \cdot 3 = 18$
$18 : 6 = 3$
$18 : 3 = 6$

6 va 3 – ko'paytuvchilar; 18 – bu ko'paytma;

2) $2 \cdot 4 = 8$
$8 : 2 = 4$
$8 : 4 = 2$

Ikki sonning ko'paytmasini ko'paytuvchilardan biriga bo'linsa, ikkinchi ko'paytuvchi hosil bo'ladi.

2.

$3 \cdot 6 = 18$	$3 \cdot 4 = 12$	$8 \cdot 2 = 16$
$18 : 3 = \square$	$12 : 3 = \square$	$16 : 8 = \square$
$18 : 6 = \square$	$12 : 4 = \square$	$16 : 2 = \square$

Birinchi ko'paytuvchi qanday hosil bo'ldi?
Ikkinchi ko'paytuvchi qanday hosil bo'ldi?

3. Masalalarning yechilishini taqqoslang:
1) Bidonlarning har biriga 6 kg dan asal quyilgan. 2 ta bidonga qancha asal quyilgan?
2) Bidonning biriga 6 kg, ikkinchisiga 2 kg asal quyilgan. Ikkala bidonda necha kilogramm asal bor?

Nima uchun birinchi masala ko'paytirish amali bilan, ikkinchi masala qo'shish bilan yechilishini tushuntiring.

4. Tushib qolgan sonlarni o'rniga qo'yib yozing:

$8 \cdot 3 = 3 \cdot 8$	$5 \cdot 6 = \square \cdot 5$	$2 \cdot 7 = \square \cdot 2$
$7 \cdot 2 = 2 \cdot \square$	$6 \cdot 4 = 4 \cdot \square$	$4 \cdot 5 = 5 \cdot \square$

5. Chizma asosida masala tuzing va uni yeching:



6. Har bir taqsimchaga 5 tadan olma solindi. 6 ta taqsimchada nechta olma bo‘ldi?

7. Misollarni ustun shaklida yozib, amallarni bajaring:

45 + 13	62 − 14	55 + 28
60 − 24	54 + 36	97 − 52

8. Bir xonadon 40 ta quyon parvarish qilmoqda. Ularning 16 tasi qora, 18 tasi oq, qolganlari kul rang. Kul rang quyonlar nechta?

1. Tenglamalarni tushuntirib yeching:
Noma’lum ko‘paytuvchini «*x*» deb olamiz.



Namuna: $2 \cdot x = 8$
$x = 8 : 2$
$x = 4$
$2 \cdot 4 = 8$

$2 \cdot x = 10$ $\quad$ $x \cdot 5 = 15$ $\quad$ $3 \cdot x = 9$

Ko‘paytuvchilardan biri noma’lum bo‘lsa, ko‘paytmani ma’lum bo‘lgan ko‘paytuvchiga bo‘lish kerak.

2. Javonda 16 ta piyola bor edi. Javondan bir nechta piyola olingandan keyin unda 6 ta piyola qoldi. Javondan nechta piyola olingan?



3.

Ko‘paytuvchi	2		5	2	7	
Ko‘paytuvchi	2	4	2		2	2
Ko‘paytma		8		10		14

4. Misollarni namunada ko‘rsatilgandek yeching:

$62-34 \square 62-30$ $\qquad$ $90-24 \square 80-24$

$28<32$ $\qquad$ $87+13 \square 13+87$

$$\begin{array}{r} 62 \\ -\ 34 \\ \hline 28 \end{array} \qquad \begin{array}{r} 62 \\ -\ 30 \\ \hline 32 \end{array}$$

$64-30 \square 42+30$

$47+53 \square 57-43$

5. Qutida 40 ta oddiy va rangli qalam bor edi. Ulardan 28 tasi rangli qalam bo‘lsa, oddiy qalam qancha bo‘lgan?

6. Feruza 18 ta rangli qalamni 6 tadan qilib qutilarga soldi. Hamma qalamlar uchun nechta quti kerak?

7. $\begin{array}{r} 67 \\ +\ 14 \\ \hline \end{array}$ $\quad$ $\begin{array}{r} 62 \\ -\ 45 \\ \hline \end{array}$ $\quad$ $\begin{array}{r} 56 \\ +\ 35 \\ \hline \end{array}$ $\quad$ $\begin{array}{r} 80 \\ -\ 29 \\ \hline \end{array}$ $\quad$ $\begin{array}{r} 53 \\ +\ 47 \\ \hline \end{array}$

NOMA'LUM BO'LINUVCHINI TOPISH

1. Misollarning yechilishini tushuntiring:

$8:2=4$
$8:4=2$
$4\cdot2=8$

$6:2=3$
$6:3=2$
$3\cdot2=6$

> Bo'linuvchi bo'linmaga bo'linsa, bo'luvchi hosil bo'ladi
> Bo'luvchi bo'linmaga ko'paytirilsa, bo'linuvchi hosil bo'ladi.

2. Tenglamalarni yeching:

$3\cdot x=9$	$x\cdot5=10$	$2\cdot x=16$
$x\cdot3=9$	$5\cdot x=10$	$x\cdot2=16$

3. Masalalarni yeching:

1) Jasur 10 ta kanareyka sotib oldi va ularni 5 ta qafasga baravardan soldi. Har bir qafasga nechtadan kanareyka solingan?

2) 10 ta kanareyka olib kelindi. Ularni har bir qafasga 2 tadan solindi. Kanareykalar uchun nechta qafas kerak bo'lgan?

4.

12 : 2 = □	10 : 5 = □	14 : 2 = □	16 : 2 = □
18 : 3 = □	10 : 2 = □	14 : 7 = □	15 : 3 = □

5. Jadval bo‘yicha berilgan masalani yeching:

1) Nasiba har bir bankada 3 kg dan 4 ta bankaga asal quydi. Hammasi bo‘lib necha kilogramm asal bo‘lgan?

Bitta bankadagi asal	Bankalar soni	Hamma bankalardagi asal
3 kg	4 ta	? kg
? kg	4 ta	12 kg
3 kg	? ta	12 kg

2) Ikkita o‘zaro teskari masala tuzing va ularni taqqoslang.

6. Ifodani yozing va uning qiymatini toping:

26 bilan 34 ning yig‘indisidan 17 ni ayiring;

54 bilan 24 ning ayirmasiga 10 ni qo‘shing.

7. Misollarni ustun shaklida yozib, yeching:

54 − 24	67 + 13	51 − 28
62 + 17	52 − 14	74 + 16

8. Masalalarni yeching:

1) Har bir taqsimchada 9 tadan tuxum bor. Ikkita taqsimchada nechta tuxum bor?

2) Har bir savatchada 8 tadan limon bor. Beshta savatchada nechta limon bor?

MILLIMETR

1. Detsimetr va santimetrdan kichik uzunlik o‘lchov birligi – **millimetr** ham bor. Chizg‘ichdagi har bir chiziq millimetrni bildiradi.

Chizg‘ichda bir santimetrni ko‘rsating. U nechta teng bo‘lakka bo‘lingan? Har bir bo‘lak bir millimetrga teng. **1 sm 10 millimetrga** teng:

1 sm = 10 mm

2. Qalamning uzunligini o‘lchang.



Qalamning uzunligi ☐ sm ☐ mm ga teng.

3. *AB, CD* kesmalarning uzunliklari qancha? Har bir kesmaning uzunligini o‘lchang.

Namuna: *AB* = 9 sm 1 mm.



4. Misollarni tushuntirib yeching:

$2 \cdot 5 = 10$	$7 \cdot 2 = 14$	$4 \cdot 5 = 20$
$10 : 2 = 5$	$14 : 7 = \square$	$20 : 4 = \square$
$10 : 5 = 2$	$14 : 2 = \square$	$20 : 5 = \square$

5. Quyidagi shakllarning har bir tomoni uzunligini o‘lchang:



Namuna: $AB =$ 2 sm 4 mm.

6. Istirohat bog‘iga 29 tup qayin, 20 tup majnuntol ko‘chatlari ekildi. Qayin bilan majnuntol birgalikda qancha bo‘lsa, shundan 9 tup kam archa ko‘chati ekildi. Bog‘ga necha tup archa ko‘chati ekildi?

7. 53 sm + 27 sm 69 dm − 29 dm
98 dm − 48 dm 75 sm + 25 sm

0, 1, 10 SONLARI ISHTIROKIDA KO‘PAYTIRISH VA BO‘LISH

1. $\boxed{1 \cdot a = a}$ $\boxed{a \cdot 1 = a}$

$1 \cdot 4 = 1 + 1 + 1 + 1 = 4$ $1 \cdot 4 = 4$

$1 \cdot 7 = 1 + 1 + 1 + 1 + 1 + 1 + 1 = 7$ $4 \cdot 1 = 4$

1 har qanday songa ko‘paytirsa, shu sonning o‘zi hosil bo‘ladi. Har qanday son 1 ga ko‘paytirilsa, shu sonning o‘zi hosil bo‘ladi.

$\boxed{0 \cdot a = 0}$ $\boxed{a \cdot 0 = 0}$

$0 \cdot 4 = 0 + 0 + 0 + 0 = 0$ $4 \cdot 0 = 0$

$0 \cdot 7 = 0 + 0 + 0 + 0 + 0 + 0 + 0 = 0$ $7 \cdot 0 = 0$

Nolni har qanday songa ko‘paytirsa, nol hosil bo‘ladi. Har qanday son nolga ko‘paytirilsa, nol hosil bo‘ladi.

2. 1) Ko‘paytmani yig‘indi bilan almashtiring va natijani toping:

$1 \cdot 6$	$0 \cdot 2$	$5 \cdot 1$	$0 \cdot 5$
$0 \cdot 3$	$1 \cdot 8$	$4 \cdot 0$	$1 \cdot 9$

2) Yig‘indini ko‘paytma bilan almashtiring:

$1 + 1 + 1 + 1 + 1 + 1 + 1 + 1 + 1 = 1 \cdot 9 = \square$

$0 + 0 + 0 + 0 + 0 + 0 = 0 \cdot 6 = \square$

3. Bitta bankadagi o‘rik sharbati 5 *l*. Ikkita bankadagi o‘rik sharbati necha litr bo‘ladi?

4. 1 bilan 7 ning, 0 bilan 6 ning, 1 bilan 28 ning ko‘paytmasini toping.

5. Misollarni tushuntirib yeching:

$1 \cdot 2$	$1 \cdot 13$	$(43 - 42) \cdot 3$
$0 \cdot 5$	$1 \cdot 27$	$(17 - 17) \cdot 6$
$9 \cdot 1$	$1 \cdot 82$	$(35 - 34) \cdot 8$

6. Tikuvchi bitta xalatga 6 ta tugma qadadi, shunday xalatlardan 3 tasiga nechta tugma qadagan?

7.

$(49 - 48) \cdot 9$	$(38 - 37) \cdot 0$	$1 \cdot 42$
$(28 - 28) \cdot 5$	$(53 - 52) \cdot 8$	$0 \cdot 63$

1. $\boxed{a:1=a}$ $\boxed{0:a=0}$

$4:1=4$ $0\cdot 6=0$

$8:1=8$ $0\cdot 19=0$

Har qanday sonni 1 ga bo‘lganda, shu sonning o‘zi hosil bo‘ladi. Nolni har qanday songa bo‘lganda, nol chiqadi. Sonni nolga bo‘lish mumkin emas.

$\cancel{a:0}$

2. Misollarni tushuntirib yeching:

$1\cdot 9 = 9$	$1\cdot 24 = 24$	$1\cdot 68 = 68$
$9:1 = 9$	$24:1 = \square\square$	$68:1 = \square\square$
$9:9 = 1$	$24:24 = \square$	$68:68 = \square$

Istalgan sonni o‘zini-o‘ziga bo‘lganda, 1 hosil bo‘ladi:

$$a : a = 1$$

3. Sinfda 34 nafar o‘quvchi bor. Ularning har biriga 1 tadan «G‘uncha» jurnali tarqatildi. Hammasi bo‘lib nechta «G‘uncha» jurnali tarqatilgan?

4. Jadvalni to‘ldiring:

a	5	45	0	98
$a\cdot 1$				
$1\cdot a$				

a	8	16	35	65
$a:1$				
$a:a$				

5. Masalalarni yeching va ularni taqqoslang:

1) 18 ta sabzi 6 ta quyonga teng bo‘lib berildi. Har bir quyonga nechtadan sabzi berilgan?

2) 23 ta daftarni 23 ta o‘quvchiga baravar bo‘lib berildi. Har bir o‘quvchi nechtadan daftar oldi?

6. Do‘konga sotish uchun 21 ta qo‘g‘irchoq, undan uch marta kam koptok keltirildi. Do‘konga hammasi bo‘lib nechta koptok keltirilgan?

7. Taqqoslang:

5 · 1 □ 5 : 5	42 : 42 □ 6 · 1	16 : 16 □ 19 : 1
27 · 1 □ 27 : 1	58 · 1 □ 58 : 1	18 : 18 □ 15 : 1

10 SONI ISHTIROKIDA KO‘PAYTIRISH VA BO‘LISH

1. Misollarni tushuntirib yeching:

10 · 2 = 20

2 · 10 = 20

10 ni 2 ga ko‘paytirish uchun 1 o‘nlikni 2 ga ko‘paytirish kerak, natijada 2 o‘nlik yoki 20 hosil bo‘ladi.

Demak: 10 · 2 = 20, yoki 2 · 10 = 20 bo‘lsa, u holda 20 : 2 = 10, 20 : 10 = 2 bo‘ladi.

2.

10 · 3	10 · 5	10 · 8	10 · 9
3 · 10	5 · 10	8 · 10	9 · 10
30 : 3	50 : 5	80 : 8	90 : 9
30 : 10	50 : 10	80 : 10	90 : 10

3. Mehmonxonaning 10 ta derazasi bor. Har qaysi derazaga 4 tadan gultuvak qo‘yilgan. Derazadagi hamma gultuvaklar nechta?

4.

$10 \cdot 2 = 20$	$2 \cdot 10$	$20 : 2$	$20 : 10$
$10 \cdot 3 = 30$	$3 \cdot 10$	$30 : 3$	$30 : 10$
$10 \cdot 4 = 40$	$4 \cdot 10$	$40 : 4$	$40 : 10$
$10 \cdot 5 = 50$	$5 \cdot 10$	$50 : 5$	$50 : 10$
$10 \cdot 6 = 60$	$6 \cdot 10$	$60 : 6$	$60 : 10$
$10 \cdot 7 = 70$	$7 \cdot 10$	$70 : 7$	$70 : 10$
$10 \cdot 8 = 80$	$8 \cdot 10$	$80 : 8$	$80 : 10$
$10 \cdot 9 = 90$	$9 \cdot 10$	$90 : 9$	$90 : 10$
$10 \cdot 10 = 100$	$10 \cdot 10$	$100 : 10$	$100 : 10$

5. Tenglamalarni yeching:

$29 + x = 60$	$x - 26 = 40$	$80 - x = 53$
$58 - x = 50$	$41 + x = 64$	$x - 15 = 35$

6. Hisoblang:





7. Oshxonada sharbat tayyorlash uchun 10 kg dan 5 yashik quruq meva keltirildi. Oshxonaga hammasi bo‘lib necha kilogramm quruq meva keltirilgan?

8. Taqqoslang:

$10 \cdot 4 \square 50 : 5$	$9 \cdot 10 \square 10 \cdot 9$	$80 : 8 \square 10 \cdot 8$
$10 \cdot 3 \square 30 : 3$	$7 \cdot 10 \square 10 \cdot 2$	$60 : 10 \square 10 \cdot 6$

QAVSLI VA QAVSSIZ IFODALAR

1. Quyidagi ifodalar qanday amallarni o‘z ichiga olgan? Ularni tushuntirib bajaring:

$27+3-5$ $\quad$ $50-20-9$ $\quad$ $12:2\cdot4$ $\quad$ $3\cdot6:2$

> Qo‘shish va ayirishni yoki ko‘paytirish va bo‘lishni o‘z ichiga olgan qavssiz ifodalarda amallar qaysi tartibda yozilgan bo‘lsa, shu tartibda chapdan o‘ngga qarab bajariladi.
> Namuna: $46 + 4 - 8 = 50 - 8 = 42$
> $15 : 3 \cdot 4 = 5 \cdot 4 = 20$

2. Misollarni yeching:

$67 - 40 + 3$	$24 + 12 - 6$	$8\cdot3 : 4$
$20 + 18 - 6$	$28 - 13 - 5$	$12 : 2\cdot3$

3. Har bir nimchaga 5 ta kalava jun ip ketgan bo‘lsa, 10 ta shunday nimchaga nechta kalava jun ip ketgan?

4. Ifodalarda qanday amallar bor? Bu amallarni tartib bilan bajaring:

$2\cdot5+8$ $\quad$ $8\cdot2-6$ $\quad$ $3+6\cdot2$

> Qavssiz ifodalarda oldin tartib bilan ko‘paytirish va bo‘lish, keyin tartib bilan chapdan o‘ngga qarab qo‘shish va ayirish bajariladi.
> Namuna: $16-2\cdot3=16-6=10$
> $18:2+4\cdot4=9+16=25$

5. Misollarni tushuntirib yeching:

$2\cdot7+3$	$36:4+15$	$19-8+23$
$4\cdot4-4$	$21:3+14$	$32+8-20$

6. Jadval asosida masala tuzing va uni yeching: Zaynab bitta xaltachada 2 kg dan bo‘lgan 5 ta xaltacha konfet sotib oldi. Zaynab hammasi bo‘lib necha kilogramm konfet sotib olgan?

Bitta xaltachadagi konfet massasi	Xaltachalar soni	Hamma xaltachadagi konfetning massasi
2 kg	5 ta	? kg
2 kg	? ta	10 kg
? kg	5 ta	10 kg

7. Maktab sport to‘garagi uchun 30 ta shaxmat va shashka keltirildi. Ulardan 18 tasi shaxmat bo‘lsa, nechta shashka keltirilgan?

QAVSLI VA QAVSSIZ IFODALARDA AMALLARNI BAJARISH TARTIBI

1. 1) Ifodalarning o‘xshashligi va farqini aniqlang:
$40-24:4=40-6=34$ $(40-24):4=16:4=4$
2) Har qaysi ifodaning qiymatini topishda amallarni bajarish tartibini bilib oling.

1) Agar ifodada qavslar bo‘lsa, ular ichidagi amal birinchi bajariladi;
2) Ko‘paytirish va bo‘lish yozilish tartibi bilan bajariladi;
3) Qo‘shish va ayirish yozilish tartibi bilan bajariladi.

$$75 - (28 + 27) = 75 - 55 = 20$$
$$30 : (27 - 17) = 30 : 10 = 3$$
$$59 - 18 : 2 = 59 - 9 = 50$$

2. $80-(38+22)$ | $(50-23):3$ | $(24+18)-20$
$60:(39-29)$ | $(40-38)\cdot 4$ | $(32-17)+15$

3. Anvarda 26 ta sanoq cho‘p bor edi. Bir nechta alohida kvadrat yasaganidan so‘ng 2 ta cho‘p ortib qoldi. Anvar nechta kvadrat yasagan?

4. Misollarni namunada ko‘rsatilgandek yeching:
$57+13-23=\square\square$

$$\begin{array}{r} +57 \\ 13 \\ \hline 70 \end{array} \qquad \begin{array}{r} -70 \\ 23 \\ \hline 47 \end{array}$$

$49+12-25$
$68-16+10$
$37+23-20$

$90-45+12$
$59+21-30$
$86-26+14$

5. Jadvalni to‘ldiring:

Bo‘linuvchi	30	40	50	60	70	80	90
Bo‘luvchi	3	4	5	6	7	8	9
Bo‘linma							

6. Xaltada 32 ta yong‘oq bor edi. 4 ta bola yong‘oqlarni baravardan bo‘lib olishdi. Har bir bola nechtadan yong‘oq olgan?

7. $(42+18)-30$ | $90-(28+22)$ | $39-18:2$
$(57-27)+15$ | $50:(25-15)$ | $15:5+7$

8. Avtosalonda bir hafta davomida 37 ta yengil mashina, undan 7 ta kam yuk mashina sotildi. Avtosalonda bir hafta davomida hammasi bo‘lib nechta mashina sotilgan?

1. Bir xonadon uchun 45 ta osh qoshiq, 23 ta choy qoshiq sotib olindi. Bu xonadon uchun hammasi bo‘lib nechta qoshiq sotib olingan?

2. $4 \cdot 3 \square 8 \cdot 2$ | $18:3 \square 12:4$ | $4 \cdot 4 \square 16:4$

$2 \cdot 9 \square 9 \cdot 2$ | $21:7 \square 14:7$ | $3 \cdot 5 \square 18:6$

3. Misollarning yechilishini tushuntiring:



4. 12 ta kvadratcha har qatorga 6 tadan qilib chizildi. Kvadratchalar necha qator bo‘ldi?

5. Misollarning javobini toping?

6. Maktab oshxonasiga har birida 6 kg dan 5 quti pecheniy keltirildi. Necha kilogramm pecheniy keltirilgan?

7. Misollarni tekshirish bilan yeching:

$$\begin{array}{r} 41 \\ +\,19 \\ \hline \end{array} \qquad \begin{array}{r} 70 \\ -\,24 \\ \hline \end{array} \qquad \begin{array}{r} 57 \\ +\,32 \\ \hline \end{array} \qquad \begin{array}{r} 92 \\ -\,61 \\ \hline \end{array} \qquad \begin{array}{r} 36 \\ +\,45 \\ \hline \end{array}$$

JADVAL ICHIDA KO‘PAYTIRISH VA BO‘LISH

2 SONINI BIR XONALI SONGA KO‘PAYTIRISH, 2 GA BO‘LISH VA BO‘LINMADA 2 CHIQADIGAN SONGA BO‘LISH

1.

$2+2=4$

$2\cdot 2=\square$

$2+2+2=6$

$2\cdot 3=\square$



$2+2+2+2=8$

$2\cdot 4=\square$

$2+2+2+2+2=10$

$2\cdot 5=\square\square$

Ko‘paytirish jadvalini yodda tuting:

$2\cdot 2=4$	$2\cdot 4=8$	$2\cdot 6=12$	$2\cdot 8=16$
$2\cdot 3=6$	$2\cdot 5=10$	$2\cdot 7=14$	$2\cdot 9=18$

2. $2\cdot 2+2$ $\quad 2\cdot 3+2$ $\quad 2\cdot 4+2$ $\quad 2\cdot 5+2$

3. Bolalar ko‘ylagiga 2 m gazlama ketadi. 3 ta shunday ko‘ylakka necha metr gazlama ketadi?

4. Tenglamalarni yeching:

$x\cdot 2=4$ $\quad x\cdot 2=6$ $\quad x\cdot 2=8$ $\quad x+2=10$

5. Qo‘shishga doir misollarni ko‘paytirishga oid misollar bilan almashtirib yeching:

Namuna: $2+2=2\cdot 2$

$2+2+2$ $\quad 2+2+2+2$ $\quad 2+2+2+2+2$

6. Mansur 2 ta qafasning har biriga 4 tadan kaklik joyladi. Qafaslarda hammasi bo‘lib nechta kaklik bor?

7.

$(50+20)+9$	$60+(27-7)$	$(30+10)+7$
$(40-10)+8$	$70-(17+3)$	$(80-10)+5$

1. Jadvaldan javobi 8, 12, 14, 16, 18 ga teng bo‘lgan misollarni o‘qing. Bu jadvalni yodda tuting.

$2\cdot2=4$		$4:2$	
$2\cdot3=6$	$3\cdot2$	$6:2$	$6:3$
$2\cdot4=8$	$4\cdot2$	$8:2$	$8:4$
$2\cdot5=10$	$5\cdot2$	$10:2$	$10:5$
$2\cdot6=12$	$6\cdot2$	$12:2$	$12:6$
$2\cdot7=14$	$7\cdot2$	$14:2$	$14:7$
$2\cdot8=16$	$8\cdot2$	$16:2$	$16:8$
$2\cdot9=18$	$9\cdot2$	$18:2$	$18:9$

Ikkitalab sanang.



2. Misollarni tushuntirib yeching:

$2:2=\square$	$8:2=\square$	$14:2=\square$
$4:2=\square$	$10:2=\square$	$16:2=\square$
$6:2=\square$	$12:2=\square$	$18:2=\square$

3. 18 kg guruch 2 ta xaltaga teng bo‘lib solindi. Har bir xaltaga necha kilogrammdan guruch solingan?

4. 14 kg mosh 7 ta xaltaga teng bo‘lib solindi. Har bir xaltaga necha kilogrammdan mosh solingan?

5. Rasm asosida masala tuzing va uni yeching:

2 kg 2 kg 2 kg 2 kg 2 kg

Har bir xaltachadagi pecheniyning massasi 2 kg. 5 ta xaltachadagi pecheniylarning massasi qancha?

6. Jadval bo‘yicha masala tuzing va uni yeching:

1 ta bankadagi sharbat	Bankalar soni	Hamma bankadagi sharbat
2 litr	6 ta	?
2 litr	?	12 litr
?	6 ta	12 litr

7. Aziza sharlarni 2 tadan qilib ipga bog‘ladi. Shunday 6 ta bog‘lamda nechta shar bor?

8.

20 + 20 + 20	25 + 25 + 25	30 + 30 + 30
70 − (20 + 20)	90 − (25 + 25)	90 − (30 + 30)

3 SONINI BIR XONALI SONGA KO‘PAYTIRISH VA 3 GA BO‘LISH

1.

$3+3=6$
$3\cdot 2=\square$

$3+3+3=9$
$3\cdot 3=\square$



$3+3+3+3=12$
$3\cdot 4=\square\square$

$3+3+3+3+3=15$
$3\cdot 5=\square\square$

Ko‘paytirish jadvalini yodda tuting:

$3\cdot 2=6$ $\quad$ $3\cdot 4=12$
$3\cdot 3=9$ $\quad$ $3\cdot 5=15$

2. $3\cdot 2+3$ $\quad$ $3\cdot 3+3$ $\quad$ $3\cdot 4+3$ $\quad$ $3\cdot 5+3$

3. Rasm asosida masala tuzing va uni yeching:



3 kg $\qquad$? kg

4. Qo‘shishga doir misollarni ko‘paytirishga doir misollar bilan almashtirib yeching:
Namuna: $3+3=3\cdot 2$
$3+3+3$ | $3+3+3+3$ | $3+3+3+3+3$

5. Akbar 16 ta rangli qalamlarni 2 ta qutiga baravardan joyladi. U har bir qutiga nechtadan qalam joylagan?

6. Misollarni tushuntirib yeching:





7. 1 ta bidonda 3 litr paxta yog‘i bor. 3 ta bidonda necha litr paxta yog‘i bor? 5 ta bidonda-chi?

8. Taqqoslang:

3+3 □ 3·2 3+3+3+3 □ 3·5

3+3+3 □ 3·4 3+3+3+3+3 □ 3·3

1. Misollarning yechilishini tushuntiring:



3+3+3+3+3+3=18

3·6 = □□



3+3+3+3+3+3+3=21

3·7=□□



3+3+3+3+3+3+3+3=24

3·8=□□



3+3+3+3+3+3+3+3+3=27

3·9=□□

Ko‘paytirish jadvalini yodda tuting:

3·6=18 3·8=24

3·7=21 3·9=27

2. Bir taqsimchada 3 ta limon bor. Shunday 6 ta taqsimchada nechta limon bor?

3. $3 \cdot 6 + 3$ | $3 \cdot 7 + 3$ | $3 \cdot 8 + 3$ | $3 \cdot 9 + 3$

4. Bitta bankaga 3 litr olcha sharbati ketadi. 8 ta bankaga sharbat quyilgandan so‘ng yana 16 litr sharbat ortib qoldi. Dastlab necha litr olcha sharbati bo‘lgan?

5. Birinchi ko‘paytuvchi 3, ikkinchi ko‘paytuvchi 5. Ko‘paytmani toping.

6. Har bir sharfga 3 ta kalava jun ip ketgan bo‘lsa, 7 ta shunday sharfga nechta kalava jun ip ketgan?

7. Taqqoslang:

$3 \cdot 2$ ☐ $3 \cdot 6$	$2 \cdot 7$ ☐ $3 \cdot 4$	$2 \cdot 8$ ☐ $3 \cdot 8$
$3 \cdot 7$ ☐ $3 \cdot 3$	$3 \cdot 9$ ☐ $2 \cdot 9$	$3 \cdot 5$ ☐ $2 \cdot 6$

1. Jadvaldan javobi 15, 18, 21, 24, 27 ga teng bo‘lgan misollarni toping.

$3 \cdot 3 = 9$		$9:3$	
$3 \cdot 4 = 12$	$4 \cdot 3$	$12:3$	$12:4$
$3 \cdot 5 = 15$	$5 \cdot 3$	$15:3$	$15:5$
$3 \cdot 6 = 18$	$6 \cdot 3$	$18:3$	$18:6$
$3 \cdot 7 = 21$	$7 \cdot 3$	$21:3$	$21:7$
$3 \cdot 8 = 24$	$8 \cdot 3$	$24:3$	$24:8$
$3 \cdot 9 = 27$	$9 \cdot 3$	$27:3$	$27:9$

Uchtalab sanang.



2. 3 : 3 = □ 12 : 3 = □ 21 : 3 = □
6 : 3 = □ 15 : 3 = □ 24 : 3 = □
9 : 3 = □ 18 : 3 = □ 27 : 3 = □

3. Masala shartining rasmini chizing va uni yeching: Bakda 27 litr benzin bor edi. Bu benzin 3 ta idishga baravardan solindi. Har bir idishga necha litrdan benzin quyildi?

4. 21 kg shakar bor edi. Bu shakarni 3 kg dan qilib xaltachalarga solindi. Nechta xaltacha kerak bo‘lgan?

5. Jadvaldagi ifodalarning qiymatini toping:

Ko‘paytuvchi	3	3	3	3	3	3	3
Ko‘paytuvchi	3	4	5	6	7	8	9
Ko‘paytma							

6. Uzunligi 18 sm bo‘lgan tasma oling va uni 3 sm dan bo‘laklarga bo‘ling. Nechta bo‘lak hosil bo‘ldi?

7. Misollarni yeching:

3 · 7 + 9	15 : 3 + 25	3 · 9 − 7
8 · 2 + 4	27 : 3 − 9	7 · 2 − 4

1. Masalalarning yechilishini tushuntiring:

1) Har qaysi likopchaga 2 tadan nok qo‘yildi. 10 ta nok nechta likopchaga qo‘yildi? Ortib qolgan nok bormi?

2) Oldingi masaladagi 10 sonini 7, 8, 9 sonlari bilan almashtiring va rasmdan foydalanib, o‘zingiz yangi masala tuzib yeching.

3) 3, 4, 6, 7, 8, 9, 10 sonlarining qaysilari 2 ga bo‘linadi?

> 2 ga bo‘linadigan sonlar **juft** sonlar, 2 ga bo‘linmaydigan sonlar **toq** sonlar deyiladi.

2. 13, 15, 16, 8, 12, 6, 18, 21, 23, 24 sonlar qatoridan oldin hamma juft sonlarni, keyin hamma toq sonlarni ko‘chirib yozing.

3. Gulnozaga o‘rtog‘i ikkita disk sovg‘a qildi. Birinchi diskda 3 ta multfilm, ikkinchi diskda esa undan 3 marta ko‘p multfilm yozilgan. Ikkala diskda nechta multfilm yozilgan?

4.

Bo‘linuvchi	6	9	12	15	18	21	24	27
Bo‘luvchi	3	3	3	3	3	3	3	3
Bo‘linma								

5. Misollarni namunada ko‘rsatilgandek yeching:
Namuna: (58 − 43) : 3 = 5

$$\begin{array}{r} 58 \\ -\ 43 \\ \hline 15 \end{array} \qquad 15 : 3 = 5$$

(38 − 26) : 3	(16 + 11) : 3	3 · 6 + 12
(70 − 49) : 3	(10 + 10) : 2	2 · 9 + 12

6. Rasmdagi shakllarni daftaringizga chizing va ularni bo‘yang:



7. Chizma asosida masala tuzing va uni yeching:



8. Ikkita kesma chizing: *AB* = 7 sm 4 mm, *CD* kesma esa undan 3 mm qisqa bo‘lsin.

9.

14 : 2 + 43	3 · 7 − 21	(45 − 30) : 3
18 : 3 + 24	3 · 8 − 20	(56 − 40) : 2

4 SONINI BIR XONALI SONGA KO‘PAYTIRISH VA 4 GA BO‘LISH

1.

4 8 12 16 20



24 28 32 36

Ko‘paytirish jadvalini yodda tuting:

$4 \cdot 4 = 16$	$4 \cdot 6 = 24$	$4 \cdot 8 = 32$
$4 \cdot 5 = 20$	$4 \cdot 7 = 28$	$4 \cdot 9 = 36$

2. $4 \cdot 2 + 4$ $4 \cdot 3 + 4$ $4 \cdot 4 + 4$ $4 \cdot 5 + 4$
$4 \cdot 6 + 4$ $4 \cdot 7 + 4$ $4 \cdot 8 + 4$ $4 \cdot 9 + 4$

3. Rasm asosida masala tuzing va uni yeching:

4 kg ? kg

4. $3 \cdot 5$ va $4 \cdot 6$ $21 : 3$ va $16 : 4$ $20 : 4$ va $36 : 4$

5. Har ikkala shakldagi sanoq cho‘plarining soni baravar bo‘lishi uchun birinchi shaklga nechta sanoq cho‘pi kerak bo‘ladi?

6. Ayollar xalatiga 4 m gazlama ketadi. 9 ta shunday xalatga necha metr gazlama ketadi?

7.

$(47 - 46) \cdot 16$	$(42 - 27) : 3$	$(17 + 13) : 10$
$(28 + 22) : 10$	$(15 + 12) : 3$	$(32 + 28) : 10$

1. Jadvaldan foydalanib, javobi 24, 28, 32, 36 ga teng bo‘lgan misollarni toping:

4 · 4 = 16		16 : 4	
4 · 5 = 20	5 · 4	20 : 4	20 : 5
4 · 6 = 24	6 · 4	24 : 4	24 : 6
4 · 7 = 28	7 · 4	28 : 4	28 : 7
4 · 8 = 32	8 · 4	32 : 4	32 : 8
4 · 9 = 36	9 · 4	36 : 4	36 : 9

2. Bir taqsimchada 4 ta anor bor. Shunday 8 ta taqsimchada nechta anor bor?

3. 4 □ 8 = 32 24 □ 4 = 6 36 □ 4 = 9

4. Bolalar bog‘chasi uchun 20 ta qo‘g‘irchoq olib kelindi. Ular 4 ta guruhga baravar qilib taqsimlandi. Har bir guruhga nechtadan qo‘g‘irchoq berildi?

5. Jadvalni to‘ldiring:

Ko‘paytuvchi	4	4	4	4	4	4	4
Ko‘paytuvchi	3	4	5	6	7	8	9
Ko‘paytma							

6. Har qaysi guldonga 4 tadan gul qo‘yish kerak. 16 ta gul uchun nechta guldon kerak?

7. 12 : 4 = □ 24 : 4 = □ 32 : 4 = □
16 : 4 = □ 28 : 4 = □ 36 : 4 = □

5 SONINI BIR XONALI SONGA KO‘PAYTIRISH VA 5 GA BO‘LISH

1.



5 10 15 20 25 30 35 40 45

$5 \cdot 5 = 25$		$25 : 5$	
$5 \cdot 6 = 30$	$6 \cdot 5 = 30$	$30 : 5$	$30 : 6$
$5 \cdot 7 = 35$	$7 \cdot 5 = 35$	$35 : 5$	$35 : 7$

2. Bitta xaltada 5 kg mosh bor. 7 ta shunday xaltada necha kilogramm mosh bor?

3. Rasm asosida masala tuzing va uni yeching:

5 litr ? litr sharbat

4.

$5 \cdot 5 + 15$	$30 : 5 \cdot 2$	$5 \cdot 5 + 20$
$5 \cdot 7 - 30$	$25 : 5 \cdot 3$	$5 \cdot 6 + 30$
$4 \cdot 7 + 20$	$20 : 4 \cdot 5$	$4 \cdot 6 + 14$

5. 25, 26, 30, 32, 35, 40 sonlarining qaysi biri 5 ga bo‘linadi?

6. Ustaxonada 30 ta stul va stullardan 5 marta kam stollar tayyorlandi. Hammasi bo‘lib nechta stol va stul tayyorlangan?

7.

$5 \cdot 3 + 25$	$5 \cdot 5 - 15$	$5 \cdot 7 + 35$
$5 \cdot 4 + 20$	$5 \cdot 6 + 10$	$4 \cdot 9 - 30$

1. Jadvalni yodda tuting:

5 · 5 = 25		25 : 5	
5 · 6 = 30	6 · 5	30 : 5	30 : 6
5 · 7 = 35	7 · 5	35 : 5	35 : 7
5 · 8 = 40	8 · 5	40 : 5	40 : 8
5 · 9 = 45	9 · 5	45 : 5	45 : 9

2. 5 · 2 □ 4 · 9 | 8 · 3 □ 6 · 4 | 40 : 5 □ 36 : 4
5 · 5 □ 3 · 7 | 7 · 5 □ 5 · 7 | 45 : 5 □ 36 : 4

3. Issiqxonadan bir guldasta uchun 5 ta gul uzishdi. 9 ta shunday guldasta uchun nechta gul uzishgan?

4. Jadvalni to‘ldiring:

Bo‘linuvchi	15	20	25	30	35	40	45
Bo‘luvchi	5	5	5	5	5	5	5
Bo‘linma							

5. Uzunligi 9 sm ga teng tasma chizing va uni buklash yo‘li bilan uchta teng qismga bo‘ling. Har qaysi qismda necha santimetr tasma bor?

6. Do‘konga har birida 10 kg dan 5 yashik shaftoli keltirildi. Tushgacha 40 kg shaftoli sotildi. Sotiladigan yana necha kilogramm shaftoli qoldi?

7. (18 + 17) : 5 | (65 − 25) : 8 | 5 · (6 + 4)
(79 − 34) : 5 | (19 + 16) : 7 | 4 · (7 + 3)

6 SONINI BIR XONALI SONGA KO‘PAYTIRISH VA 6 GA BO‘LISH

1.



Yodingizda tuting:

$6 \cdot 6 = 36$		$36 : 6$	
$6 \cdot 7 = 42$	$7 \cdot 6$	$42 : 6$	$42 : 7$

2. Rasm asosida masala tuzing va uni yeching:

6 dona



6 ta likopchada — ? dona

3.

$6 \cdot 6 + 24$	$7 \cdot 6 - 22$	$(70 - 28) : 6$
$6 \cdot 7 - 42$	$5 \cdot 6 + 30$	$(19 + 17) : 6$

4. Shaklda 1 ta cho‘pning o‘rnini shunday o‘zgartiringki, uycha orqa tomonga qarasin.

5. Tenglamalarni yeching.

$x \cdot 6 = 12$ $\quad$ $18 + x = 29$ $\quad$ $26 - x = 13$

6. Bolalar bog‘chasiga 6 tup tut va 12 tup gilos ko‘chati ekildi. Gilos tutdan necha marta ko‘p? Tut gilosdan necha marta kam?

7.

$6 \cdot 5 : 10$	$36 : 6 + 34$	$6 \cdot 7 + 18$
$5 \cdot 6 : 10$	$42 : 6 + 13$	$4 \cdot 8 - 30$

1. Jadvaldan 36, 42, 48, 54 hosil bo‘lgan misollarni ayting:

6 · 6 = 36		36 : 6	
6 · 7 = 42	7 · 6	42 : 6	42 : 7
6 · 8 = 48	8 · 6	48 : 6	48 : 8
6 · 9 = 54	9 · 6	54 : 6	54 : 9

2. Taomga 4 dona piyoz, piyozga qaraganda 2 dona ko‘p sabzi, sabzidan 4 marta ko‘p kartoshka solindi. Taomga qancha kartoshka solingan?

3. Tomonlari 2 sm va 4 sm bo‘lgan to‘g‘ri to‘rtburchak chizing. Uning perimetrini toping.

4. Agar $a = 36$, $a = 42$, $a = 48$, $a = 54$ bo‘lsa, $a : 6$ ifodaning qiymatini toping.

5. Masalalarning yechilishini taqqoslang:
1) Qovunning massasi 4 kg, tarvuz undan 2 kg og‘ir. Tarvuz necha kilogramm keladi?
2) Qovunning massasi 4 kg, tarvuz undan 2 marta og‘ir. Tarvuz necha kilogramm keladi?

6. Fermer xo‘jaligida bu yil 15 ta uy qurildi. O‘tgan yili bu yilgidan 6 ta kam uy qurilgan edi. Ikki yil ichida hammasi bo‘lib qancha uy qurilgan?

7.

42 : 7 · 3	36 : 4 · 3	6 · 8 + 40
54 : 6 · 2	28 : 7 + 4	6 · 9 − 24
40 + 6 · 5	80 − 6 · 9	48 : 6 + 12
60 − 6 · 8	30 + 6 · 7	54 : 6 + 21

7 SONINI BIR XONALI SONGA KO‘PAYTIRISH VA 7 GA BO‘LISH

1.



$7 \cdot 7 = 49$		$49 : 7$	
$7 \cdot 8 = 56$	$8 \cdot 7$	$56 : 7$	$56 : 8$
$7 \cdot 9 = 63$	$9 \cdot 7$	$63 : 7$	$63 : 9$

2. Do‘konda 63 ta muzlatkich bor edi. 6 kunda har kuni 9 tadan muzlatkich sotildi. Sotish uchun yana qancha muzlatkich qoldi?

3.

$7 \cdot 7 + 21$	$7 \cdot 4 + 28$	$56 : 7 \cdot 2$
$7 \cdot 5 - 30$	$7 \cdot 8 - 50$	$63 : 7 \cdot 3$

4. Jadvalni to‘ldiring:

Ko‘paytuvchi	7	7	7	7	7	7	7
Ko‘paytuvchi	3	4	5	6	7	8	9
Ko‘paytma							

5. 1) Birinchi ko‘paytuvchi 6, ikkinchi ko‘paytuvchi 7, ko‘paytmani toping;
2) bo‘linuvchi 56, bo‘luvchi 7, bo‘linmani toping.

6. Bir tup limondan 26 ta, ikkinchi tupdan 16 ta limon uzildi. Hamma limonlar 7 ta qog‘oz xaltaga baravardan solindi. Har bir xaltaga nechtadan limon solingan?

7.

$7 \cdot 9 - 30$	$56 : 7 + 8$	$24 : 3 \cdot 2$
$7 \cdot 7 - 20$	$63 : 9 + 7$	$32 : 4 \cdot 2$

1. Jadvalni to‘ldiring:

Bo‘linuvchi	21	28	35	42	49	56	63
Bo‘luvchi	7	7	7	7	7	7	7
Bo‘linma							

2. $(60 - 18) : 7$ | $(29 + 20) : 7$ | $5 \cdot (17 - 9)$
$(18 + 18) : 6$ | $(35 + 19) : 6$ | $7 \cdot (18 - 12)$

3. Ifodalarni yozing va ularning qiymatlarini toping:
1) 7 va 8, 6 va 5, 7 va 9 sonlarining ko‘paytmasi.
2) 56 va 7, 42 va 6, 49 va 7 sonlarining bo‘linmasi.

4. Nechta siniq chiziq berilgan, ularni daftaringizga chizing:

5. $6 \cdot 7 \ \square \ 7 \cdot 6$ | $7 \cdot 8 \ \square \ 7 \cdot 5$ | $42:7 \ \square \ 56:7$
$7 \cdot 4 \ \square \ 7 \cdot 3$ | $6 \cdot 5 \ \square \ 7 \cdot 8$ | $21:3 \ \square \ 21:7$

6. Bitta xalatga 3 m gazlama ketsa, 21 metr gazlamadan nechta xalat tikish mumkin?

7. Shunday son qo‘yingki, tenglik to‘g‘ri bo‘lsin.

$8 \cdot \square = 48$ | $\square \cdot 7 = 49$ | $42 : \square = 7$
$5 \cdot \square = 25$ | $\square \cdot 8 = 64$ | $32 : \square = 8$

8 SONINI BIR XONALI SONGA KO‘PAYTIRISH VA 8 GA BO‘LISH

1.



2.



$8 \cdot 8 = 64$		$64 : 8$	
$8 \cdot 9 = 72$	$9 \cdot 8$	$72 : 8$	$72 : 9$

3. Har bir bankada 5 kg dan asal bor. 8 ta shunday bankada necha kilogramm asal bor?

4. 24, 32, 45, 48 sonlarining qaysi biri 8 ga bo‘linadi?

5. Tikuv ustaxonasida 42 m atlasdan 7 ta bir xil ko‘ylak tikildi. 10 ta shunday ko‘ylakka necha metr atlas kerak bo‘ladi?

6.

$8 \cdot 5 - 8 \cdot 3$	$8 \cdot 9 + 8 \cdot 1$	$72 : 8 - 48 : 6$
$8 \cdot 2 + 8 \cdot 4$	$7 \cdot 8 - 6 \cdot 6$	$56 : 8 + 64 : 8$

7. 32 litr sharbat 8 ta bidonga teng qilib quyildi. 40 litr sharbatni quyish uchun shunday bidondan nechta kerak?

8.

$(28 + 28) : 8$	$(69 - 29) : 8$	$28 : (11 - 7)$
$(89 - 25) : 8$	$(29 + 27) : 8$	$16 : (11 - 7)$

1. Jadvalni to‘ldiring:

Bo‘linuvchi	16	24	40	48	56	64	72
Bo‘luvchi	8	8	8	8	8	8	8
Bo‘linma							

2. Xo‘jalikdan tegirmonga 48 qop bug‘doy, undan 8 qop kam arpa olib kelindi. Tegirmonga necha qop arpa olib kelingan?
Masalaga shunday savol qo‘yingki, u ikki amal bilan yechiladigan bo‘lsin.

3.

32 : 8	42 : 6	7 · 8	9 · 4
54 : 6	36 : 6	8 · 8	9 · 6

4. Har bir siniq chiziqning uzunligini o‘lchang:

5. Rasm asosida masala tuzing va uni yeching:

6.

49 − 72 : 8	7 · 8 + 4 · 6	50 : 5 − 50 : 10
64 − 8 · 8	9 · 5 + 5 · 9	70 : 7 + 20 : 10

7 Agar $a = 48$, $a = 64$, $a = 72$ bo‘lsa, $a : 8$ ifodaning qiymatini toping.

9 SONINI BIR XONALI SONGA KO‘PAYTIRISH VA 9 GA BO‘LISH

1.



Har bir misolning javobini yodda tuting:
$9 \cdot 9 = 81$ $81 : 9 = 9$

2. 18 ta kalava jun ipdan 2 ta bir xil ayollar nimchasi to‘qildi. Shunday 9 ta nimchaga nechta kalava ip kerak?

3. Jadval asosida berilgan misollarni yeching:

Ko‘paytuvchi	9	9	9	9	9	9	9
Ko‘paytuvchi	3	4	5	6	7	8	9
Ko‘paytma							

4. Bolalar bog‘chasiga 32 ta piyola va undan 4 marta kam choynak keltirildi. Bolalar bog‘chasiga hammasi bo‘lib nechta choynak va piyola keltirilgan?

5.

$9 \cdot 9 + 9$	$81 : 9 \cdot 2$	$(42 + 14) : 8$
$8 \cdot 9 - 2$	$72 : 9 \cdot 4$	$(83 - 20) : 7$

6. Bo‘yoqchi birinchi kuni 9 ta derazani, ikkinchi kuni undan 2 marta ortiq derazani bo‘yadi. Bo‘yoqchi ikki kunda nechta derazani bo‘yagan?

7.

$(36 + 28) : 8$	$(97 - 34) : 9$	$(20 + 28) : 6$
$(90 - 18) : 9$	$(29 + 25) : 9$	$(58 - 26) : 8$

1. Fermer xo‘jaligida 9 ta yuk mashinasi, undan 3 marta kam yengil mashina bor. Fermer xo‘jaligida nechta yengil mashina bor?
Masalaga shunday savol qo‘yingki, u ikki amal bilan yechiladigan bo‘lsin.

2. Agar $a = 81$, $a = 63$, $a = 72$ bo‘lsa, $a : 9$ ifodaning qiymatini toping.

3. Jadvaldagi ifodaning qiymatini toping:

Bo‘linuvchi	81	72	63	54	45	36	27
Bo‘luvchi	9	9	9	9	9	9	9
Bo‘linma							

4. Qisqa yozuv bo‘yicha masala tuzing va uni yeching:
Shaxmat to‘garagida — 27 nafar o‘quvchi
Shashka to‘garagida — ?, 7 nafar kam o‘quvchi

5. Shakllarni daftaringizga chizing va ularni bo‘yang:



6. Sport jamoasida 27 ta futbol to‘pi bor edi. O‘yin mavsumi davomida yana 23 ta futbol to‘pi olib kelindi. Jamoada hammasi bo‘lib nechta futbol to‘pi bo‘ldi?

7.

$(18 + 3) : 3$	$(68 - 41) : 3$	$2 \cdot (17 - 8)$
$(12 + 6) : 2$	$(56 - 35) : 3$	$3 \cdot (15 - 6)$

TARKIBLI MASALALAR

1. Masalalarni tushuntirib yeching:

1) Mehnat darsida Nasiba 2 ta, Aziza esa undan 4 ta ortiq ayiqcha yasadi. Aziza nechta ayiqcha yasagan?

2) Mehnat darsida Nasiba 2 ta, Aziza esa undan 4 marta ko‘p ayiqcha yasadi. Aziza nechta ayiqcha yasagan?

> Sonni bir necha marta orttirish uchun sonlar ko‘paytiriladi, bir necha birlik orttirish uchun esa sonlar qo‘shiladi.

2. Misollarni tushuntirib yeching:

4 ta orttiring				
16	20	24	28	32

4 marta orttiring				
5	6	7	8	9

3. 19 kg olma va 17 kg nokni har bir xaltaga 4 kg-dan qilib joylandi. Nechta xalta kerak bo‘lgan?

4. Amal ishoralarini tengliklar to‘g‘ri bo‘ladigan qilib qo‘ying:

18□18=1	32□4=8	4□9=36
21□21=0	24□3=8	3□9=27

5. Uzunligi 16 sm bo‘lgan arqon oling. Uning bir bo‘lagini, to‘rtdan bir qismini buklash yo‘li bilan toping.

6.

3·7 + 9	21 : 3 + 7	(91 − 67) : 3
4·9 + 4	28 : 4 − 7	(19 + 17) : 4

7. Archaning balandligi 16 m, terak esa undan 4 m baland. Terakning balandligi qancha?

1. Rasm bo‘yicha berilgan masalalarni yeching va ularni taqqoslang:

1)

16 kg ? 4 kg kam

2)



16 kg ? 4 marta kam

2.

4 ta kamaytiring				
8	12	20	15	39

4 marta kamaytiring				
8	24	16	32	28

3. Masalalarning yechilishini taqqoslang:

1) Bitta qafasda 24 ta, ikkinchi qafasda 4 ta kam quyon bor. Ikkinchi qafasda nechta quyon bor?

2) Bitta qafasda 24 ta, ikkinchi qafasda esa undan 4 marta kam quyon bor. Ikkinchi qafasda nechta quyon bor?

> Sonni bir necha birlik kamaytirish uchun sondan o‘sha birlik ayiriladi. Sonni bir necha marta kamaytirish uchun son o‘sha birlikka bo‘linadi.

4.

3 · 6	3 · 9	3 · 5	3 · 8	3 · 7
4 · 6	4 · 9	4 · 5	4 · 8	4 · 7

5. Jadval asosida masala tuzing va uni yeching:

Bor edi	Sarflandi	Qoldi
36 m mato	kastumga – 16 m shimga – 14 m	? m

6. Shunday son qo‘yingki, tengliklar to‘g‘ri bo‘lsin:

20 : □ = 5	32 : □ = 8	4 · □ = 16
28 : □ = 7	36 : □ = 9	4 · □ = 24

100 ICHIDA KO‘PAYTIRISH VA BO‘LISH

1. Jadvaldagi ifodaning qiymatini toping:

Ko‘paytuvchi	8	5		8	9	9
Ko‘paytuvchi		7	9	8	7	
Ko‘paytma	40		54			81

2. Maktab bog‘ida 42 tup o‘rik daraxti bor edi. Undan 6 marta kam anor ko‘chati o‘tqazildi. Maktab bog‘ida hammasi bo‘lib nechta mevali daraxt bo‘ldi?

3. O‘ylab top!



4.

$8 \cdot 3 + 8 \cdot 5$	$7 \cdot 6 - 6 \cdot 7$	$56 : 8 + 64 : 8$
$9 \cdot 7 - 6 \cdot 4$	$5 \cdot 9 + 2 \cdot 9$	$50 : 5 + 30 : 10$

5. Tenglamalarni yeching:

$x : 3 = 9$ $\quad$ $x \cdot 3 = 9$ $\quad$ $x : 2 = 4$

6. Uzunligi 12 sm bo‘lgan tasmani 2 ta teng qismga bo‘ling. Bir qismning uzunligini o‘lchang. Bajarilgan ish bo‘yicha bo‘lishga doir misol tuzing va uni daftaringizga yozing.

7.

$7 \cdot 8 \square 7 \cdot 5$	$6 \cdot 6 \square 5 \cdot 3$	$42 : 7 \square 56 : 8$
$4 \cdot 5 \square 9 \cdot 5$	$8 \cdot 8 \square 8 \cdot 2$	$21 : 3 \square 21 : 7$

BIR XONALI SONLARNI KO‘PAYTIRISH JADVALI

1.

•	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10
2	2	4	6	8	10	12	14	16	18	20
3	3	6	9	12	15	18	21	24	27	30
4	4	8	12	16	20	24	28	32	36	40
5	5	10	15	20	25	30	35	40	45	50
6	6	12	18	24	30	36	42	48	54	60
7	7	14	21	28	35	42	49	56	63	70
8	8	16	24	32	40	48	56	64	72	80
9	9	18	27	36	45	54	63	72	81	90

2. Hilola onasi bilan 9 tup rayhon ko‘chati, undan 3 marta ko‘p xina ko‘chatlarini o‘tqazishdi. Ular hammasi bo‘lib qancha ko‘chat o‘tqazishgan?

3.

64 : 8	81 : 9	45 : 9	32 : 8
72 : 8	72 : 9	24 : 6	16 : 8

4. $a \cdot 8$, $b : 7$ ifodaning qiymatini toping.

a	9	8	7	6
$a \cdot 8$				

b	63	56	49	42
$b : 7$				

5. 36, 37, 45, 81 sonlarining qaysi biri 9 ga bo‘linadi?

6. Bir o‘ramda 75 sm sim bor edi. Simdan bir necha santimetr qirqib olindi va unda 32 sm sim qoldi. Necha santimetr sim qirqib olingan?

7.

47 + 54 : 6	69 − 6 · 6	81 : 9 · 3
80 − 21 : 3	35 + 7 · 5	72 : 8 · 4

BIR XONALI SONLARNI BO‘LISH JADVALI

1.

4	6	8	10	12	14	16	18	**:2**
6	9	12	15	18	21	24	27	**:3**
8	12	16	20	24	28	32	36	**:4**
10	15	20	25	30	35	40	45	**:5**
12	18	24	30	36	42	48	54	**:6**
14	21	28	35	42	49	56	63	**:7**
16	24	32	40	48	56	64	72	**:8**
18	27	36	45	54	63	72	81	**:9**
2	**3**	**4**	**5**	**6**	**7**	**8**	**9**	

2. Birinchi yashikda 16 kg, ikkinchi yashikda 12 kg mix bor. 8 kg mix ishlatilgandan so‘ng, necha kilogramm mix qoldi?

3. Rasm asosida masala tuzing va uni yeching:



3 metr ? metr

4. Amallarni bajaring. Ifodalarning bir-biriga bog‘liqligini tushuntiring:

$6 \cdot 7 = 42$	$3 \cdot 9 = 27$	$9 \cdot 5 = 45$
$42 : 6 = 7$	$27 : 3 = 9$	$45 : 9 = 5$
$42 : 7 = 6$	$27 : 9 = 3$	$45 : 5 = 9$

5. Omborda 27 ta belkurak, undan 3 marta kam xaskash bor. Omborda hammasi bo‘lib nechta ish asbobi bor?

ULUSHLAR. GEOMETRIK SHAKLLAR VA KATTALIKLAR

SONNING ULUSHI

1. 14 sm li tasmani 2 ta teng qismga bo‘ling. Uni daftaringizga chizing, yarmini topib bo‘yang:

yarim	

Yarim – bu har qanday butun narsaning ikkita teng qismidan biridir.

2. Bir butun tortni oling. Uni teng ikkiga bo‘ling, ikkiga bo‘lingan qismni yana teng ikkiga bo‘ling:
a) butun tortni ko‘rsating;
b) tortning ikkidan bir qismini, uchdan bir qismini, to‘rtdan bir qismini ko‘rsating:

Butunning to‘rtdan bir qismi **chorak** deyiladi.

3. Uzunligi 8 sm, 12 sm bo‘lgan ikkita tasma chizing. Birinchi tasmani teng 2 ga, ikkinchi tasmani teng 4 qismga bo‘ling.

4. Qavslarni shunday qo‘yingki, tengliklar to‘g‘ri bo‘lsin:
$50 - 18 : 4 = 8$ | $4 \cdot 5 + 27 = 47$ | $36 : 4 + 21 = 30$

5. Nafisa 4 kg novvotni teng ikkiga bo‘lib, xaltachalarga joyladi. Har bir xaltachaga necha kilogramm novvot joylagan?

6. $4 \cdot 4 + 23$ | $15 : 3 + 45$ | $59 - 29 + 18$
$2 \cdot 9 + 12$ | $21 : 3 + 13$ | $35 + 35 - 70$

SONNING ULUSHINI SO‘ZLAR YOKI SONLAR YORDAMIDA TASVIRLASH

1. Har bir doira necha qismga bo‘lingan? Doiraning qanday qismi bo‘yalgan? Uchdan bir qismi raqam bilan qanday yoziladi? To‘rtdan bir qismi-chi? Beshdan bir qismi-chi?



2. Aziza ko‘ylak tikish uchun 12 metrlik gazlamadan $\frac{1}{4}$ bo‘lagini qirqib oldi. Aziza bitta ko‘ylakka necha metr gazlama qirqib olgan?

3. Agar har bir ko‘ylakka 3 m gazlama ketgan bo‘lsa, ikkala to‘pdan nechta ko‘ylak tikish mumkin?



4. Tasmalarning uzunliklarini o‘lchang. Yashil tasma ko‘k tasmadan necha marta uzunligini aniqlang.

5. Uzunligi 16 sm bo‘lgan arqon oling. Uning bir bo‘lagini, to‘rtdan bir qismini buklash yo‘li bilan toping.

6. Har bir qismi qanday hosil qilindi? Kesmaning belgilangan qismini o‘qing.

7. Sayohatchilar 2 soat yo‘l yurdilar. Ular bu vaqtning uchdan birini daryoni kesib o‘tishga, qolganini piyoda yurishga sarfladilar. Sayohatchilar qancha vaqt piyoda yurganlar (vaqtni minutlarda ifodalang)?

8. Ifodalarning qiymatini toping:
1) 10 va 6, 8 va 10 sonlarining ko‘paytmasi;
2) 18 va 3, 90 va 10 sonlarining bo‘linmasi.

BERILGAN SHARTLARGA ASOSAN MASALA TUZISH VA YECHISH

1. Qisqa yozuv bo‘yicha masala tuzing va uni yeching:
Musiqa to‘garagida — 28 nafar o‘quvchi,
Sport to‘garagida — ?, 8 nafar kam o‘quvchi.

2.

1) Uzunligi 12 sm bo‘lgan tasma oling. Uni buklash yo‘li bilan 2 ta teng qismga bo‘ling. Har qaysi qism bu tasmaning yarmi hisoblanadi. Tasmaning yarmi necha santimetr ekanini toping: 12:2=6 sm. Uni o‘lchash bilan tekshirib ko‘ring.
2) Tasmani buklash bilan 4 ta teng qismga bo‘ling. Shu tasmaning to‘rtdan bir qismi necha santimetr ekanini toping.

3. $3 \cdot 9$ □ $4 \cdot 4$ $16:4$ □ $12:3$ $12:4$ □ $24:4$
$4 \cdot 5$ □ $3 \cdot 8$ $20:4$ □ $15:3$ $3 \cdot 8$ □ $4 \cdot 8$

4. Rasm asosida masala tuzing va uni yeching:

6 dona 4 ta vazada — ? dona anor

5. Tenglamalarni yeching:
$15+x=37$ $18-x=5$ $3 \cdot x=21$ $x:2=8$

6. $a=3$ va $b=9$ bo‘lsa, ifodalarning qiymatini toping:
$a \cdot 6+a$ $a \cdot 7+a$ $27:a+a$ $b:3+b$

7. Maktab oshxonasida 36 ta stul bor edi. Ularning to‘rtdan bir qismi bo‘yaldi. Yana nechta stul bo‘yalishi kerak?

1. 1) Maktab oshxonasiga 4 ta savatda olma olib kelindi. Har qaysi savatda 10 kg dan olma bo‘lsa, hammasi bo‘lib necha kilogramm olma olib kelingan?



Bitta savatga ketgan olma	Savatlar soni	Hamma olmalarning massasi
10 kg	4 ta	? kg
? kg	4 ta	40 kg
10 kg	? kg	40 kg

2) Ikkita o‘zaro teskari masala tuzing va uni yeching.

2. Agar a = 63, a = 72, a = 81 bo‘lsa, a : 9 ifodaning qiymatini toping.

3. Aprel oyining $\frac{1}{4}$ qismi bulutli, qolgan kunlari ochiq bo‘ldi. Aprel oyida necha kun ochiq bo‘lgan?

4. Har bir to‘g‘ri to‘rtburchakda nechta katak bor?





5. To‘g‘ri to‘rtburchak shaklidagi qog‘oz varag‘ini teng ikki buklang. Varaqning yarmini ko‘rsating. Shu usul bilan doirani teng ikki qismga bo‘ling. Doiraning yarmini ko‘rsating.

6. Ifodalarning qiymatini toping:

1) 10 va 6, 8 va 10 sonlarining ko‘paytmasi;
2) 18 va 3, 90 va 10 sonlarining bo‘linmasi;
3) 2 va 7, 3 va 8 sonlarining ko‘paytmasi;
4) 16 va 4, 24 va 4 sonlarining bo‘linmasi.

7.

72 □ 50 = 22	9 □ 4 = 36	28 □ 4 = 7
38 □ 15 = 53	8 □ 2 = 16	24 □ 3 = 8

1. Aerodromda 4 ta vertolyot va 12 ta samolyot bor edi. Samolyotlar vertolyotlardan necha marta ko‘p? Vertolyotlar samolyotlardan necha marta kam?

2. Maktab bog‘iga 4 tup olcha va 8 tup behi ko‘chati o‘tqazildi. Behilar olchalardan necha marta ko‘p? Olchalar behilardan necha marta kam?

> **Yodingizda tuting:**
> Bir son ikkinchi sondan necha marta kam ekanini bilish uchun katta sonni kichik songa bo‘lish kerak.

3. Quyidagi topshiriqlarni bajaring:

1) Kubiklarning yarmisi qancha?

2) Kubiklarning uchdan bir qismi qancha?

3) Kubiklarning to‘rtdan bir qismi qancha?

4. Tenglamalarni yeching:

$x \cdot 7 = 49$ | $64 : x = 8$ | $81 : x = 9$ | $x \cdot 3 = 12$

5. Maktab ustaxonasiga doir masala tuzing va uni yeching:

Bor edi	Keltirildi	Bo‘ldi
Ustaxona asboblari – 36 ta	Qo‘l arra – 27 ta Randa – 27 ta	? ta

6. $5 \cdot 9 - 4 \cdot 8$ | $40 : 5 + 32 : 4$ | $5 \cdot (11 - 5)$

$5 \cdot 8 + 4 \cdot 3$ | $36 : 4 - 18 : 3$ | $4 \cdot (18 - 9)$

MUAMMOLI MASALALAR

1. Gulsara bozordan 24 kg olma va uzum sotib oldi. Mevalarning uchdan bir qismi olma bo‘lsa, Gulsara uzumdan necha kilogramm sotib olgan?

2. Ishchilar □ m zovur qazishgandan keyin yana qaziganidan □ m ortiq zovur qazishlari kerak. Ishchilar hammasi bo‘lib necha metr zovur qazishlari kerak?

3.

4 · 7 □ 5 · 7	16 : 2 □ 32 : 4	63 : 7 □ 18 : 6
3 · 9 □ 6 · 8	24 : 4 □ 24 : 6	40 : 8 □ 40 : 5

4. 88 sonining yarmisini, 24 sonining to‘rtdan bir qismini toping.

5. Chizma asosida masala tuzing va uni yeching.



6. Aziza 27 metr gazlamadan ko‘ylak tikish uchun uchdan bir qismini qirqib oldi. U necha metr gazlama qirqib olgan?

7. Tushib qolgan sonlarni o‘rniga qo‘yib yozing:

2 · □ = 9 · 2	6 · 5 = □ · 6	15 : 3 = 25 : □
8 · □ = 3 · 8	9 · 7 = □ · 9	18 : 3 = 24 : □
4 · □ = 9 · 4	7 · 8 = □ · 7	81 : 9 = 54 : □

1. Rasmda uzunligi 9 sm va 8 sm bo‘lgan ikkita tasma tasvirlangan. Birinchi tasma teng 3 qismga, ikkinchisi esa teng 4 qismga bo‘lindi. Tasmaning uchdan biri; to‘rtdan biri nimaga teng?

2. Tushib qolgan sonlarni topib yozing.

+ 57	– 75	+ 45	– 87	+ 38
3□	6□	2□	□6	12
□9	□1	□9	3□	5□

3. Uzunligi 15 sm bo‘lgan simni 3 ta teng bo‘lakka bo‘ling. Uning bir qismi uzunligini toping. Bajarilgan ish bo‘yicha bo‘lishga doir ifoda tuzing va uni daftaringizga yozing.

4. «Moslashuv» misollari to‘g‘ri bajarilganmi?

55 + 32	89	81 : 9	45
97 – 43	87	54 : 9	9
64 + 25	41	9 · 5	63
82 – 41	54	9 · 7	6

5. 6 sm uzunlikdagi kesma bir necha marta uzaytirilgach 18 sm uzunlikdagi kesma hosil bo‘ldi. Kesma necha santimetr uzaytirilgan?

6. Tenglamalarni yeching:

$27 + x = 49$	$x \cdot 5 = 35$	$45 : x = 9$
$58 - x = 20$	$4 \cdot x = 36$	$64 : x = 8$

1. Birinchi kesmaning to‘rtdan bir qismini ikkinchi kesmaning beshdan bir qismini toping.



2. Oziq-ovqat do‘koniga 21 ta quti konfet va pecheniy keltirildi. Ularning uchdan bir qismi konfet bo‘lsa, necha quti pecheniy keltirilgan?

3. Misollarni tushuntirib yeching:



4. Javobi 90 chiqishi uchun qaysi tomondan yurish kerak? Hisoblashni to‘g‘ri bajaring.



5. Masalaga doir sxematik rasm chizing va masalani yeching.

20 ta doirani 5 tadan qilib guruhlarga ajratildi. Nechta guruh hosil bo‘ldi?

6. 25 : 5 ☐ 48 : 6 | 4 · 6 ☐ 5 · 6 | 28 : 7 ☐ 9 · 7
30 : 5 ☐ 45 : 9 | 6 · 8 ☐ 8 · 6 | 8 · 8 ☐ 42 : 6

7. Tikuvchida 12 dona tugma bor edi. U hamma tugmalarning uchdan bir qismini paltoga qadadi. Tikuvchi paltoga nechta tugma qadagan?

GEOMETRIK SHAKLLAR: KVADRAT, TO‘G‘RI TO‘RTBURCHAK, UCHBURCHAK, DOIRA VA ULAR BILAN BOG‘LIQ KATTALIKLAR

1. Shakllarning o‘xshash va farqli tomonlarini ayting.

2. Shakllarni daftaringizga chizing. Har qaysi shaklda nechtadan uchburchak va nechtadan kvadrat bor?



2 ta uchburchak
1 ta kvadrat



8 ta uchburchak
1 ta kvadrat



4 ta uchburchak
2 ta kvadrat

3. Kvadrat tomonlari uzunliklarining yig‘indisi 32 sm. Shu kvadratning bir tomoni uzunligi qancha?

4. To‘g‘ri to‘rtburchakning to‘rtta tomoni teng qismga bo‘lindi. Uning to‘rtdan bir qismi ko‘k, qolgan qismi yashil rangga bo‘yaldi. To‘g‘ri to‘rtburchakning qanday qismi yashil rangga bo‘yalgan?

5. Uycha yasash uchun qanday shakllardan foydalanish mumkin?

6. Sobirda 25 ta sanoq cho‘p bor edi. U bir nechta alohida kvadrat yasaganidan so‘ng 1 ta cho‘p ortib qoldi. Sobir nechta kvadrat yasagan?

7.

8 · 5 ☐ 7 · 3	28 : 4 ☐ 30 : 5	35 : 5 ☐ 49 : 7
6 · 4 ☐ 5 · 9	45 : 9 ☐ 45 : 5	42 : 6 ☐ 35 : 7

1. Har qaysi shaklda nechtadan to‘g‘ri to‘rtburchak, nechtadan uchburchak bor? Shakllarni daftaringizga chizing va ularni bo‘yang.



2. Dilnoza 60 betli ertak kitobini o‘qimoqda. U birinchi kuni kitobning uchdan bir qismini o‘qidi, ikkinchi kuni 18 bet o‘qidi. O‘qiladigan yana necha bet qoldi?

3. «Moslashuv» misollari to‘g‘ri bajarilganmi?

48 + 32	39	56 : 7	40
79 − 55	80	36 : 6	8
27 + 12	20	8 · 5	81
45 − 25	24	9 · 9	6

4. Chizma asosida masala tuzing va uni yeching.



5. Tenglamalarni yeching.

$6 \cdot x = 42$ $\quad$ $45 + x = 56$ $\quad$ $39 - x = 19$

6. Arqonning uzunligi 18 m. Shu arqondan uzunligi 3 m bo‘lgan bir bo‘lagi qirqib olindi. Qirqib olingan bo‘lak butun arqonning qanday qismini tashkil qiladi?

7.

20 : 10 + 71	46 + 36 : 9	14 : 7 + 12 : 6
18 : 18 + 27	32 − 32 : 8	18 : 2 + 16 : 8

SHAKLLARNI TAQQOSLASH VA BO‘YASH. BO‘LAKLARI BO‘YICHA SHAKLNI YASASH VA BO‘LAKLARGA AJRATISH

1. Bir tomoni 6 sm, ikkinchi tomoni undan 2 marta kichik bo‘lgan to‘g‘ri to‘rtburchak chizing. Uning perimetrini toping.

2. Shakllarni taqqoslang va ularni daftaringizga chizib, bo‘yang.



3. 30 m uzunlikdagi arqon ikki bo‘lakka bo‘lindi. Birinchi bo‘lakning uzunligi butun arqonning $\frac{1}{5}$ qismini tashkil etdi. Ikkinchi bo‘lakning uzunligi qancha?

4. Rasmlarni qarab chiqing va taqqoslang.



$\frac{1}{2}$ va $\frac{1}{3}$ | $\frac{1}{3}$ va $\frac{1}{4}$ | $\frac{1}{4}$ va $\frac{1}{5}$

5. Daftaringizga rasmdagi shakllarni chizing. Unda kvadrat bo‘laklarga bo‘linib, uning bo‘laklaridan uchburchak hosil qilingan. Ikkala chizmadagi bir xil bo‘laklarni bir xil rangga bo‘yang:



6. Uchburchakning perimetri 12 sm. Uning bir tomoni uzunligi 5 sm ga, ikkinchi tomonining uzunligi 3 sm ga teng. Uchburchakning uchinchi tomoni uzunligini toping.

7. Tenglamalarni yeching:

$40 : x = 10$ $\quad$ $40 : x = 4$ $\quad$ $20 : x = 20$

1. Quyidagi sonlar ko‘paytmasini bir ustunga, bo‘linmasini ikkinchi ustunga yozing va qiymatini toping:

42 : 7	6 · 8	35 : 5	5 · 9	48 : 8	6 · 4

2. Tomonlari 2 sm va 3 sm bo‘lgan to‘g‘ri to‘rtburchakni toping va uni daftaringizga chizing. Shakllarni sanoq cho‘pi yordamida yasang.



3. Amal ishoralarini tengliklar to‘g‘ri bo‘ladigan qilib qo‘ying:

5 □ 5=25	9 □ 3=27	8 □ 2=16
5 □ 5= 1	9 □ 3= 3	8 □ 2= 4
5 □ 5=10	9 □ 3=12	8 □ 2=10
5 □ 5= 0	9 □ 3= 6	8 □ 2= 6

4. Bu shakllar nima deb ataladi? Ular orasidan to‘g‘ri to‘rtburchaklarni toping.

5. Do‘konda bir kunda 34 ta stol, undan 6 ta ortiq stul, stuldan 5 marta kam javon sotildi. Nechta javon sotilgan?

6.

16 : 2 + 16 : 4	25 + 15 : 3	40 : 10 + 56
18 : 3 + 18 : 2	28 − 41 : 3	50 : 10 + 39

BO‘LINUVCHI, BO‘LUVCHI, BO‘LINMA VA QOLDIQNI CHIZMADA IFODALASH

1. Sanoq cho‘plaridan foydalanib, bo‘linmani toping:
1) bo‘linuvchi 16, bo‘luvchi 2, bo‘linmani toping;
2) bo‘linuvchi 18, bo‘luvchi 3, bo‘linmani toping;
3) bo‘linuvchi 24, bo‘luvchi 6, bo‘linmani toping;
4) bo‘linuvchi 45, bo‘luvchi 5, bo‘linmani toping.

2. Tikuvchida 25 dona tugma bor edi. U har qaysi ko‘ylakka 6 tadan tugma qadadi. Shu tugmalar nechta ko‘ylakka yetadi va nechta tugma ortib qoladi?
Yechish: 25 : 6 = 4 (1 qoldiq)
25 – bo‘linuvchi, 6 – bo‘luvchi, 4 – bo‘linma, 1 – qoldiq.

3. Misollarni tushuntirib yeching.

16 : 5	23 : 4	49 : 8	51 : 7	17 : 3
19 : 3	37 : 6	47 : 9	15 : 2	25 : 6

4. Yashikda 19 kg apelsin bor edi. Har bir savatga 9 kg dan apelsin solindi. Shu apelsinlar nechta savatga solingan va necha kilogramm apelsin ortib qolgan?

5. Kastumga 3 m gazlama ketadi. Bir to‘pda 13 m gazlama bor. Shu gazlamadan nechta kastum chiqadi?
Hasan masalani bunday yechdi: 13 : 3 = 4 (1 qoldiq)
Husan esa masalani bunday yechdi:
13 : 3 = 3 (4 qoldiq)
Qaysi o‘quvchi masalani to‘g‘ri yechgan?

6. 1) 20 dan 30 gacha bo‘lgan sonlardan qaysilari 3 ga, 4 ga, 5 ga, 6 ga qoldiqsiz bo‘linadi?
2) 30 dan 40 gacha bo‘lgan sonlardan qaysilari 4 ga, 5 ga, 6 ga, 7 ga qoldiqsiz bo‘linadi?

7.

57 : 8 = 7 (☐ qoldiq)	49 : 6 = 8 (☐ qoldiq)
73 : 9 = 8 (☐ qoldiq)	82 : 9 = 9 (☐ qoldiq)
36 : 5 = 7 (☐ qoldiq)	37 : 9 = 4 (☐ qoldiq)

8. Tomonlari 4 sm va 6 sm bo‘lgan to‘g‘ri to‘rtburchakni daftaringizga chizing. Uning perimetrini toping.

1. Birinchi operator bir kunda kompyuterda 6 soatda 24 bet, ikkinchi operator shuncha vaqtda 30 bet matn teradi. Qaysi operator bir kunda ko‘p bet matn teradi va necha bet ortiq matn teradi?

2. Rasmdan foydalanib, qoldiqli bo‘lishni bajaring.


14 : 3 = ?

15 : 6 = ?

3. Qoldiqli bo‘lishni bajaring:
13 : 2 23 : 7 19 : 5 37 : 6 46 : 9

4. 40 ta rangli qalamni har birida 6 tadan qilib qutilarga solish kerak. Nechta quti kerak bo‘ladi? Nechta qalam ortib qoladi?

5. Agar $a = 45$, $a = 36$, $a = 54$ bo‘lsa, $a : 9$ ifodaning qiymatini toping.

6. Maktab kutubxonasiga 100 ta darslik keltirildi. Har birida 23 o‘quvchi bo‘lgan to‘rt sinf bolalariga bittadan darslik berildi. Kutubxonada yana nechta darslik qolgan?

7. Tushirib qoldirilgan sonlarni qo‘ying.

40 : 9 = ☐ (4 qoldiq) | 57 : 8 = 7 (☐ qoldiq)
64 : 9 = ☐ (1 qoldiq) | 46 : 9 = 5 (☐ qoldiq)

1. 1) Nasiba 10, 11, 12, 13, 14, 15, 16 sonlaridan har qaysisining ostiga 2 ga, 3 ga, 4 ga bo‘lishdan chiqqan qoldiqlarni yozdi. Nasiba jadvalni to‘g‘ri to‘ldirganini doirachalar (cho‘plar) dan foydalanib tekshiring:

	10	11	12	13	14	15	16
: 2	0	1	0	1	0	1	0
: 3	1	2	0	1	2	0	1
: 4	2	3	0	1	2	3	0

2) Sonni 2 ga, 3 ga, 4 ga bo‘lganda eng katta qoldiq nechaga teng bo‘ladi?

2. Qisqa yozuv bo‘yicha masala tuzing va uni yeching:

1-chelakda – 12 kg 2-chelakda – ?, 2 kg kam	1-chelakda – 12 kg 2-chelakda – ?, 2 marta kam

3. Bo‘linma va qoldiqni toping:

84 : 9	38 : 4	46 : 9	22 : 7
43 : 7	73 : 9	65 : 8	13 : 3

4. To‘g‘ri to‘rtburchakning perimetri 22 sm. Uning eni 4 sm. To‘g‘ri to‘rtburchakning bo‘yini toping.

5.

(17 + 11) : 4	(67 – 43) : 3	(29 + 20) : 7
(11 + 10) : 3	(18 + 14) : 4	(35 + 19) : 6

6. 36, 73, 45, 81, 63 sonlarining qaysi biri 9 ga qoldiqsiz bo‘linadi?

1.

18 : 2 + 21	32 – 32 : 4	18 – 18 : 2
14 : 2 + 47	36 + 36 : 4	50 + 20 : 4

2. Misolni tushuntirib yeching.

30 : 10 = □

5 · 6 = □□

3 · 8 = □□

45 : 9 = □

24 : 6 = □

9 · 5 = □□

4 · 9 = □□

3. Xo‘jalik issiqxonadan shaharga 2 mashina limon jo‘natdi. Birinchi mashinada 27 ta yashik, ikkinchi mashinada birinchidagidan 3 ta yashik ortiq limon jo‘natdi. Issiqxonadan shaharga ikkinchi mashinada qancha limon jo‘natilgan?

4. Shakllarni bo‘laklarga ajrating.







5. 12 : 3 va 15 : 3 | 28 : 4 va 18 : 2 | 16 : 4 va 20 : 4
15 : 5 va 12 : 4 | 18 : 9 va 28 : 7 | 20 : 5 va 16 : 2

6. Masalaga doir rasm chizing va uni yeching:

4 ta quyonning har biriga 3 tadan sabzi berildi. Quyonlarga hammasi bo‘lib nechta sabzi berilgan?

7. 16 : 2 + 16 : 4 | 25 + 15 : 3 | 40 : 10 + 56
18 : 3 + 18 : 2 | 28 − 21 : 3 | 50 : 10 + 39

1. Masalalar va ularning yechilishi nimasi bilan o‘xshaydi, nimasi bilan farq qiladi?

1) Gulnoza birinchi kuni kitobning 8 betini, ikkinchi kuni birinchi kundagidan 3 bet ortiq o‘qidi. Gulnoza ikkinchi kuni necha bet kitob o‘qigan?

2) Gulnoza birinchi kuni kitobning 8 betini, ikkinchi kuni birinchi kundagidan 3 marta ortiq bet o‘qidi. Gulnoza ikkinchi kuni necha bet kitob o‘qigan?

2. 3 · 4 ☐ 4 · 3 | 12 : 3 ☐ 12 : 4 | 24 : 4 ☐ 24 : 6
4 · 5 ☐ 4 · 7 | 21 : 3 ☐ 28 : 4 | 32 : 4 ☐ 36 : 4

3. Rasm asosida masala tuzing va uni yeching:

6 kg 4 ta chelakda — ? kg

4. Birinchi ustunga sonlar ko‘paytmasini, ikkinchi ustunga sonlar bo‘linmasini yozing:

36 : 4 | 4 · 7 | 3 · 9 | 27 : 3 | 18 : 3 | 4 · 5.

5. Jadval asosida masala tuzing va uni yeching:

Bitta bankadagi olma sharbati	Bankalar soni	Hamma bankadagi olma sharbatining massasi
2 litr	9 ta	? litr
2 litr	? ta	18 litr
? litr	9 ta	18 litr

Ikkita o‘zaro teskari masala tuzing va uni yeching.

6. Bir tomoni 5 sm, ikkinchi tomoni undan 3 sm kichik bo‘lgan to‘g‘ri to‘rtburchak chizing. Uning perimetrini toping.

7. Qavslarni shunday qo‘yingki, tengliklar to‘g‘ri bo‘lsin:

50 − 10 + 30 = 70 | 15 + 3 · 5 = 30
80 − 50 + 10 = 20 | 60 − 24 : 4 = 9

TO‘G‘RI TO‘RTBURCHAK VA KVADRATNING YUZI

1. Quyidagi shakllarning yuzlarini ko‘z bilan chamalab taqqoslang:



2. 1)



2)



1-shaklda uchburchak to‘rtburchak ichiga to‘la joylashgan; 2-shaklda kvadrat beshburchak ichiga to‘la joylashgan. Bu uchburchakning yuzi to‘rtburchak yuzidan kichik, kvadratning yuzi esa beshburchakning yuzidan kichik ekanini bildiradi. **Yuz** – bu o‘lchash mumkin bo‘lgan kattalik.

3. Har bir shakldagi teng kvadratchalarni sanab, shakllarning yuzini taqqoslang. Shakllarning yuzini chamalab, ustma-ust qo‘yib taqqoslash mumkinmi?

4. Yuzi teng bo‘lgan shakllarning tartib raqamlarini yozing:



5. Rasm va chizma asosida masala tuzing va uni yeching.



6. Tenglamalarni yeching:

$24 + x = 46$ | $30 - x = 10$ | $3 \cdot x = 18$ | $20 : x = 5$

7. Har bir qism qanday hosil qilindi?
Kesmalarning belgilangan qismini toping.

$\frac{3}{5}$

$\frac{5}{8}$

8. Chinorning balandligi 14 m. Majnuntolning balandligi undan 4 m kam. Majnuntolning balandligini toping.
Masala savolini shunday o‘zgartiringki, u sonni bir necha marta kamaytirishga doir bo‘lsin.

9. $(14 - 9) \cdot 5$ | $(11 - 7) \cdot 8$ | $4 \cdot (14 - 6)$
$(13 - 8) \cdot 4$ | $(12 - 6) \cdot 3$ | $5 \cdot (12 - 8)$

YUZ BIRLIKLARI: KVADRAT SANTIMETR. BELGILANISHI — kv. sm (sm^2)

1. To‘g‘ri to‘rtburchaklarning yuzlarini ko‘z bilan chamalab, qaysi shaklning yuzi eng katta, qaysi biri eng kichik ekanini ayting:

Tomonlari bir santimetrdan bo‘lgan kvadratning yuzi bir kvadrat santimetrga teng bo‘ladi. «Kvadrat santimetr» so‘zi sonlar yoniga qisqacha 1 kv. sm, 5 kv. sm deb yoziladi.



2. 49 kg meva bor edi. Murabbo tayyorlash uchun 20 kg, sharbat tayyorlash uchun 19 kg meva ishlatildi. Necha kilogramm meva ortib qoldi?

3.

35 : 5 · 2	4 · 9 + 14	18 : 2 − 9
20 : 4 · 5	3 · 8 − 24	16 : 4 + 6

4. Har qaysi shaklda nechta kvadrat santimetr borligini sanab ayting:



5. Bu yil shaharda 54 ta yangi uy qurilishi kerak edi. Uylarning oltidan bir qismi Navro‘z bayramiga qurib bitkazildi. Navro‘z bayramiga nechta uy qurib bitkazilgan?

6.

$40+6\cdot5$	$80-6\cdot9$	$48:6+12$
$60-6\cdot8$	$30+6\cdot7$	$54:6+21$

1. Har bir shaklning yuzini kvadrat santimetr modellari yordamida toping:



Shaklning yuzini topish deganda shu shaklni ajratish mumkin bo‘lgan kvadrat santimetrlar sonini topish tushuniladi.

2. Tikuv ustaxonasida 72 metr matodan 8 ta bir xil shim tikildi. 9 ta shunday shimga necha metr mato kerak bo‘ladi?

3. Ifodalar tuzing va ularning qiymatini toping:

b	19	50	46	21	39	9	67
$79-b$							

4. 1) Birinchi ko‘paytuvchi 6, ikkinchi ko‘paytuvchi 7, ko‘paytmani toping;

2) bo‘linuvchi 56, bo‘luvchi 7, bo‘linmani toping.

3) bo‘linuvchi 81, bo‘luvchi 9, bo‘linmani toping.

5. 1) Rasm asosida masala tuzing va uni yeching:

Bitta idishdagi benzinning sig‘imi	Idishlar soni	Hamma idishdagi benzinning sig‘imi
9 litr	8 ta	?
?	8 ta	72 litr
9 litr	?	72 litr

2) Ikkita o‘zaro teskari masala tuzing va uni yeching.

6. 42 : 7 · 3 | 36 : 4 · 3 | 6 · 8 + 40
54 : 6 · 2 | 28 : 7 + 4 | 6 · 9 − 24

7. Ikkita motorli qayiq bir manzildan qarama-qarshi tomonga qarab jo‘nadi. Ulardan biri 38 km, ikkinchisi undan 5 km ortiq yo‘l bosdi. Shu vaqtda qayiqlar bir-biridan qancha masofada bo‘lgan?

KATAKLI QOG‘OZDA CHIZILGAN SHAKLLAR YUZLARI

1. Uzunligi 4 sm, eni 3 sm bo‘lgan to‘g‘ri to‘rtburchak kvadrat santimetrlarga bo‘lingan. Har biri 4 kv. sm bo‘lgan 3 ta qator yoki har biri 3 kv.sm bo‘lgan 3 ta ustun hosil bo‘lgan. To‘g‘ri to‘rtburchakning yuzini hisoblash uchun 4 va 3 sonlarining ko‘paytmasini topish kerak.





4 · 3 = 12 yoki 3 · 4 = 12 ?

Javob: 12 kv. sm.

To‘g‘ri to‘rtburchakning yuzini hisoblash uchun uning bo‘yini va enini o‘lchab, hosil bo‘lgan sonlar o‘zaro ko‘paytiriladi.

2. Fermer xo‘jaligida bu yil 15 ta uy qurildi. O‘tgan yili bu yilgidan 6 ta kam uy qurilgan edi. Ikki yil ichida hammasi bo‘lib qancha uy qurilgan?

3. Shakllarning yuzlarini taqqoslang:



4. $5 \cdot 6 \square 6 \cdot 8$ | $6 \cdot 3 \square 9 \cdot 2$ | $24 : 3 \square 54 : 9$
$9 \cdot 9 \square 7 \cdot 3$ | $2 \cdot 7 \square 7 \cdot 2$ | $63 : 7 \square 18 : 6$

5. Rasm asosida masala tuzing va uni yeching:

5 kg ? kg

6. Tasviriy san’at ko‘rgazmasiga Nasiba 18 ta rasm, o‘rtog‘i Aziza esa undan 3 marta kam rasm tayyorladi. Ko‘rgazmaga ikkala o‘rtoq hammasi bo‘lib nechta rasm tayyorlashgan?

7. $90 : 10$ | $6 \cdot 10$ | $30 : 10$ | $80 : 10 + 80 : 8$
$50 : 10$ | $8 \cdot 10$ | $20 : 10$ | $50 : 50 + 40 : 4$

1. $4 \cdot 7 \square 5 \cdot 7$ | $16 : 2 \square 32 : 4$ | $20 : 5 \square 15 : 5$
$3 \cdot 9 \square 2 \cdot 9$ | $24 : 4 \square 24 : 6$ | $40 : 5 \square 40 : 8$

2. Har bir shaklning nomini ayting. Bu shakllar orasida uchburchaklar nechta? To‘rtburchaklar-chi?



3. Xo‘jalikdan tegirmonga 40 qop bug‘doy, undan 5 qop kam arpa olib kelindi. Tegirmonga necha qop arpa olib kelingan?
Masalaga shunday savol qo‘yingki, u ikki amal bilan yechiladigan bo‘lsin.

4. Tenglamalarni yeching:
$44 + x = 88$ | $58 - x = 20$ | $25 : x = 5$ | $x \cdot 7 = 49$

5. Rasmga qarab sabziga, piyozga, rediskaga ajratilgan yer maydonining yuzini toping:



6. Birinchi avtobusda 60 ta, ikkinchisida esa 40 ta sayohatchi ketayotgan edi. Birinchi avtobusdan ikkinchisiga 10 ta sayohatchi o‘tdi. Quyidagi ifodalar bo‘yicha masalalarni yeching: $60 + 40$, $60 - 40$, $60 - 10$, $40 + 10$.

7. Uy qurilishida 38 nafar g‘isht teruvchi, undan 8 nafar kam bo‘yoqchi ishladi. Qurilishda hammasi bo‘lib necha nafar ishchi ishlagan?

8.

$5 \cdot (8 - 4)$	$(13 - 8) \cdot 5$	$(35 - 10) : 5$
$4 \cdot (5 + 3)$	$(12 - 7) \cdot 5$	$(20 + 16) : 4$

1. Yuzi bir xil bo‘lgan shakllarni toping:



2. 1) Kutubxonaga 9 ta hikoya, undan 6 ta ortiq ertak kitob keltirildi. Kutubxonaga hammasi bo‘lib nechta kitob keltirilgan?

2) Kutubxonaga 9 ta hikoya, undan 6 marta ko‘p ertak kitob keltirildi. Kutubxonaga hammasi bo‘lib nechta kitob keltirilgan?

3. Qizil rangdagi tasmaning uchdan bir qismini, yashil rangdagi tasmaning beshdan bir qismini toping.



4. Har bir shakldagi kvadrat santimetrlarni sanang. Har bir shaklning yuzi nimaga teng?



5. Amal ishoralarini tengliklar to‘g‘ri bo‘ladigan qilib qo‘ying:

8 □ 4 = 32	6 □ 3 = 18	10 □ 2 = 20
8 □ 4 = 2	6 □ 3 = 2	10 □ 2 = 5
8 □ 4 = 12	6 □ 3 = 9	10 □ 2 = 12
8 □ 4 = 4	6 □ 3 = 3	10 □ 2 = 8

6. Rasmda qanday tanish shakllarni ko‘ryapsiz? Uchi *B* nuqtada bo‘lgan uchburchaklarni va hamma to‘rtburchaklarni yozing.



7. Tikuvchi 6 ta paltoga 5 tadan va 9 ta kastumga 4 tadan tugma qadadi. Tikuvchi hammasi bo‘lib nechta tugma qadagan?

8.

50 sm + 40 sm	80 mm − 20 mm
40 dm − 30 dm	60 mm + 30 mm
20 mm + 20 mm	70 sm − 50 sm

UCH XONALI SONLARNI RAQAMLASH. MINGLIK



UCH XONALI SONLARNI RAQAMLASH

1. 1) Bitta o‘nlikda nechta birlik bor?



10 ta birlik



1 ta o‘nlik

2) Yuzlikda nechta o‘nlik bor?



10 ta o‘nlik



1 ta yuzlik

3) Yuzliklarni sanang:



= 1 ta minglik

100 o‘nlik yoki 10 ta yuzlik

1 ta yuzlik – yuz
2 ta yuzlik – ikki yuz
3 ta yuzlik – uch yuz
4 ta yuzlik – to‘rt yuz
5 ta yuzlik – besh yuz
6 ta yuzlik – olti yuz
7 ta yuzlik – yetti yuz
8 ta yuzlik – sakkiz yuz
9 ta yuzlik – to‘qqiz yuz
10 ta yuzlik – ming

Yuzliklar – 100 (yuz), 200 (ikki yuz), 300 (uch yuz), 400 (to‘rt yuz), 500 (besh yuz), 600 (olti yuz), 700 (yetti yuz), 800 (sakkiz yuz), 900 (to‘qqiz yuz), 10 ta yuzlik – 1000 (ming). Ming soni quyidagicha yoziladi — 1000.

2. 4 ta yuzlik, 1 ta o‘nlik, 5 ta birlik, 8 ta yuzlik, 9 ta o‘nlikdan iborat sonlarni yozing.

3. Misollarning yechilishini tushuntiring:

$100 + 100 = 200$ $\quad$ $200 - 100 = 100$

$300 - 100 = 200$ $\quad$ $300 + 100 = 400$

Yuzliklar ustidagi amallar birliklar va o‘nliklar ustidagi amallar kabi bajariladi.

4. Maktab atrofiga 90 ta terak va archa ko‘chatlari o‘tkazildi. Agar archa ko‘chatlari 50 ta bo‘lsa, nechta terak ko‘chati o‘tqazilgan?

5. Bo‘sh kataklarni to‘ldiring.

100			400				800	

6. $300 + 200 - 100$ $\quad$ $500 - 100 + 200$

$600 - 300 + 200$ $\quad$ $400 + 200 - 300$

7. Do‘konga 200 ta yashikda gazli ichimlik keltirildi. Agar tushgacha 100 ta yashikdagi ichimlik sotilgan bo‘lsa, yana sotiladigan nechta yashik gazli ichimlik qolgan?

1. Sonlarni raqamlarda ifodalang.

3 ta yuzlik, 5 ta o‘nlik va 8 ta birlik;

5 ta yuzlik, 8 ta o‘nlik va 2 ta birlik;

7 ta yuzlik, 6 ta o‘nlik va 5 ta birlik.

2. Dalada bir mashinada 200 qop, ikkinchisi mashinada ham shuncha qop piyoz olib ketildi. Daladan ikkala mashinada hammasi bo‘lib necha qop piyoz olib ketilgan?

3.



4. Shunday son qo‘yingki, tenglik to‘g‘ri bo‘lsin:

200 + □□ = 220 670 − □□ = 600

530 − □□ = 500 400 + □□ = 480

5. Har bir shakldagi kvadrat santimetrlarini sanab, har bir shaklning yuzini toping.



6. Bog‘bon bir tup xurmodan 60 kg, ikkinchi tup xurmodan esa bir necha kilogramm hosil olganidan keyin hosil 100 kg bo‘ldi. Bog‘bon ikkinchi tupdan necha kilogramm xurmo olgan?

7.

53 + 47	(56 + 44) − 50	(62 + 38) + 10
76 + 24	(83 + 17) − 37	(54 + 46) + 20

YUZLIK, O‘NLIK VA BIRLIKLARDAN SONLARNI HOSIL QILISH

1. Jadval asosida hosil qilingan sonlarni tushuntiring va ularni o‘qing.

Yuzlik	O‘nlik	Birlik
 1	 2	 5

2. Jadvaldagi raqamlardan hosil qilingan sonlarni o‘qing va ularni daftaringizga yozing.

Yuzlar xonasi	O‘nlar xonasi	Birlar xonasi
2	5	7
5	3	9
8	2	6
6	1	4

Birlar, o‘nlar, yuzlar xona birliklari birgalikda birinchi sinf — birlar sinfini tashkil etadi.

10 birlik = 1 o‘nlik	1 yuzlik = 100 birlik
10 o‘nlik = 1 yuzlik	1 minglik = 1000 birlik
10 yuzlik = 1 minglik	1 minglik = 100 o‘nlik

3. Bir satrga bir xonali sonlarni, ikkinchi satrga ikki xonali sonlarni, uchinchi satrga uch xonali sonlarni o‘sib borish tartibida yozing:

18, 116, 62, 9, 6, 358, 469, 75, 8, 854, 96, 5.

4. Har bir qatordagi sonlarni o‘qing:

1	2	3	4	5	6	7
10	20	30	40	50	60	70
100	200	300	400	500	600	700

a) sonlarning xona birliklarini ayting;

b) Har bir ustundagi sonlar nimasi bilan o‘xshaydi, nimasi bilan farq qiladi?

5. Taqqoslang:

200 ☐ 300	500 ☐ 500	700 ☐ 600
400 ☐ 900	600 ☐ 300	400 ☐ 700

6. Tomonlari uzunliklarining yig‘indisi 80 mm bo‘lgan kvadrat chizing va uni bo‘yang.

7. 400 + 200 − 100 700 − 200 + 100

600 − 300 + 100 200 + 200 − 100

1. Sonlarni raqamlar bilan yozing. Har bir raqam nimani bildiradi?

1) 2 yuzlik, 8 o‘nlik va 4 birlik;
2) 8 yuzlik, 5 o‘nlik va 7 birlik;
3) 5 yuzlik, 9 o‘nlik va 2 birlik;
4) 9 yuzlik, 6 o‘nlik va 3 birlik.

2. Quyidagi sonlarni o‘qing. Har qaysi raqam nimani bildiradi: 524, 859, 285, 126, 275?

100 dan 999 gacha bo‘lgan sonlar – uch xonali sonlar.

3. Jadval asosida masala tuzing va uni yeching.

Bor edi	Keltirildi	Bo‘ldi
100 m atlas	Yana 100 m atlas	? m

4. 895, 458, 763 sonlarining har birida hammasi bo‘lib nechta yuzlik, nechta o‘nlik, nechta birlik bor?

5. Doirachalarga 1 dan 8 gacha sonlarni bittadan shunday joylashtiringki, kvadratning har bir qatoridagi sonlar yig‘indisi 12 ga teng bo‘lsin.



6. Bir satrga ikki xonali, ikkinchi satrga esa uch xonali sonlarni ko‘chirib yozing:

475, 83, 925, 604, 24, 354, 66, 524, 18.

7. Tomonlari 30 sm va 40 sm bo‘lgan to‘g‘ri to‘rtburchakning perimetrini toping.

UCH XONALI SONNI XONA BIRLIKLARI YIG‘INDISI KO‘RINISHIDA TASVIRLASH

1. Sonlarni xona qo‘shiluvchilari yig‘indisi ko‘rinishida tasvirlanishini tushuntiring:

175 = 100 + 70 + 5	419 = 400 + 10 + 9
284 = 200 + 80 + 4	863 = 800 + 60 + 3

2. Misollarni namuna bo‘yicha bajaring:

Namuna: 500 + 70 + 5 = 575.

400 + 30 + 4	600 + 80 + 9	800 + 90 + 3
300 + 30 + 7	200 + 60 + 2	500 + 50 + 1
100 + 70 + 5	700 + 20 + 8	900 + 40 + 6

3. O‘ngdan chapga qarab birlar qaysi o‘ringa, o‘nlar qaysi o‘ringa va yuzlar qaysi o‘ringa yoziladi?

4. Quyidagi sehrli kvadratchalarni to‘ldiring.

		170
	150	160
130		120

		140
	150	
160	110	180

135	120	195
	150	
		165

5. Sonlarni xona qo‘shiluvchilari yig‘indisi ko‘rinishida yozing: 153; 226; 345; 582; 738; 895

6.

5 o‘nl + 4 o‘nl	7 yuz + 1 yuz	4 yuz + 3 yuz
6 yuz + 2 yuz	9 o‘nl + 1 o‘nl	3 o‘nl + 3 o‘nl

7. Maktab bog‘ida 50 tup daraxt bor. Ulardan 18 tupi olma, 17 tupi nok, qolganlari esa o‘rik daraxti. Bog‘da necha tup o‘rik daraxti bor?

1. Misollarni namunada ko‘rsatilganidek yeching:

Namuna: 300 + 20 + 7 = 327.

800 + 90 + 8	500 + 40 + 6	600 + 80 + 3
200 + 30 + 5	700 + 20 + 1	400 + 50 + 7

2. Har qaysi qatordagi ortiqcha sonni ayting.

1) 284, 501, 624, 42, 712;
2) 86, 200, 14, 57, 96;
3) 815, 945, 726, 68, 438.

3. Do‘konda bir kunda 200 kg shakar sotildi. Shundan keyin do‘konda sotilganidan 100 kg ortiq shakar qoldi. Dastlab do‘konda necha kilogramm shakar bo‘lgan?

4. Mashinada ko‘rsatilgan sonlarni o‘sib borish tartibida yozing:

5. Uchburchakning perimetri 12 sm. Uning bir tomoni uzunligi 5 sm ga, ikkinchi tomoni uzunligi 3 sm ga teng. Uchburchakning uchinchi tomoni uzunligini toping.

6. Sonlarni xona birliklari yig‘indisi ko‘rinishida ifodalang: 134, 172, 523, 675, 860, 792, 873, 951.

7. 3, 0, 5 raqamlaridan foydalanib, bir nechta uch xonali son tuzing va uni yozing.

UCH XONALI SONLARNI TAQQOSLASH

1. 0, 1, 2 va 4, 5, 6 raqamlaridan foydalanib, ularning birortasini ham takrorlamasdan, mumkin bo‘lgan hamma uch xonali sonlarni yozing.

2. Sonlarning taqqoslanishini tushuntiring:

295 > 259	295 < 529	295 > 254
295 < 376	295 = 295	295 < 925

Uch xonali sonlar yuzliklar soni bo‘yicha taqqoslanadi. Agar yuzliklar soni teng bo‘lsa, o‘nliklar soni bo‘yicha taqqoslanadi. Agar o‘nliklar soni ham teng bo‘lsa, birliklar soni bo‘yicha taqqoslanadi. Agar birliklar soni ham teng bo‘lsa, bunday sonlar teng bo‘ladi.

3. Misollarni namuna bo‘yicha bajaring: 482 > 328.

396 ☐ 369	825 ☐ 852	245 ☐ 245
248 ☐ 284	586 ☐ 568	471 ☐ 417

4. Birinchi olcha daraxtidan 48 kg, ikkinchi daraxtdan esa undan 36 kg kam olcha terib olindi. Birinchi tupdagi olcha ikkinchi tupdan terilgan olchadan necha marta ortiq?

5. Berilgan shakldan 3 ta cho‘pni shunday olingki, natijada 5 ta kvadrat qolsin.



6. Ikkita kesma chizing. Birining uzunligi 12 sm, ikkinchi kesma birinchi kesmaning to‘rtdan bir qismiga teng bo‘lsin.

7. Taqqoslang:

214 ☐ 274	912 ☐ 713	465 ☐ 654
365 ☐ 158	564 ☐ 564	380 ☐ 308

1. 1) Sanoqda 199 sonidan keyin qaysi son keladi? 999 sonidan keyin-chi?

2) Sanoqda 690 sonidan oldin qaysi son keladi? 1000 sonidan oldin-chi?

2.

399 ☐ 400	842 ☐ 824	248 ☐ 842
576 ☐ 567	575 ☐ 575	970 ☐ 907
284 ☐ 482	536 ☐ 627	821 ☐ 912

3. Oshxonaga 100 kg piyoz keltirildi. Birinchi kuni uning ikkidan bir qismi, ikkinchi kuni uchdan bir qismi ishlatildi. Oshxonada necha kilogramm piyoz qolgan?

4. Sonlarni o‘sib borish tartibida joylashtiring.

255 256 253 254 252 251 250

5. Xona birliklari yig‘indisini son bilan ifodalang:

Namuna: 200 + 40 + 6 = 246.

500 + 70 + 5	900 + 10 + 7	400 + 20 + 2
700 + 80 + 9	500 + 50 + 8	300 + 60 + 3

6. Jadval bo‘yicha masala tuzing va uni yeching.

Bitta kastumga ketgan mato	Kas-tumlar soni	Hamma kastumga ketgan mato
4 metr	20 ta	?
4 metr	?	80 metr
?	20 ta	80 metr

7. 4 ta savatda 16 kg, 2 ta savatda esa 8 kg olma bor. Agar 4 ta savatdagi olmalar ko‘p bo‘lsa, ular 2 ta savatdagi olmalardan necha marta ko‘p?

8. 321 ☐ 156 | 561 ☐ 615 | 672 ☐ 672

432 ☐ 234 | 445 ☐ 542 | 263 ☐ 362

MING ICHIDA OG‘ZAKI VA YOZMA RAQAMLASH. UZUNLIK O‘LCHOVI: KILOMETR

1.



	1	0	0	0		

Bunda cho‘plar nechta? 1000 soni bunday yoziladi:

10 ta yuzlik — ming.

2. 1) 1 ta yuzlikda nechta o‘nlik, nechta birlik bor?



1 ta yuzlik = 10 ta o‘nlik = 100 ta birlik.

2) 1 ta minglikda nechta yuzlik, nechta o‘nlik, nechta birlik bor ?

1 ta minglik = 10 ta yuzlik



1 ta minglikda 10 ta yuzlik, 100 ta o‘nlik, mingta birlik bor. Ming soni quyidagicha yoziladi: 1000

3. 1) 100 dan 1000 gacha 100 tadan qo‘shib sanang;

2) 497 dan 507 gacha, 768 dan 805 gacha, 989 dan 1000 gacha 1 tadan qo‘shib sanang.

1 km = 1000 m

Katta masofalar kilometrlarda o‘lchanadi. «Kilo» so‘zi lotincha bo‘lib, o‘zbekcha «ming»ni bildiradi. 1 kilometrda 1000 metr bor. Masofani ko‘rsatganda sonlar yoniga «kilometr» so‘zi qisqacha **km** deb yoziladi.
Masalan, 2 km, 150 km, 500 km.

4. Ikki qishloq orasidagi masofa 25 km. Velosipedchilar bir-biriga qarab yo‘lga tushdi. Ulardan biri uchrashguncha 13 km yo‘lni bosib o‘tdi. Ikkinchi velosipedchi qancha yo‘l yurgan?



5. Rasmdagi shakllarni daftaringizga chizing va ularni bo‘yang.



6. Sonlarni o‘qing: 185, 270, 472, 600, 785, 598, 999. Bu sonlarning har birida nechta yuzlik, nechta o‘nlik, nechta birlik bor?

7. Nafisa 5 yoshda. Otasi qizidan 8 marta katta. Otasi necha yoshda?

8.

47 + 43 − 20	78 − 20 + 12	97− (28 + 12)
24 − 30 + 16	23 + 23 − 30	63 + (47 − 25)

1. Quyidagi sonlarni o‘qing, bu sonlarning har birida nechta yuzlik, nechta o‘nlik, nechta birlik bor?

675, 448, 729, 931, 800, 867, 999, 1000.

2.



1 000 = 100 + ...	1 000 = 400 + ...	1 000 = 700 + ...
1 000 = 200 + ...	1 000 = 500 + ...	1 000 = 800 + ...
1 000 = 300 + ...	1 000 = 600 + ...	1 000 = 900 + ...

3. 999 sonidan 1 ta ortiq, 1 000 sonidan 1 ta kam sonni ayting.

Agar sonning biror xonasida nol turgan bo‘lsa, son o‘qilganda shu xona nomi tushirib qoldiriladi, ya’ni o‘qilmaydi.

4. Sonlarni o‘sib borish tartibida joylashtiring:



5. Uchta sonning yig‘indisi 968. Birinchi son 468, Ikkinchi son 332 bo‘lsa, uchinchi sonni toping.

6. Sonlarni oshib borish tartibida ko‘chirib yozing:

675, 448, 729, 995, 800, 997, 867, 999, 1000.

7. Do‘konga 100 ta velosiped olib kelindi. 6 kunda har kuni 9 tadan velosiped sotildi. Sotish uchun yana nechta velosiped qoldi?

MINGLIK, YUZLIK, O‘NLIK VA BIRLIKLAR ORASIDAGI MUNOSABAT

1.



1000 = 999 + ...	1000 = 996 + ...	1000 = 993 + ...
1000 = 998 + ...	1000 = 995 + ...	1000 = 992 + ...
1000 = 997 + ...	1000 = 994 + ...	1000 = 991 + ...

2. Birinchi xirmondagi sholi 400 qop, ikkinchisidagi esa 300 qop chiqadi. Har ikkala xirmondagi hamma sholi qancha qop bo‘ladi?

3. Sonlarni o‘qing: 645, 403, 800, 545, 999, 300.
1) Bu sonlarning har birida nechta birlik bor?
2) Bu sonlarning har birida nechta o‘nlik bor?
3) Bu sonlarning har birida nechta yuzlik bor?
3 raqami qatnashgan sonlarni yozing.
O‘nlar xonasida 4 raqami qatnashgan sonni yozing.

4. Tushirib qoldirilgan sonlarni qo‘yib, misollarni ko‘chirib yozing:

730 = □□ o‘nl.	564 = □□ o‘nl. □ birl.
890 = □□ o‘nl.	495 = □□ o‘nl. □ birl.
280 = □□ o‘nl.	328 = □□ o‘nl. □ birl.

5. 5, 0, 8 raqamlari yordamida nechta uch xonali son yozish mumkin?

508, 580, 805, 850....

6. Rasm asosida masala tuzing va uni yeching.



7. Bitta usta bir kunda 14 ta stul yig‘adi. 3 ta usta 6 kunda nechta stul yig‘adi?

8. Sonlarni raqamlar bilan ifodalang.

Namuna: 5 yuzlik, 6 o‘nlik va 3 birlik = 563.

8 yuzlik 5 o‘nlik va 2 birlik;
5 yuzlik 3 o‘nlik va 4 birlik;
7 yuzlik 6 o‘nlik va 3 birlik;
9 yuzlik 1 o‘nlik va 5 birlik.

1. 1) Eng katta uch xonali son: 999.
2) Bu songa 1 ni qo‘shamiz: 999 + 1.
3) Natijada to‘rt xonali son hosil bo‘ladi.

2. Jadvalda yozilgan sonlarni o‘qing va ularni daftaringizga yozing.

Minglar xonasi	Yuzlar xonasi	O‘nlar xonasi	Birlar xonasi
1	0	0	0
	5	6	7
	4	0	9
	8	4	1

3. 672, 394, 289, 963, 495 sonlarini xona qo‘shiluvchilar yig‘indisi ko‘rinishida yozing.
Namuna: 567 = 500 + 60 + 7.

4. Ikki shahar orasidagi masofa 150 km. Bu shaharlardan bir-biriga qarab ikki mashina yo‘lga chiqdi. Birinchi mashina 60 km, ikkinchisi 70 km yo‘l yurganidan keyin ular orasida qancha masofa qoladi?



5. Birinchi kesmaning uzunligi 80 sm, ikkinchi kesmaning uzunligi birinchisidan 16 sm qisqa. Ikkala kesma uzunliklarining yig‘indisini toping.

6. Shahnoza 248 betlik kitobning 124 betini o‘qidi. U yana kitobning necha betini o‘qishi kerak?

1000 SONI. 1000 ICHIDA QO‘SHISH VA AYIRISHNING HISOBLASH USULLARI

1. Misollarni tushuntirib yeching.

1) 70 + 50 = □□□
7 o‘nl. + 5 ta o‘nl. = 12 ta o‘nl. = 120 ta birl.
Demak: 70 + 50 = 120.

2) 140 − 60 = □□
14 ta o‘nl. − 6 ta o‘nl. = 8 ta o‘nl. = 80 ta birl.
Demak: 140 − 60 = 80.

3) 200 + 600 = □□□
2 ta yuzl. + 6 ta yuzl. = 8 ta yuzl. = 800 ta birl.
Demak: 200 + 600 = 800.

4) 900 − 400 = □□□
9 ta yuzl. − 4 ta yuzl. = 5 ta yuzl. = 500 ta birl.
Demak: 900 − 400 = 500.

5) 270 + 60 = □□□
27 ta o‘nl. + 6 ta o‘nl. = 33 ta o‘nl. = 330 ta birl.
Demak: 270 + 60 = 330.

6) 420 − 60 = □□□
42 ta o‘nl. − 6 ta o‘nl. = 36 ta o‘nl. = 360 ta birl.
Demak: 420 − 60 = 360.

Qo‘shish va ayirishda nollar bilan tugaydigan yuzlik va o‘nliklarni o‘nliklar va birliklar ustidagi amallar bilan almashtirish mumkin.

2.

400 + 100	80 + 60	500 + 400	270 + 60
700 − 300	90 − 30	300 − 200	240 − 70

3. Ombordan do‘konlarga jami necha kilogramm sabzavot jo‘natilgan?



4. Sonlarni taqqoslang.

276 ☐ 438	843 ☐ 263	348 ☐ 245
325 ☐ 483	438 ☐ 903	576 ☐ 576

5. Korxonada 426 nafar ayol va 314 nafar erkak ishchi ishlaydi. Korxonada jami necha nafar ishchi ishlaydi?

6.

90 + 50	160 − 70	300 + 400	200 + 60
80 − 40	280 + 50	900 − 500	700 − 70

7. Bozorga 865 kg sabzi keltirildi. Birinchi kuni 342 kg, ikkinchi kuni 326 kg sabzi sotildi. Sotiladigan qancha sabzi qoldi?

1. Misollarni tushuntirib yeching:

1) 360 + 30 = □□□

360 + 30 = 300 + (60 + 30) = 300 + 90 = 390

300 60

Demak: 360 + 30 = 390.

2) 580 − 70 = □□□

580 − 70 = 500 + (80 − 70) = 500 + 10 = 510.

500 80

Demak: 580 − 70 = 510.

2.

620 + 50	580 − 30	270 + 200
250 + 30	150 + 40	560 − 300

3. Bir mahalla bilan ikkinchi mahalla orasidagi masofa 270 km, ikkinchi mahalla bilan uchinchisi orasi esa undan 20 km ortiq. Birinchi mahalla bilan uchinchi mahalla orasi necha kilometr?

4. Rasmdagi shakllarning yuzlarini taqqoslang:



5. 3 ta 5 yordamida 2 sonini qanday hosil qilishni bilasizmi?

6.

530 + 40	680 − 400	130 + 50	260 + 100
790 − 60	290 + 300	420 − 20	340 − 200

7. Salimaning bobosi 72 yoshda. Salima bobosidan 8 marta yosh. Salima necha yoshda?

1. 1) 460 + 40 = □□□

460 + 40 = 400 + (60 + 40) = 400 + 100 = 500.

400 60

2) 580 − 400 = □□□

580 − 400 = (500 − 400) + 80 = 100 + 80 = 180

500 80

2.

340 + 60	230 − 30	590 + 200	340 − 200
870 + 30	940 + 50	680 − 400	420 + 200

3. Do‘konga sotish uchun 9 ta yashikda mevali sharbat keltirildi. Agar har bir yashikda 10 tadan sharbat bo‘lsa, jami nechta sharbat keltirilgan?

4. Misollarni tushuntirib yeching:

700 + → 200 − → 500 − → 200 + → 800 = → ?

5. Misollarni tushuntirib yeching:



6.

490 + 200	580 − 300	260 + 40
540 − 100	270 + 400	350 − 50

7. Uyni ta'mirlash uchun birinchi kuni 24 ta, ikkinchi kuni birinchi kundagidan 6 ta ortiq, uchinchi kuni birinchi va ikkinchi kuni birgalikda qancha bo'lsa, shuncha taxta keltirildi. Uchinchi kuni nechta taxta keltirilgan?

1. Misollarning yechilishini tushuntiring:

1-usul:

1) 420 + 90 = 42 ta o'nlik + 9 ta o'nlik = = 51 ta o'nlik = 510 ta birlik = 510.

2-usul:

420 + 90 = (420 + 80) + 10 = 500 + 10 = 510

80 10

2) **1-usul:**

420 − 90 = 42 ta o'nlik − 9 ta o'nlik = = 33 ta o'nlik = 330 ta birlik = 330

2-usul:

420 − 90 = (420−20) − 70 = 400 − 70 = 330

20 70

2.

280 + 30	430 − 50	590 + 40	960 − 70
320 − 40	270 + 60	750 − 70	680 + 50

3. Bu shakllar orasida to‘rtburchaklar ko‘pmi yoki to‘g‘ri to‘rtburchaklar ko‘pmi? Ularning uchlarini harflar bilan belgilang:



4. O‘qituvchi o‘quvchilarga 29 ta bir chiziqli daftar va shuncha katak daftar tarqatdi. Shundan keyin o‘qituvchida 12 ta daftar qoldi. Dastlab o‘qituvchida nechta daftar bo‘lgan?

5. 37, 36, 45, 48, 54, 81 sonlarining qaysi biri 9 ga qoldiqsiz bo‘linadi?

6.

658 □ 654	527 □ 158	480 □ 480
427 □ 472	314 □ 341	570 □ 507

7. 24 metr gazlamadan xalat tikish uchun uchdan bir qismi qirqib olindi. Necha metr gazlama qirqib olingan?

1. Misolning yechilishini tushuntiring:

230 + 160 = □□□

200 30 100 60

230 + 160 = (200 + 100) + (30 + 60) = 390.

Yuzliklar yuzliklarga, o‘nliklar o‘nliklarga qo‘shiladi.

2. 140 + 130 | 340 + 250 | 560 + 230

260 + 120 | 420 + 170 | 750 + 210

3. Xo‘jalikdan tegirmonga 240 kg bug‘doy, 120 kg arpa olib kelindi. Tegirmonga hammasi bo‘lib necha kilogramm don keltirilgan?

4. Shunday beshburchaklar chizing. Birinchi beshburchakda shunday bitta kesma o‘tkazingki, bitta uchburchak va bitta to‘rtburchak hosil bo‘lsin, ikkinchisida esa ikkita to‘rtburchak hosil bo‘lsin.



5. Sonlarni xona qo‘shiluvchilari yig‘indisi ko‘rinishida yozing: 243, 175, 586, 891, 998, 794.

6. Shunday sonlar qo‘yingki, tenglik va tengsizliklar to‘g‘ri bo‘lsin.

50 mm = □ sm 4 dm < □□ sm

80 mm = □ sm 8 sm = □□ mm

60 mm = □ sm 5 dm > □□ sm

7. Novvoyxonada bir kunda 150 dona shirmoy non va 120 ta patir non yopildi. Nonvoyxonada hammasi bo‘lib necha dona non yopildi?

1. Misollarni tushuntirib yeching:

470 − 250 = □□□

400 70 200 50

470 − 250 = (400 − 200) + (70 − 50) = 200 + 20 = 220

Yuzliklar yuzliklardan, o‘nliklar o‘nliklardan ayriladi.

2.

350 − 230	560 − 300	690 − 460
270 − 140	480 − 250	870 − 540

3. Oziq-ovqat do‘koniga sotish uchun 560 quti qora va ko‘k choy keltirildi. Ulardan 250 qutisi qora choy bo‘lsa, necha quti ko‘k choy keltirilgan?

4. Chizma asosida masala tuzing va uni yeching.



5.

480 − 200	240 − 120	350 − 230
570 − 320	690 − 430	760 − 650

6. Muzqaymoq do‘konida birinchi kuni 140 ta, ikkinchi kuni undan 30 ta ortiq, uchinchi kuni esa ikkinchi kunga nisbatan 16 ta ortiq muzqaymoq sotildi. Uchinchi kuni nechta muzqaymoq sotilgan?

DOIRA VA AYLANA. AYLANA MARKAZI, RADIUSI, DIAMETRI. SIRKUL

1.



Rasmda **doira** tasvirlangan. *NL* – **doira radiusi**, *KM* – **doiraning diametri** bo‘ladi.

Aylana sirkul yordamida yasaladi. Sirkulning ignasi joylashgan *O* nuqtani **aylana markazi** deyiladi.

OC – **aylana radiusi.**

BC – **aylana diametri**.

2.



Odatda nuqtalar lotin alifbosining bosh harflari bilan belgilanadi. Masalan: *A* va *B* nuqta doiraning ichida, *C* va *D* nuqta esa doiraning tashqarisida yotadi.

3. Bir to‘pda 40 m chit gazlama bor edi. Choyshab uchun 20 m, yostiq jildi uchun 10 m chit gazlama qirqib olindi. To‘pda necha metr chit gazlama qoldi?

4. Tenglamalarning yechilishini tushuntiring:

$12 : x = 2$	$20 : x = 2$
$x = 12 : 2$	$x = 20 : 2$
$x = 6$	$x = 10$
$12 : 6 = 2$	$20 : 10 = 2$
$2 = 2$	$2 = 2$

5. Radiusi 4 sm bo‘lgan aylana chizing.

6.

$46 - 16 + 19$	$(69 - 68) \cdot 9$	$27 \cdot (75 - 74)$
$53 + 17 - 20$	$(38 - 38) \cdot 1$	$15 \cdot (12 - 11)$

1. Radiusi 2 sm 7 mm ga teng bo‘lgan aylana chizing. Aylana markazini harf bilan belgilang.

2. Shaklda nuqtalar lotin alifbosining bosh harflari bilan belgilangan. Doiradan tashqarida yotgan nuqtalarni, doira ichida yotgan nuqtalarni ayting.



3. Baliqchilar bir kuni 210 kg, ikkinchi kuni 180 kg baliq tutishdi. Baliqchilar shu ikki kunda hammasi bo‘lib necha kilogramm baliq tutishgan?

4.

630 + 260	470 − 240	370 + 210
580 − 310	260 + 120	280 − 150
270 + 130	740 − 310	180 + 120

5. Aylanalarning radiusini o‘lchang.



6. Javobi 111, 222, 333, 444, 555, 666, 777, 888 va 999 bo‘lgan misollar tuzing va ularni yozing.

7. Polizdan uzilgan bodringlarni 72 kilogrami 8 kg dan qilib, 54 kilogrami 6 kg dan qilib yashiklarga joylandi. Bodringlar jami nechta yashikka joylangan?

1. Rasmni qarab chiqing. Doiraning radiusi nimaga tengligini o‘lchang va yozing. *A* va *B* nuqtalar orasidagi masofa qancha? Nuqtalardan qaysilari doira ichida; doiradan tashqarida; aylanada yotibdi. Ularni ayting.



2. Radiusi 2 sm 5 mm ga teng bo‘lgan, markazi daftar chiziqlarining kesishgan nuqtasida bo‘lgan aylanani sirkul yordamida chizing. Uni 4 ta teng qismga bo‘ling. Bir qismini bo‘yang.

3. Do‘konda bir kunda 270 kg kartoshka sotildi. Shundan keyin 120 kg kartoshka qoldi. Dastlab do‘konda necha kilogramm kartoshka bo‘lgan?

4. Jadval asosida masala tuzing va uni yeching.

Bor edi	Keltirildi	Bo‘ldi
120 ta velosiped	Yana 120 ta velosiped	? ta

5. 5, 10, 15, 20, 25, 30, 35 sonlarini har bir doirachaga bittadan shunday joylashtiringki, har qaysi yo‘nalishdagi uchta sonning yig‘indisi 50, 60, 70 chiqsin.



6.

564 ☐ 546	341 ☐ 291	658 ☐ 658
283 ☐ 227	457 ☐ 475	529 ☐ 592

IKKITA AYLANANING TEKISLIKDA O‘ZARO JOYLASHUVI

1. Ikkita aylananing tekislikda o‘zaro joylashuvini tushuntiring.



2. Jadval asosida berilgan misollarni yeching.

+ = 1000									
	910	920	930	940	950	960	970	980	990

3. Do‘konda birinchi kuni 20 kg, ikkinchi kuni 16 kg ortiq konfet sotildi. Agar har bir qutida 3 kg dan konfet bo‘lsa, ikkinchi kuni nechta quti konfet sotilgan?

4. Misollarni yeching:

100 + ◯ = 400 570 − ◯ = 500

◯ − 200 = 500 ◯ + 90 = 290

400 + ◯ = 700 960 − ◯ = 900

5. Radiusi 3 sm 8 mm ga teng bo‘lgan aylana chizing. Aylana markazini harf bilan belgilang.

6. Anvar bilan Akbar basseynda bir-biriga qarab suzdi. Anvar uchrashguncha 27 m, Akbar esa o‘rtog‘idan 5 m qisqa masofaga suzdi. Dastlab ular orasidagi masofa necha metr bo‘lgan?

7.

599 + 1	320 + 320	190 − 140
999 + 1	180 + 220	480 − 320
898 + 1	560 + 230	770 − 560

1. Doiraning radiusi nimaga teng ekanligini o‘lchang. Doiraga tegishli nuqtalarni ayting.



2. Tikuvchilik ustaxonasida bir yilda 540 ta kastum tikilishi kerak edi. Birinchi yarim yilda 370 ta, ikkinchi yarim yilda 220 ta kastum tikildi. Yillik reja qancha oshirib bajarildi?

3. Sonlarni taqqoslang.

156 □ 261	212 □ 165	564 □ 465
912 □ 893	847 □ 248	750 □ 750

4. Sonlarni xona birliklari yig‘indisi ko‘rinishida yozing:

160=100+□□	760=700+□□	990=900+□□
240=200+□□	650=600+□□	830=800+□□

5. 8 sm uzunlikdagi kesma chizing. Bu kesmaning $\frac{1}{2}$ bo‘lagini bo‘yang. Qancha uzunlikdagi kesma bo‘yaldi?

6. Har qaysi shaklning yuzini kvadrat santimetr modellari yordamida toping:



7.

630 + 120	680 − 450	240 + 150
460 − 250	570 + 230	350 − 240

TARKIBLI MASALALAR

1. Do‘konda bir kunda 104 kg guruch, 40 kg mosh, 36 kg no‘xat sotildi. Do‘konda bir kunda necha kilogramm don sotilgan?

2. Shunday son qo‘yingki, tengliklar to‘g‘ri bo‘lsin:

430 + □□ = 500	790 − □□ = 700
570 − □□ = 500	640 + □□ = 690
600 + □□ = 680	990 − □□ = 900

3. 3 ta 5 raqami yordamida 0 sonini hosil qila olasizmi?

4. Dilnozaning bobosi 81 yoshda. Dilnoza bobosidan 9 marta kichik. Dilnoza necha yoshda?

5. Qatorni davom ettiring:

100, 150, 200, ... (800 gacha).
200, 230, 260, ... (300 gacha).
910, 920, ... (1000 gacha).

6. Uchburchakning bir burchagi qirqilsa, nechta burchak hosil bo‘ladi? Javobingizni chizmada asoslang.

7. Taqqoslang:

353 ☐ 432	543 ☐ 543	619 ☐ 196
823 ☐ 832	227 ☐ 721	154 ☐ 154

1. Tomorqadan 156 kg sabzi, undan 64 kg ortiq kartoshka kavlab olindi. Tomorqadan hammasi bo‘lib necha kilogramm sabzavot kavlab olingan?

2. Sonlarni o‘sib borish tartibida ko‘chirib yozing.

592, 431, 199, 576, 823, 472, 896, 997, 1000, 768, 349, 286, 698.

3. Kataklar sonini sanash orqali shakllarning yuzlarini taqqoslang:



1. Qaysi shaklning yuzi eng katta?
2. Qaysi shaklning yuzi eng kichik?
3. Qaysi shakllarning yuzi bir-biriga teng?

4. Tenglamalarni yeching:

$58 + x = 97$ $\quad 45 : x = 9$ $\quad x \cdot 6 = 36$

5. Azizada 21 ta sanoq cho‘plar bor edi. U bir nechta kvadrat yasagandan so‘ng 1 ta cho‘p ortib qoldi. Aziza nechta kvadrat yasagan?

6. Bir ustunga sonlar yig‘indisi, ikkinchi ustunga sonlar ayirmasini yozing. Bu sonli ifodalarning qiymatini toping: $440 + 150$, $410 + 410$, $760 - 500$, $640 - 400$, $990 - 230$, $510 + 220$, $660 + 330$.

7. Agar $a = 280$ bo‘lsa, $790 - a$, $a - 120$ ifodaning qiymatini toping.

1. Misollarni yeching:

$510 + 220$	$770 - 320$	$160 + 240$
$640 - 340$	$420 + 250$	$490 - 280$

2. Ikki shahardan bir-biriga qarab avtobus va yengil mashina yo‘lga chiqdi. Uchrashguncha avtobus 80 km, yengil mashina undan 40 km ortiq yo‘l yurdi. Shaharlar orasidagi masofani toping.



3. Sisternada 89 litr sut bor edi. Undan har biriga 9 litrdan qilib 9 ta bidonga sut quyildi. Sisternada necha litr sut qoldi?

4. To‘g‘ri to‘rtburchak to‘rtta teng qismga bo‘lindi. Uning to‘rtdan bir qismi qizil, qolgan qismi yashil rangga bo‘yaldi. To‘g‘ri to‘rtburchakning qanday qismi yashil rangga bo‘yalgan?

5. Yig‘indisi 100 bo‘lgan sonlar juftini toping:
35, 27, 44, 88, 65, 12, 56, 73.

6. Uchta sonning yig‘indisi 100 bo‘lgan sonlarni toping:
21, 15, 55, 71, 66, 38, 13, 14, 15, 43, 19, 30.

7. Javobi 100 chiqishi uchun qaysi tomondan yurish kerak? Hisoblashni to‘g‘ri bajaring.



8. Ertalab do‘konda 760 metr shoyi bor edi. Kun oxiriga kelib 160 metr shoyi qoldi. Qolganiga qaraganda necha metr ortiq shoyi sotilgan?

9. Misollarni yeching:

620 + 300	560 − 300	680 + 210
850 − 500	340 + 150	760 − 340

SONNING QISMINI VA QISMIGA KO‘RA SONNI TOPISH. QISMLARNI TAQQOSLASH

1. 1) Tasma uzunligining yarmisini toping.

12 sm

Yarmi	Yarmi
6 sm	6 sm

Yechish: 12 : 2 = 6 (sm). Javob: 6 sm.

Sonni ikkiga bo‘lganda hosil bo‘lgan son shu sonning ikkidan bir qismi yoki yarmi deb ataladi.

2) Tasma uzunligining uchdan bir qismini toping.

12 sm

Uchdan biri	Uchdan biri	Uchdan biri
4 sm	4 sm	4 sm

Sonni uchga bo‘lganda hosil bo‘lgan son shu sonning uchdan bir qismi deyiladi.

3) Tasma uzunligining to‘rtdan bir qismini toping.

12 sm

To‘rtdan biri	To‘rtdan biri	To‘rtdan biri	To‘rtdan biri
3 sm	3 sm	3 sm	3 sm

Sonni to‘rtga bo‘lganda hosil bo‘lgan son shu sonning to‘rtdan bir qismi yoki choragi deb ataladi.

2.

20 + 19	90 − 50	57 + 32	100 − 9
48 + 10	58 − 50	57 − 32	100 − 47

3. Kitob 80 betlik. Sardor bu kitobning to‘rtdan bir qismini o‘qib chiqdi. Sardor kitobning yana necha betini o‘qishi kerak?

4. Misollarni tushuntirib yeching.

56 − 16 = □□

8 · 7 = □□ 40 : 4 = □□

72 : 9 = □ 10 · 9 = □□

40 + 32 = □□ 90 − 18 = □□

5. Agar tarvuzning yarmisi 4 kg bo‘lsa, butun tarvuz necha kilogramm?

6.

35 : 7 □ 35 : 5	28 : 4 □ 30 : 5	4 · 6 □ 9 · 7
42 : 6 □ 49 : 7	30 : 6 □ 45 : 9	8 · 8 □ 7 · 4

7. Qovoqning uchdan bir qismi 2 kg. Butun qovoqning o‘zi necha kilogramm?

1. Koptoklarning umumiy soni 12 ta bo‘lsa:

1) koptoklarning yarmisi qancha?

2) koptoklarning uchdan bir qismi qancha?



3) koptoklarning to‘rtdan bir qismi qancha?

2. Qavslarni shunday qo‘yingki, natija berilgan songa teng bo‘lsin:

15 − 7 + 3 = 5 58 − 17 − 9 = 50 40 − 12 − 2 = 30

3. Misollarni tushuntirib yeching:



4. Javobi 200 chiqishi uchun qaysi tomondan yurish kerak? Hisoblashni to‘g‘ri bajaring.



5. Berilgan kesmaning uchdan bir qismi 4 sm. Berilgan kesmaning uzunligini toping va uni chizmada ko‘rsating.

6.

(38 – 28) · 9	75 – 57 + 24	35 : (37 – 30)
(91 – 88) · 8	41 – 29 + 12	54 : (26 – 20)
(67 – 60) · 7	21 + 29 – 10	81 : (19 – 10)

7. Aziz she’rning yarmini yodladi. Agar u 12 satr she’rni yodlagan bo‘lsa, bu she’r necha satrli bo‘lgan?



O‘TILGANLARNI MUSTAHKAMLASH UCHUN MASHQLAR

1. Amallarni bajaring. Ifodalarning bir-biriga bog‘liqligini aniqlang:

3 · 8 = 24	5 · 6=30	9 · 2 = 18
24 : 3 = □	30 : 5=□	18 : 9 = □
24 : 8 = □	30 : 6=□	18 : 2 = □

2. Maktab ustaxonasida 28 ta stul, undan 4 marta kam stol ta’mirlandi. Hammasi bo‘lib nechta stol va stul ta’mirlandi?

3. Ranglarga qarab misollarning javobini toping:

100 + 100	72 : 8	9 · 8	420 – 20
300 – 100	200 + 100	64 : 8	7 · 9
9 · 9	500 – 100	200 + 20	500 + 80

4. 24 metr shoyidan ko‘ylak tikish uchun uchdan bir qismi qirqib olindi. Necha metr shoyi qirqib olingan?

5. LM to‘g‘ri chiziq ABC uchburchakning birinchi shaklda qaysi tomonlarini, ikkinchi shaklda qaysi tomonlarini kesib o‘tgan?



6. Yangi qurilgan binoning birinchi qavatida 27 ta, ikkinchi qavatida esa 29 ta xona bor. Ikkinchi qavatida birinchisiga qaraganda nechta ko‘p xona bor?

7.

240 ☐ 180	185 ☐ 158	382 ☐ 382
567 ☐ 657	478 ☐ 487	259 ☐ 529

8. Har bir shakldagi kvadratchalarni sanab, shakllarning yuzini toping:



9. Sobirda 20 ta sanoq cho‘p bor edi. Bir nechta alohida uchburchak yasagandan so‘ng 2 ta cho‘p ortib qoldi. Sobir nechta uchburchak yasagan?

10. Tenglamalarni yeching:

$42 + x = 79$ | $x \cdot 2 = 12$ | $4 \cdot x = 32$ | $x : 5 = 8$

11. Musobaqada 26 nafar o‘g‘il bola va 10 nafar qiz bola qatnashmoqda. Ular 9 nafardan bo‘lib guruhlarga bo‘linishdi. Bolalar nechta guruhga bo‘linishgan?

12. Ranglarga qarab misollarning javobini toping:

43+24	2·9	27 : 3	74+26
75−25	64+30	3·6	18 : 3
24 : 3	58−27	42+28	3·5

13. Qisqa yozuv bo‘yicha masala tuzing va uni yeching:

1) Bor edi — 9 ta vertolyot
Uchib ketdi — ? ta vertolyot
Qoldi — 5 ta vertolyot

2) Bor edi — 15 *l* sut
Ishlatildi — 4 *l* va 3 *l* sut
Qoldi — ? *l* sut

14. Shunday son qo‘yingki, tengliklar to‘g‘ri bo‘lsin.

250 + □□ = 290	530 − □□ = 500
680 − □□ = 600	460 + □□ = 500
900 + □□ = 950	370 − □□ = 300

15. Bir shahar bilan ikkinchisi orasidagi masofa 120 km, ikkinchi shahar bilan uchinchisi orasi esa undan 30 km ortiq. Birinchi shahar bilan uchinchi shahar orasi necha kilometr?

16. Ikkita cho‘pning o‘rnini shunday almashtiringki, natijada 5 ta bir xil kvadrat hosil bo‘lsin.



17. Rasm va qisqa yozuv bo‘yicha masala tuzing va uni yeching:

Bor edi – 10 ta konfet
Yeyildi – 3 va 2 ta
Qoldi – ? ta konfet

I usul □□–(□+□)

II usul (□□–□)–□

18. Sonlarni raqamlarda ifodalang:
4 ta yuzlik, 5 ta o‘nlik va 2 ta birlik.
5 ta yuzlik, 8 ta o‘nlik va 6 ta birlik.
8 ta yuzlik, 2 ta o‘nlik va 9 ta birlik.

19. Rasmda berilgan shakllarni taqqoslang:



20. Ifodalarni yozing va ularning qiymatini toping:
1) 4 va 8, 3 va 9, 4 va 5 sonlarning ko‘paytmasi;
2) 36 va 4, 27 va 3, 28 va 4 sonlarning bo‘linmasi.

21. Do‘konda bir kunda 140 kg shakar sotildi. Shundan keyin do‘konda 60 kg shakar qoldi. Ertalab do‘konda qancha shakar bo‘lgan?

22. (17 + 11) : 4 | (67 − 43) : 3 | (77 − 41) : 4
(58 − 31) : 3 | (18 + 14) : 4 | (11 + 10) : 3

23. Har biri 4 kilogrammdan 6 quti konfet sotib olindi. Olingan hamma konfetlarning massasi qancha?

24. Bir ustunga sonlar yig‘indisini, ikkinchi ustunga sonlar ayirmasini yozing. Bu sonli ifodalarning qiymatini toping:
100 + 28, 500 − 300, 400 + 60, 800 − 400, 380 + 40, 650 − 50.

25. Samolyot manzilga yetishi uchun yana qancha masofani uchib o‘tishi kerak?

26. Tomonlari 4 sm 5 mm va 2 sm 4 mm bo‘lgan to‘g‘ri to‘rtburchak chizing. Uning uchlarini harflar bilan belgilang.

27. 32 : 8 □ 72 : 9 | 9 · 8 □ 7 · 6 | 49 : 7 □ 7 · 7
54 : 6 □ 40 : 5 | 6 · 6 □ 4 · 9 | 45 : 9 □ 5 · 9

28. Ifodalarning qiymatini toping:
1) 40 bilan 10 ning bo‘linmasini 9 marta orttiring;
2) 8 bilan 5 ning ko‘paytmasini 4 marta kamaytiring.

29. 1, 2, 3, 4, 5, 6 sonlari orasiga arifmetik amallarni va qavslarni shunday qo‘yingki, natijada 60 hosil bo‘lsin.

30.

Buyuk bobokalonimiz Al-Xorazmiy 783-yilda, Abu Ali ibn Sino esa 980-yilda tug‘ilgan. Al-Xorazmiy Abu Ali ibn Sino-dan necha yosh katta? Abu Ali ibn Sino Al-Xorazmiydan necha yosh kichik?

31. Jadval asosida masala tuzing va uni yeching.

Bor edi	Keltirildi	Bo‘ldi
100 ta yashik o‘rik	Yana 50 ta yashik o‘rik	? ta

32. O‘ylangan sonni *x* harfi bilan belgilang va tenglama tuzib yeching:

1) O‘ylangan songa 30 ni qo‘shib, 58 hosil qilindi. Qanday son o‘ylangan?
2) O‘ylangan sonni 25 ta kamaytirib, 45 hosil qilindi. Qanday son o‘ylangan?

33. Amal ishoralarini tengliklar to‘g‘ri bo‘ladigan qilib qo‘ying:

30 □ 17 = 47	48 □ 26 = 22	69 □ 69 = 0
54 □ 24 = 30	47 □ 41 = 88	23 □ 20 = 3

34. Uchta sonning yig‘indisi 100. Birinchi son 55, ikkinchi son 25. Uchinchi sonni toping.

35. Qo‘shish va ayirishning to‘g‘ri bajarilganligini qanday tekshirish mumkin?

MUNDARIJA

1-sinfda o‘tilgan materiallarni takrorlash va umumlashtirish.... 3
Yig‘indi va ayirmani topishga doir sodda misollar 3
Qiymati bir xil bo‘lgan misollar.... 5
Qo‘shishni tekshirish 9
Ayirishni tekshirish..... 10
To‘g‘ri burchak. To‘g‘rimas burchak 11
Ko‘pburchak perimetri..... 13
Sonlar va hisoblashlar. 100 ichida o‘nlikdan o‘tib qo‘shish va ayirish 16
Sonlar o‘qi va uning modellari .. 16
100 Ichida sonlarni xonadan o‘tib qo‘shish usullari 19
Sodda va tarkibli masalalarni yechish 22
Ikki xonali sonlarning o‘nli tarkibi. 26
Sonlarni qo‘shishning ustun usuli .. 26
Namuna bo‘yicha ketma-ketlikni davom ettirish 32
Kundalik hayotda uchraydigan koordinatalar sistemasining modellari..... 34
100 Ichida sonlarni xonadan o‘tib ayirishning yozma usuli .. 38
Sonlarni ayirishning ustun usuli .. 41
Ayirmani topishga doir tarkibli masalalar 45
Vaqt birliklari: soat, minut. Vaqt, masofa va tezlikni topishga oid sodda masalalar 47
Oddiy shakllarni murakkab shakllarga aylantirish va aksincha..... 50
To‘g‘ri to‘rtburchak qarama-qarshi tomonlarining xossalari 51
Kvadrat 53
Qo‘shish va ayirish amallarining tarkibiy qismlari va natijalari orasidagi o‘zaro bog‘lanish 55
Sonli ifodalar. Tenglamalar. Geometrik shakllar va kattaliklar..... 58
Bir nechta teng (bir xil) qo‘shiluvchilar yig‘indisi. Sonni bir necha teng qo‘shiluvchilar yig‘indisi shaklida ifodalash ... 61
Sodda va tarkibli masalalarni yechish 62
Harfli ifodalar..... 63
Geometrik shakllarni belgilash ... 67
Tenglama. Tenglamalarni tanlash usuli bilan yechish..... 69
Ko‘paytirish va bo‘lish. Geometrik shakllar va kattaliklar .. 75
Ko‘paytirish. Ko‘paytirishning ma’nosi..... 75
Ko‘paytirish amali komponentlarining nomlanishi..... 79
Har bir amal komponentlari va natijalari orasida o‘zaro bog‘lanishlar 80
Bo‘lish. Bo‘lish amalining ma’nosi..... 82
Teng qismlarga bo‘lish. To‘plamning qismi 85
Ko‘paytirish va bo‘lish amali bilan yechiladigan masalalar .. 86
Ko‘paytirish va bo‘lish amallari orasidagi munosabat 89
Masalalarni jadval usulida yechish..... 90
Noma’lum ko‘paytuvchini topish 92
Noma’lum bo‘linuvchini topish ... 95
Millimetr..... 97
0, 1, 10 Sonlari ishtirokida ko‘paytirish va bo‘lish..... 98

10 Soni ishtirokida ko‘paytirish va bo‘lish.....101
Qavsli va qavssiz ifodalar.....103
Qavsli va qavssiz ifodalarda amallarni bajarish tartibi.....104
Jadval ichida ko‘paytirish va bo‘lish.....107
2 Sonini bir xonali songa ko‘paytirish, 2 ga bo‘lish va bo‘linmada 2 chiqadigan songa bo‘lish.....107
3 Sonini bir xonali songa ko‘paytirish va 3 ga bo‘lish .110
4 Sonini bir xonali songa ko‘paytirish va 4 ga bo‘lish .116
5 Sonini bir xonali songa ko‘paytirish va 5 ga bo‘lish .118
6 Sonini bir xonali songa ko‘paytirish va 6 ga bo‘lish .120
7 Sonini bir xonali songa ko‘paytirish va 7 ga bo‘lish .122
8 Sonini bir xonali songa ko‘paytirish va 8 ga bo‘lish .124
9 Sonini bir xonali songa ko‘paytirish va 9 ga bo‘lish .126
Tarkibli masalalar.....128
100 Ichida ko‘paytirish va bo‘lish.....130
Bir xonali sonlarni ko‘paytirish jadvali.....131
Bir xonali sonlarni bo‘lish jadvali.....132
Ulushlar. Geometrik shakllar va kattaliklar.....133
Sonning ulushi.....133
Sonning ulishini so‘zlar yoki sonlar yordamida tasvirlash..134
Berilgan shartlarga asosan masala tuzish va yechish.....135
Muammoli masalalar.....139
Geometrik shakllar: kvadrat, to‘g‘ri to‘rtburchak, uchburchak, doira va ular bilan bog‘liq kattaliklar.....142
Shakllarni taqqoslash va bo‘yash. Bo‘laklari bo‘yicha shaklni yasash va bo‘laklarga ajratish.....144
Bo‘linuvchi, bo‘luvchi, bo‘linma va qoldiqni chizmada ifodalash.....147
To‘g‘ri to‘rtburchak va kvadratning yuzi.....153
Yuz birliklari: kvadrat santimetr. Belgilanishi — kv. sm (sm^2).155
Katakli qog‘ozda chizilgan shakllar yuzlari.....157
Uch xonali sonlarni raqamlash. 162
Minglik.....162
Uch xonali sonlarni raqamlash..162
Yuzlik, o‘nlik va birliklardan sonlarni hosil qilish.....165
Uch xonali sonni xona birliklari yig‘indisi ko‘rinishida tasvirlash.....168
Uch xonali sonlarni taqqoslash.170
Ming ichida og‘zaki va yozma raqamlash. Uzunlik o‘lchovi: kilometr.....173
Minglik, yuzlik, o‘nlik va birliklar orasidagi munosabat....176
1000 Soni. 1000 Ichida qo‘shish va ayirishning hisoblash usullari.....179
Doira va aylana. Aylana markazi, radiusi, diametri. Sirkul.....187
Ikkita aylananing tekislikda o‘zaro joylashuvi.....190
Tarkibli masalalar.....192
Sonning qismini va qismiga ko‘ra sonni topish. Qismlarni taqqoslash.....196
O‘tilganlarni mustahkamlash uchun mashqlar.....199

NABIYA ABDULXAFIZOVNA ABDURAHMONOVA
LOLAXON O‘KTAMOVNA O‘RINBOYEVA

MATEMATIKA

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining
2-sinfi uchun darslik

Tuzatilgan va to‘ldirilgan to‘rtinchi nashri

Toshkent – «Yangiyo‘l Poligraf Servis» – 2018
Nashriyot litsenziyasi AI № 185 10.05.2011 y.

Muharrir M. Riksiyeva
Texnik muharrir M. Riksiyev
Musahhih B. Azimov
Rassom J. Azimov

Bosishga 10.04.2018 y. da ruxsat etildi.
Bichimi 70x90$^{1}/_{16}$. Ofset bosma. «Pragmatica» garniturasi.
Bosma t. 13,0. Shartli b.t.15,21 .
Adadi _____ nusxa. ____-raqamli buyurtma.

«Yangiyo‘l Poligraf Servis» MChJ bosmaxonasida chop etildi.
112001, Toshkent viloyati, Yangiyo‘l tumani, Samarqand ko‘chasi, 44- uy

Ijaraga beriladigan darslik holatini ko'rsatuvchi jadval

№	O'quvchining ismi va familiyasi	O'quv yili	Darslikning olingandagi holati	Sinf rahbari-ning imzosi	Darslikning topshirilgan-dagi holati	Sinf rahbari-ning imzosi
1.						
2.						
3.						
4						
5.						
6.						

Darslik ijaraga berilib, o'quv yili yakunida qaytarib olinganda yuqoridagi jadval sinf rahbarlari tomonidan quyidagi baholash mezonlariga asosan to'ldiriladi:

Yangi	Darslikning birinchi marotaba foydalanishga berilgandagi holati.
Yaxshi	Muqova butun, darslikning asosiy qismidan ajralmagan. Barcha varaqlari mavjud, yirtilmagan, ko'chmagan, betlarida yozuv va chiziqlar yo'q.
Qoniqarli	Muqova ezilgan, birmuncha chizilib, chetlari yedirilgan, darslikning asosiy qismidan ajralish holati bor, foydalanuvchi tomonidan qoniqarli ta'mirlangan. Ko'chgan varaqlari qayta ta'mirlangan, ayrim betlariga chizilgan.
Qoniqar-siz	Muqovaga chizilgan, yirtilgan, asosiy qismidan ajralgan yoki butunlay yo'q, qoniqarsiz ta'mirlangan. Betlari yirtilgan, varaqlari yetishmaydi, chizib, bo'yab tashlangan. Darslikni tiklab bo'lmaydi.